Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti

# UZLUKSIZ TA'LIM

ILMIY-USLUBIY JURNAL

2025, № 2

*DJURAYEV Risbay*
**Bosh muharrir**

## Tahrir hay'ati:

*Abdug'appor QIRQIZBOYEV*
*Uzoqboy BEGIMQULOV*
*Xolboy IBRAGIMOV*
*Laylo AXMEDOVA*
*Roxatoy SAFAROVA*
*Leyla DJURAYEVA*
*Dono G'ANIYEVA*
*Lobar QARAXANOVA*
*Dusmurod DJURAYEV*
*Baxodir AKBAROV*
*Komiljon KARIMOV*
*Komiljon GULYAMOV*
*Zulfizar KARIMOVA*

Jurnal 2001 yildan nashr qilina boshlangan.
O'z MAAdan 2007 yil 3-yanvarda № 0101-tartib raqami bilan qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan maqolalardan iqtibos keltirilganda «Uzluksiz ta'lim» jurnalidan olinganligi ko'rsatilishi lozim.

## Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,
Ziyo ko'chasi,
5-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34
(93)-503-52-07
e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

## TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

3 ***D.R.Babayeva***
Maktabgacha va maktab yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish texnologiyasi
8 ***S.B.Rajabov***
O'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishning biznespedagogik yo'nalishlari
12 ***S.S.Jumanazarov***
Globallashgan ta'lim sharoitida «Tarbiya» fani o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish muammolari
16 ***M.A.Usmonova***
Talabalarda muloqot madaniyatini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish tizimi
21 ***A.Lutfullayev***
Professional kadrlar tayyorlashda uzluksiz tizimga asoslanish
25 ***Р.Х.Джураев***
Формирование опыта исследовательской деятельности будущего учителя
30 ***Д.Зуфарова***
Анализ факторов критериев и ограничений при принятии управленческого решения менеджера образования
35 ***С.С.Эгамбердиев***
Альтернативные методы умножения в системе непрерывного образования

## UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MEDIATA'LIM: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

39 ***A.M.Xolbekov***
Raqamli texnologiyalarning ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishdagi didaktik shart-sharoitlari
44 ***D.X.Alimova***
STEAM yondashuv orqali o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish
48 ***M.Z.Hamdamova***
Uzluksiz ta'limda ma'naviyat sohasini yuksaltiruvchi targ'ibotlar
53 ***N.A.Achilov***
Uzluksiz ta'lim tizimida Al-Hakim At-Terniziyning ma'naviy-axloqiy qarashlaridan foydalanish

## MA'NAVIY TARBIYA

59 ***R.Jumaniyozov***
Sifatli ta'limning muhim mezoni
65 ***V.T.Rajabov***
O'smir qizlarda ma'naviy dunyoqarashni shakllantirishda sinf rahbarning o'rni
70 ***L.M.Qaraxonova***
Tarbiya shakllarini maktab-oila-mahalla hamkorligida tashkil etish mexanizmlari

## KASBGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK XIZMAT

75 ***S.Yu.Ashurova, N.R.Sirojiddinova***
Dual ta'lim sharoitida innovatsion rahbarlik madaniyatini shakllantirish mexanizmlari
81 ***D.I.Xodjakulova, Q.N.Ma'rufjonov***
Ta'lim-tarbiya tizimida rahbarlik va pedagogik boshqaruv qobiliyatining shakllanishi
85 ***D.T.Sobirov***
Innovatsion texnologiyalar asosida oliy ta'lim muassasalarida talabalarning o'quv topshiriq ishlarini takomillashtirish

## XORIJIY TA'LIM

89 ***Г.В.Ниетова***
Актуальные аспекты изучения японской музыкальной культуры в системе непрерывного образования Узбекистана
93 ***A.A.Nurmatov***
Kasbiy refleksiya bo'lajak o'qituvchi tayyorlashda muhim omil sifatida
97 ***O.U.Abdimurotov***
Uzluksiz ta'lim tizimida geografiya fanidan mustaqil ta'lim tashkil etishda foydalaniladigan axborot manbalari va o'quv vositalari
102 ***Sh.A.Atadjanova***
Nofilologik oliy ta'lim muassasalarida chet til o'qitish, o'rgatish masalalari xususida
106 ***N.S.Hakimova***
«Lifelong learning» konsepsiyasi asosida bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy sifatlarini uzluksiz rivojlantirish strategiyasi

# MAKTABGACHA VA MAKTAB YOSHDAGI BOLALARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

**D.R.BABAYEVA,**
Nizomiy nomidagi TDPU
Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi professori

*Ushbu maqolada maktab va maktabgacha ta'limda bolalarni kitobga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otishi, kitobxonlik insonni shaxs sifatida shakllanishi ma'naviy tafakkupining barqarorligiga bog'liqligi mazmuni tashkil etadi.*

***Kalit so'zlar:*** *faoliyat, maktabgacha, kitob, targ'ibot, mutolaa, madaniyat, falsafa, etika, etnografiya, ijtimoiy, omillar, tarbiya, axloq badiiy asar, madaniyat.*

*Содержание данной статьи заключается в том, что в школьном и дошкольном образовании у детей возникает интерес к книгам, от чтения зависит устойчивость духовного мышления и формирование человека как личности.*

***Ключевые слова:*** *деятельность, дошкольное образование, книга, пропаганда, чтение, культура, философия, этика, этнография, социальный, факторы, воспитание, нравственное произведение искусства, культура.*

*The content of this article is that in school and preschool education children develop an interest in books; the stability of spiritual thinking and the formation of a person as an individual depend on reading.*

***Key words:*** *activity, preschool education, book, propaganda, reading, culture, philosophy, ethics, ethnography, social, factors, education, morality, artistic creativity, culture.*

Jahon ta'lim tizimida kitob targ'ibotiga yo'naltirilgan dasturiy-loyihaviy faoliyatni qo'llab-quvvatlash, yoshlarning mutolaa madaniyatini shakllantirish, kommunikativ va adabiy tahlil kompetensiyalarini rivojlantirish, o'qish savodxonligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik mexanizmlar amaliyotga tatbiq etilmoqda. «Kitob o'qish» loyihasi doirasida bolalarning badiiy asar matni ustida ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, mutolaa darajasini oshirishga doir innovatsion yondashuvlarni ta'lim jarayoniga samarali tatbiq etish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, kitobxonlikni rivojlantirishning psixologik metodik omillarini aniqlashtirish va ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, mutolaa san'atini egallashga oid virtual texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq qilish, elektron o'quv adabiyotlari bilan ishlash orqali axborot iste'moli madaniyatini tarkib toptirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda yosh avlodning intellektual salohiyatini

o‘stirish, ta’lim tashkilotlari kutubxonalari fondini badiiy, ma’rifiy, ilmiy-ommabop va didaktik adabiyotlar bilan ta’minlashni yanada kuchaytirish, o‘qishga bo‘lgan ijobiy munosabatni qaror toptirish, mutolaani kundalik ehtiyojga aylantirishga erishishning huquqiy-me’yoriy asoslari yaratilmoqda.[1.74]

Jamiyatimizda kitobxonlik masalasiga yondoshuv turli davrlarda turlicha bo‘lgan. Har bir davrning o‘z extiyojidan kelib chiqib, kitobxonlik darajasi belgilangan. Binobarin, har qanday davlatning kuch-qudrati o‘z fuqarolarining ongliligi bilan belgilanar ekan, bunda albatta kitobxonlik masalasiga alohida etibor berilgan. Bugungi kunda «Mutolaa madaniyati», «Kitobxonlik madaniyati», «O‘qish madaniyati» kabi atamalar bilan qo‘llanilib kelayotgan ijtimoiy hodisalar axborot olish madaniyatining tarkibiy qismlaridir.

Ma’lumki, bola dunyoga kelar ekan, uning ruxiyatida soflik, adolat, ishonch kabi go‘zal fazilatlar birga dunyoga keladi. Endi bola qalbidagi bu go‘zal fazilatlarni saqlab qolish uchun oila, jamiyat va ta’lim tizimi bunga tayyor bo‘lmog‘i kerak. Mana shu yuksak vazifani amalga oshipish uchun davlatimizda bapcha shapt-shapoitlap yapatilishi bopasida keng ko‘lamli ishlap tashkillashtipilgan, fakat undan unumli va oqilona foydalanish masalasi dolzapb bo‘lib qolmoqda. Kitobxonlik insonni ma’naviy boyitib, uning ma’naviy-ma’pifiy bapkamolligini ta‘minlaydi. Insonning shaxs sifatida shakllanishi ma’naviy tafakkupining barqarorligiga bog‘liqdir.

Maktab va maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobga nisbatan mehr-muhabbatni shakllantirishning ahamiyati shundaki kichkintoylar, ayniqsa, 5-6 yoshli bolalar uchun atalgan kitoblarda so‘zlardan ko‘ra rasmlarning ta‘siriga katta e’tibor beriladi. Bola kitobdagi rasmlarni qayta-qayta o‘z o‘rtoqlariga, kattalarga, qo‘g‘irchog‘iga «ko‘rsatish» bilan uning mazmunini o‘z xotirasida mustahkamlaydi. Kitobdagi yorqin, chiroyli rasmlar bolalarning badiiy didini tarbiyalaydi. O‘zini bir vaqtning o‘zida kattalar singari his etish va asta sekin baholash, o‘zini tutish sezgilari uyg‘onadi. Shuning uchun ham, bu yoshda bolalar uchun ota-ona, tarbiyachilarning roli juda ahamiyatliydir. Shuningdek, bu shaklda bolalarda asosiy energetik resurslar va salohiyat uyg‘onadi. U harakatchang, juda faol bo‘lib, ichki dunyosi ham, fikri, aqli ham shunday tarzga shakllanadi.[2.103]

«Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari»da aynan maktabgacha yoshdagi bolalarning kitob o‘qish malakalarini rivojlantirish bo‘yicha talablarda bola kitob va o‘qishga qiziqish bildiradi, kutilayotgan natijalar esa quyidagilar:

– 3-4 yoshli bolalar kitob haqida tushunchaga ega; kattalardan kitob o‘qib berishlarini so‘raydi; o‘z yoshiga mos kitoblarni tomosha qiladi; kitobdagi rasmlar va so‘zlar orasidagi bog‘liqlikni aniqlaydi; rasmlardan tanish ertak qahramonlarini taniydi.

– 4-5 yoshli bolalar tinglagan hikoyasiga munosabat bildiradi va kattalarga savol beradi; rasmlar asosida tinglagan asarini asosiy o‘rinlarini gapirib bera oladi; badiiy asardan parcha tinglagandan so‘ng asar nomini ayta oladi; o‘z yoshiga mos she’rlarni yoddan biladi; kitobdan ehtiyotlab foydalanadi.

– 5-6 yosh so‘zdagi birinchi tovushni biladi; kitobni mustaqil tomosha qiladi; tovushlarni farqlaydi; so‘zlarni bo‘g‘inga bo‘ladi; so‘zlarga qofiya kelishtiradi; nutqning dialogik shaklini qo‘llaydi, savollar beradi; she’rlarni yod oladi va ifodali o‘qiydi; sevimli badiiy adabiyot, ertak va hikoya mualliflari va ularning nomini biladi; ifodalilikning ohang vositalarini to‘g‘ri qo‘llaydi; harflarga tegishli so‘zlarni topadi.

– 6-7 yosh boshqa bolalarga eslab qolgan kitob mazmunini so‘zlab berad i;sodda va murakkab gaplarni nutqida qo‘llaydi; so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘ladi;

– bo‘g‘inli kartochkalar yordamida bo‘g‘inlardan so‘zlar tuzadi; so‘z, tovush, bo‘g‘in, gap haqida tushunchaga ega; kitob nomlari, rasm tagidagi yozuvlar va hokazolarni o‘qiydi; bolalar ertak, she’r, hikoya nomini biladi mashhur yozuvchi va shoirlar nomini biladi. Maktabgacha 6-7 yoshdagi bolalar o‘zining aniq ichki sezgisini, ongini anglaydi.

«Badiiy adabiyot» bolalarni aqlan, axloqan va estetik tarbiyalashning qudratli, ta’sirchan quroli sifatida xizmat qiladi, u bola nutqining rivojlantirish va boyitishga ulkan ta’sir ko‘rsatadi. Badiiy didning shakllanishida kitoblar muhim rol o‘ynaydi. Kitoblar bolalarning yoshiga mos, mavzu va mazmuni bilangina emas, balki shu bilan birga bayon qilish usuli hamda bezatilishi bilan ham ajralib turishi muhimdir. Maktabgacha yosh davridagi bola uchun tashkil etiladigan faoliyat turlari mazmun-mohiyatining bola tomonidan oson o‘zlashtirilishini ta’minlash uchun qulayliklarning xisobga olinishi talab etiladi. Bola ta‘lim-tarbiyasi uchun qo‘llanilayotgan zamonaviy usul va vositalar turli-tuman, yorqin va jonli bo‘lib, bolada qiziqish uyg‘ota olishi kerak.

Badiiy adabiyot bilan tanishtirish vositalari orqali kitobga mehir uyg‘otish. Yosh bolalarnilar ko‘pincha begona kishi oldida uyalib gapirishga iymanadilar, shuning uchun ham bu yoshda ota – onalar tarbiyachilar ishtirok etsalar bolalar haqida bilimlarga ega bo‘lib oladilar. Bola bilan suhbat boshlanganda uni qiynayodigan har xil savollar berilsa, bola hadiksiraydi, shuning uchun ham

savollar qisqa lo‘nda va qiziqarli bo‘lish bilan bolaning o‘zini ko‘proq gapirishga imkoniyat yaratadigan bo‘lish kerak. Bolalarni adabiyotga qiziqtirishda tavsiya etilgan va o‘qilgan kitoblar haqidagi suhbat kichik ahamiyatga ega.

Tavsiyaviy suhbat bolaga kitob tanlashda yordam berishni, kitobga qiziqish uyg‘otishni, o‘ziga maqsad qilib qo‘yadi. Tarbiyachi iloji boricha har qanday so‘roqqa javobi tavsiya suhbati o‘tkaziladi, bolalarniga mos keladigan kitoblarni tavsiya etadi. Bunda albatta xonadagi turli tavsiyaviy vositalar, kitob ko‘rgazmalari, rasmli kartotekalardan foydalanib bolalarni diqqatini jalb etadi va qiziqiarli so‘zlab berish orqali ularni kitobga bo‘lgan qiziqishini orttiradi. Tavsiyaviy suhbatning qimmati shundaki u bolalarnini tartibli ravishda ko‘proq mustaqil kitobni tanlash va dunyoqarashini kengaytirishga olib keladi.

Pedagog kitob o‘qishni tavsiya etar ekan, bolalarga mustaqil raivshda kitoblarni taxlash, asrab avaylash malakasini ham singdirib beradi. Chizish uchun javonidagi kitoblarning katalog va kartotenalari rasman bo‘lsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bolalarnilarning yosh xususiyatida kichik farq bo‘lgani kabi ularning tushunishi va unga munosabatida ham kichik farq qiladi. Bundan tashqari har bir bolalarnining o‘ziga xos tomoni, xarakteri, qiziqish mavjud bo‘lib, tarbiyachi-pedagog suhbat davomida bularni tezda ilg‘ab olish lozim. Shuning uchun tarbiyachi imkoniyatini hisobga olib ular bilan yakka holda ishlashi va ularga yordam berish zarur. [3.92]Bolaning ko‘z oldida tarbiyachi kitoblarni yaxshi biladigan, uning qiziq joylarini gapirib bera oladigan maslahatchi bo‘lib gavdalanish lozim. Tarbiyachining tarbiyaviy roli birinchi marta kitobga qiziqqan bola bilan suhbatga bog‘liq. Tarbiyachi-pedagog bolalar bilan suhbatlashib kitob bilan ishlash qonun qoidalarini ham aytib o‘tishi lozim. Chunki bola olgan kitobiga javob berish, lozimligi uqtiriladi. Maktab va maktabgacha yoshdagi bolalar kitob tanlashda tarbiyachi-pedagoglarning maslahatiga muhtojdilar.

Tavsiyaviy suhbatning qimmati shundaki u bolalarnini tartibli ravishda ko‘proq mustaqil kitobni tanlash va dunyoqarashini kengaytirishga olib keladi.

Tarbiyachi-pedagog bolalarni bilan kitob almashtirayotganda davra suhbati bilan quyidagi vazifalarga amal qiladi.

1. Suhbat bolalarni qiziqishga ma‘noli bo‘lish kerak, agar shunday bo‘lmasa, kitob tavsiyasi va tarbiyachining maslahati zo‘rma-zo‘raki g‘amxo‘rligi keraksiz bo‘lib qoladi.

2. Suhbat doimo bir maqsadga qaratilgan, bo‘lib bolalarnining qobiliyatini takomillashtirishga yordam berish lozim.

– bolani suhbatlashishga majbur qilmasdan unda suhbatlashishiga moyillik uyg'otish kerak.

3. Tavsiya etilayotgan materialning to'liq mazmunini aytib bermaslik lozim, - unda bolalarnining materialga bo'lgan qiziqishi yo'qoladi.

4. Tavsiya etilayotgan materialning qisqa ifodalik, qiziqarli qilib bayon etilishi kitobga bo'lgan qiziqishni orttiradi.

5. Kitob haqida suhbatlashayotganda kitobni ko'rsatish, uning muallifi, rasmlari ba'zi joylarida o'qib berish ham mumkin – bu esa suhbatni jonli o'tishiga yordam beradi.

Ko'pgina maktab va maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqarli kitoblar berishini so'raydilar. Tarbiyachi-pedagog haqiqiy narsalar haqida u bilan birgalikda eslaydi, shundan so'ng qiziqishiga asoslanib, unga mos keladigan kitobni tavsiya etadi.[4.89]

Maktabgacha va maktab ta'limida bolalarga ertak kitoblarni multimediya dasturlaridan foydalanish, axborot kommunikatsion texnologiyalarini qo'llash orqaliy tushuntirish, audiyo ertaklar, slayd-taqdimotlar yaratish, ertak kitoblar bilan tanishtirishni multimedia yordamida tashkil etiladi.

Ma'naviyatning birinchi va eng muhim me'zoni ham har bir kishining o'qimishli, intellektual rivojlangan shaxs bo'lib yetishishiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Bola kelajakda qanday inson bo'lib yetishishi ko'proq ota-onasiga, o'z oilasiga, ilm olayotgan dargohiga hamda uni o'rab turgan muhitga bog'liq. Bugun biz tarbiyalayotgan farzandlar ertangi O'zbekistonning nurli kelajagi bo'lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.D.R.Babayeva, D.F.Xalilova. D.F.Salimova. «Bolalarning ijtimoiy moslashuvi». -T.: «Ilim ziyo zakovat». 2023y.

2. N.M.Qayumova. Maktabgacha pedagogika.- T.: 2021y.

3. D.R.Babayeva. «Nutq o'stirish nazariyasi va texnologiyasi». -T.: «Ilim ziyo zakovat». 2022y.

4. N. A. Yusupova. «Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish». «Pedagog» international research journal, 2023y.

# O‘QUVCHILARDA TADBIRKORLIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING BIZNESPEDAGOGIK YO‘NALISHLARI

**S.B.RAJABOV,**
Qori-Niyoziy nomidagi
Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
mustaqil izlanuvchisi

*Ushbu maqola O‘zbekistondagi maktab o‘quvchilari o‘rtasida tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish, tadbirkorlik ta’limi bilan bog‘liq tarixiy va zamonaviy muammolar, yechimlar va misollar muhokama qilinadi. Talabalar tadbirkorligining ilmiy pedagogik ta’rifi berilgan va tadbirkorlik ko‘nikmalarini o‘quv dasturiga kiritish muhimligi, shuningdek, yoshlarda tadbirkorlik madaniyatini yuksaltirishda ta’lim muassasalari, davlat siyosati va ijtimoiy omillarning o‘rni ko‘rib chiqiladi. Tadbirkorlik o‘quv, biznes pedagogika, O‘zbekiston, o‘quvchilar tadbirlari, innovatsiya, ishlab chiqarishy pedagogika, IT-Park, startap.*

***Kalit so‘zlar:*** *Tadbirkorlik ta’limi, biznespedagogika, O‘zbekiston, o‘quvchilar tadbirkorligi, innovatsiya, iqtisodiy pedagogika, IT-Park, startap.*

*В статье рассматривается развитие предпринимательских навыков у школьников Узбекистана. В нем обсуждаются исторические и современные проблемы, решения и примеры, связанные с предпринимательским образованием. В статье дается научно-педагогическое определение студенческого предпринимательства и подчеркивается важность интеграции предпринимательских навыков в учебную программу. В статье также рассматривается роль образовательных учреждений, государственной политики и социальных факторов в развитии предпринимательской культуры среди молодежи.*

***Ключевые слова:*** *Предпринимательское образование, бизнес-педагогика, Узбекистан, студенческое предпринимательство, инновации, экономическая педагогика, IT-парк, стартап.*

*This article explores the development of entrepreneurial skills among school students in Uzbekistan. It discusses historical and contemporary challenges, solutions, and examples related to entrepreneurial education. The paper provides a scientific pedagogical definition of student entrepreneurship and highlights the importance of integrating entrepreneurial skills into the curriculum. It also examines the role of educational institutions, government policies, and social factors in fostering entrepreneurial culture among young people.*

***Key words:*** *Entrepreneurship education, business pedagogy, Uzbekistan, student entrepreneurship, innovation, economic pedagogy, IT-Park, startup.*

O‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish o‘quvchilarga o‘z bizneslarini yaratish va boshqarish uchun zarur bo‘lgan ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini o‘z ichiga oladi. Zamonaviy ta’lim tizimlarida tadbirkorlik ta’limi muhim o‘rin egallaydi va buning jiddiy sabablari bor. Zero tadbirkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish orqali

mamlakatlarning iqtisodiy o‘sishi va innovatsion rivojlanishga erishishga katta e’tibor berilmoqda.

To‘rtinchi sanoat inqilobi sodir bo‘layotgan davrda tadbirkorlik ko‘nikmalari har bir inson uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu haqda Prezident Sh.Mirziyoev aytgan mana bu fikrlar dalolat bberib turadi: «O‘zbekistonda tadbirkorlik harakati orqaga qaytarib bo‘lmaydigan katta kuchga aylandi. Biz davlat miqyosida qanday katta maqsad va vazifalarni o‘z oldimizga qo‘ymaylik, ularni amalga oshirishda butun xalqimiz bilan birga, avvalo, sizlarga tayanamiz. Tadbirkorlarimiz qancha boy bo‘lsa, xalqimiz shuncha farovon yashaydi, davlatimiz shuncha qudratli bo‘ladi. Tadbirkorning yutug‘i – bu butun xalqimizning yutug‘i». Shu bois bugungi kunda O‘zbekistonda maktab o‘quvchilarida tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish masalasi dolzarb bo‘lib, mamlakatning iqtisodiy o‘sishi va yangi ish o‘rinlari yaratishda muhim o‘rin tutadi. Chunki tadbirkorlik – bu faqatgina shaxsiy biznes ochish emas, balki innovatsion fikrlash, muammolarni hal qilish va tashabbuskorlik qobiliyatini rivojlantirish ham demakdir. Maktab o‘quvchilarida bu ko‘nikmalarni shakllantirish ularning kelajakdagi kasbiy va shaxsiy muvaffaqiyatini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Shunday ekan, O‘zbekiston maktab o‘quvchilarida tadbirkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishdagi muammolarni pedagogik o‘rganish va ularning yechimlarini topish mamlakatda kambag‘allikka, ishsizlikka qarshi kurashning biznespedagogik masalasiga aylandi.

Masalaning tarixiy kontekstiga qaralsa, milliy pedagogikamizda buning ko‘plab misollarini ko‘ramiz. Buyuk sarkardalar va davlat arboblari qatorida yurtimizda savdo va hunarmandchilikni taraqqiy ettirgan yirik tadbirkorlar ham bo‘lgan. Sohibqiron Amir Temur davrida savdo va hunarmandchilikka katta e’tibor qaratilib, bozor munosabatlari mislsiz rivojlandi. Uning davlat boshqaruvida savdogar va hunarmandlar uchun qulay shart-sharoit, tadbirkorlik muhitini yaratildi. Buxoro, Samarqand, Xiva kabi shaharlar ulkan savdo markazlariga aylanib, bu yerda tadbirkorlik an’analari rivojlandi. Jadidlar harakati vakillari savdo, hunarmandchilik va zamonaviy biznes g‘oyalarini jamiyatga singdirishga harakat qilgan.

Biroq, sho‘ro davriga kelib, tadbirkorlik, ishbilarmonlik qattiq tazyiq ostiga olindi. Tadbirkorlar «quloq» qilinib, qatag‘on, surgun qilindi. Mustaqillik yillariga kelib, ishlab chiqarish bozorining o‘zgarishi va texnologik taraqqiyot ta’lim muassasalarida tadbirkorlik qobiliyatlarini o‘quv dasturlariga kiritish boshlandi. O‘zbekistonda bu jarayon 2020-yilni Fan, ta’lim va raqamli iqtisod rivojlanishi yili deb e’lon qilinishi bilan ustuvorlik kasb etdi.

Shu bilan birga, kambag‘allikka, ishsizlikka qarshi kurashga o‘ta katta e’tibor va imtiyozlar berilayotganiga qaramasdan, o‘quvchilarda tadirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi biznespedagogikaning umumiy o‘rta ta’lim maktablariga joriy

qilinishida ilmiy-metodik muammolar mavjud. Jumladan,

1. O‘quv dasturlarida tadbirkorlik ta’limiga yetarli e’tibor qaratilmasligi kuzatilmoqda. Ya’ni maktablarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish mashg‘ulotlari talab darajasida yo‘lga qo‘yilmagan, mavjud o‘quv dasturlari esa zamonaviy talablarga javob bermaydi.

2. O‘qituvchilarda o‘quvchilarga tadbirkorlik ko‘nikmalarini o‘rgatish kompetensiyalari yetishmasligi kuzatilmoqda.

3. Maktablarda biznespedagogika bo‘yicha ilmiy-metodik, amaliy tajriba va an’analar, ilg‘or tajriba maktablari yetarli emas. Zero tadbirkorlik faqat nazariy bilim emas, balki amaliy mashg‘ulotlarni ham o‘z ichiga olishi kerak.

4. Ayrim ota-onalarda tadbirkorlik haqida eski, an’anaviy qarash mavjud bo‘lib, ota-onalar tadbirkorlikni universal ko‘nikma emas, balki savdo sohasi, deb bilishadi va farzandlarini davlat xizmatlariga yoki an’anaviy kasblarga yo‘naltirishni afzal ko‘rishadi.

Mazkur muammolarni yechish ijtimoiy fikrda hamda umumiy o‘rta ta’lim mazmuni tadbirkorlikning imijini yangilash, yangi mazmun beruvchi biznespedagogikani rivojlantirishni taqozo qilmoqda. Jumladan, innovatsion tadbirkorlik ta’lim klasterlarini yaratish, ya’ni iqtisodiy va ijtimoiy tashkilotlar bilan hamkorlikda ta’lim klasterlarini yaratish zarur. Bu o‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirib, ularni o‘z bizneslarini tashkil qilishga yo‘naltiradi.

Biznespedagogika «O‘zbekiston - 2030» strategiyasi, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlanishida, fan, texnologiya va innovatsiyalar sohasining yangi yo‘nalishi sifatida tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Biznespedagogika xotin-qizlarimizning o‘z-o‘zini band qilishlariga ilmiy madad beradi. Ya’ni ta’lim dasturlari, Tech4Impact va Technovation Girls kabi loyihalar yosh qizlarga tadbirkorlikni o‘rgatib, ularning kognitiv va shaxsiy rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Buning uchun o‘quv dasturlarini takomillashtirish, maktab dasturlariga tadbirkorlik fanlarini kiritish, biznes va moliya savodxonligi darslarini yo‘lga qo‘yish, o‘qituvchilar malakasini oshirish – tadbirkorlikka yo‘naltirilgan o‘quv kurslari va seminarlarni tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa amaliy tajribalar va startap loyihalar orqali maktablarda tadbirkorlik klublari va biznes inkubatorlarni tashkil etish imkoniyatini yaratadi.

Yana bir muhim yo‘nalish bu – ota-onalar va jamiyatning biznespedagogik bilimlarini oshirishdir. Bunda tadbirkorlik ko‘nikmalarining ijobiy jihatlarini, ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatini keng targ‘ib qilish, ommaviy axborot vositalari, «Ota-onalar universitetlari» orqali tushuntirish ishlarini olib borish imkoniyatlari yaratiladi.

O‘zbekistonda IT-Parklar tashabusining qo‘llab-quvvatlanishi inson kapitali

rivojlanishi va innovatsiyalarni rag'batlantirish uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Bunga misol qilib, «1 000 000 dasturchi» loyihasini keltirish mumkin. Shuningdek, O'zbekistondagi ayollar biznesni ko'pincha ish tajribasi orqali o'rganishlarida USAID va BMT kabi tashkilotlarning dasturlari ularga keng imkoniyatlar yaratadi.

O'zbekistonda maktab o'quvchilarida tadbirkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish mamlakatning iqtisodiy o'sishi va innovatsiyalari uchun muhim ahamiyatga ega. Eskirgan tarbiya va o'quv dasturlari hamda qarashlar bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish, hukumatning qo'llab-quvvatlashi va innovatsion biznespedagogik dasturlardan foydalanish orqali umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tadbirkorlik ta'limi sezilarli darajada yaxshilanadi.

Maktab o'quvchilarida tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish bugungi kunda strategik ahamiyatga ega vazifadir. Zamonaviy biznespedagogik o'quv dasturlarini joriy etish, o'qituvchilarning malakasini oshirish va amaliyotga asoslangan o'qitish usullarini tatbiq etish orqali bu sohada ijobiy o'zgarishlarga erishish mumkin. Bu o'z navbatida, kelajakda tadbirkorlik muhitini kuchaytirish va mamlakat iqtisodiy o'sishiga katta hissa bo'lib qo'shiladi.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2024 yil 20 dekabr kuni mamlakatimizdagi faol tadbirkorlar bilan bo'lgan uchrashuvdagi nutqi.

2. Minskin, Ye. M. Pedagogicheskie texnologii formirovaniya predprinimatelskix kompetensiy. Sankt-Peterburg: Piter. 2008. 168 s.

3. 3. Mirzaev, M. Tadbirkorlik ta'limi: nazariy va metodologik asoslar. Toshkent: Fan va texnologiya. 2019. 234 b.

4. The Scope And Challenges Of Entrepreneurial Education In Developing Entrepreneurial Skills Of University Students In Uzbekistan. https://zienjournals.com/index.php/tjpch/article/view/5424

5. How do Women Entrepreneurs in Uzbekistan Overcome Obstacles. https://ojs.stanford.edu/ojs/index.php/intersect/article/download/3427/1734/11288

6. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri asosida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning mohiyati. https://dergipark.org.tr/tr/download/article-file/3619193

7. Entrepreneurial universities in Uzbekistan - British Council. https://www.britishcouncil.uz/en/programmes/education-society/creative-spark/entrepreneurial-universities-uzbekistan

8. The Entrepreneurship Ecosystem in Uzbekistan. https://ifit-transitions.org/wp-content/uploads/2022/11/IFIT-Uzbekistan-BT-Entrenpreneurial-Ecosystem-in-Uzbekistan.pdf.

# GLOBALLASHGAN TA'LIM SHAROITIDA «TARBIYA» FANI O'QITUVCHILARINING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

**S.S.JUMANAZAROV,**
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat
milliy instituti kafedra mudiri, t.f.n., dotsent

*Ushbu maqolada yoshlarning tarbiyalashga oid olimlarning tadqiqotlari tahlil etilgan hamda globallashgan ta'lim sharoitida «Tarbiya» fani o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish muammolari va yechimlariga doir taklif va tavsiyalar berilgan.*

***Tayanch so'zlar:*** *globallashuv, tarbiya, uzluksiz kasbiy rivojlantirish, pedagogik shart, uzluksiz kasbiy rivojlanish.*

*В статье анализируются исследования ученых по вопросам воспитания молодежи, даются предложения и рекомендации по проблемам и решениям непрерывного профессионального развития учителей предмета «Воспитания» в условиях глобализации образования.*

***Ключевые слова:*** *глобализация, образование, непрерывное профессиональное развитие, педагогические условия, непрерывное профессиональное развитие.*

*The article analyzes the research of scientists on issues of youth education, provides proposals and recommendations on the problems and solutions of continuous professional development of teachers of the subject «Education» in the context of globalization of education.*

***Key words:*** *globalization, education, continuous professional development, pedagogical conditions, continuous professional development.*

Bugungi glaballashuv sharoyitida maktab o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishning yangicha yondashuvlarini ishlab chiqish, ularning o'z kasbiga oid kompetentligini rivojlantirish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Yuqorida keltirilgan olimlarning ishlarida umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilarining uzluksiz malakasini oshirish nazariyasi va amaliyoti, malaka oshirish jarayonida o'qituvchining loyiha kompetentsiyasini rivojlantirish texnologiyasi, malaka oshirish o'quv mazmunini kasbiy ehtiyojlarga asoslangan modulli shakllantirish mexanizmi, uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonida maktab o'qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirish texnologiyalari, maktab o'qituvchilarini malakasini oshirishda masofaviy ta'limdan foydalanish metodikasiga qaratilgan bo'lib, biroq ularning tadqiqotlarida «Tarbiya» fani o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishga e'tibor qaratilmagan.

Shu bilan birga I.M. Patsekaning «Подготовка учителей начальных классов к работе по ранней профилактике девиантного поведения учашихся в системе внут-

ришкольного повышения квалификации» nomli dissertatsiyasida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy malaka oshirish tizimida talabchanlikni shakllantirish asosida o‘quvchilarning deviant xulq-atvorining barvaqt oldini olish bo‘yicha ishlashga tayyorlashning ta’lim modeli va texnologiyasini hamda pedagogik tamoyillar va shartlar ishlab chiqilgan. Shunigdek, o‘quvchilarda talabchanlikni rivojlantirish sharoitida deviant xulq-atvorning barvaqt oldini olish uchun o‘qituvchilarni tayyorlashning maqsadi, mazmuni va diagnostika vositalarini aniqlashtirilfan.

Keltirilgan tadqiqotlarda tarbiya fani o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishga oid ayrib g‘oyalar ilgari surilgan bo‘lsa-da, ammo «Tarbiya» fani o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishga yetarlicha e’tibor qaratilmagan. Shu bois, ilgari surilayotgan tadqiqot, ya’ni «Tarbiya» fani o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Chunki hozirgi ijtimoiy-madaniy vaziyatda alkogolizm va giyohvandlik, ma’naviy tanazzul, jinoyatchilikning yosharishi kabi noxush hodisalar ko‘pay-moqda. Bunda maktab o‘quvchilarini soni yil sayin ko‘payib, ularda tajovuzkorlik, intizomsizlik, ziddiyat, o‘zini tuta olmaslik kabi xulq-atvor xususiyatlarining keskin o‘sishi kuzatilmoqda[12]. Shuningdek, jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan tub o‘zgarishlar sharoitida inson faoliyatining ko‘plab sohalarini takomillashtirishni rag‘batlantiradigan ijobiy o‘zgarishlar bilan bir qatorda salbiy tendentsiyalar ham kuchaymoqda:

– ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik, ishsizlik, aholi turmush darajasining pasayishi;

– insonlarning ijtimoiy-psixologik disorientatsiya va disadaptatsiyasi, umuminsoniy axloqiy va ma’naviy qadriyatlarga bo‘lgan talabning keskin pasayishi, og‘ir jinoiy vaziyat, ta’lim bilan shug‘ullanishga mo‘ljallangan ijtimoiy institutlar faoliyatining zaiflashishi va boshqalar.

Bunday xavotirli tendentsiyalar davlat va jamiyatning, barcha ijtimoiy institutlarning ijtimoiy-profilaktika faoliyatini zudlik bilan qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish zarurligini taqozo etmoqda. Bunda maktab o‘qituvchilarini, shu jumladan «Tarbiya» fani o‘qituvchilarini qayta tayyorlash va ularning uzluksiz kasbiy rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuning uchun «Tarbiya» fani o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirishni o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, uning ijtimoiy-pedagogik oldini olish va tuzatishning samarali usullarini izlash, ta’lim va profilaktika faoliyatining yaxlit tizimini ishlab chiqish masalalari tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Ularning ijobiy hal etilishida pedagogik mahorat markazlari yetakchi rol o‘ynaydi. Aynan pedagogik mahorat markazlarining faoliyati ko‘p jihatdan turli xil ijtimoiy munosabatlarga kirishini tartibga solish va nazorat qilish zarurati bilan bog‘liq. Biroq, hozirgi ommaviy amaliyotda «Tarbiya» fani o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishni pedagogik muammolari yetarli darajada o‘rganilmagan.

Shuning uchun globallashga ta’lim sharoitida «Tarbiya» fani o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish texnologiyalarini ishlab chiqishdan iborat. Buning

uchun dastlab, pedagogik mahorat markazlarida «Tarbiya» fani o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish holatini tahlil etish lozim degan xulosaga kelib, Namangan, Samarqand va Toshkent pedagogik mahorat markazlarida malaka oshirish holati o'rganildi. O'rganish vaqtida pedagogik mahorat markazlari o'qituvchilari va kurs tinglovchilari bilan suhbatlar, anketa so'rovlar o'tkazildi.

Kuzatish yuqorida qayd etilgan pedagogik mahorat markazlarida maktab o'qituvchilarining, shu jumladan «Tarbiya» fani o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish bilan bog'liq. Ushbu pedagogik mahorat markazlarida mashg'ulotlarni olib borayotgan o'qituvchilar bilan birgalikda turli xil o'qitish metodlari bo'yicha suhbatlar o'tkazildi. Pedagogik mahorat markazlari kursi tiglovchilarning «Tarbiya» fani yuzasidan bilim darajasini aniqlash uchun bir nechta mashg'ulotlari kuzatildi. Kuzatish olib borilgan pedagogik mahorat markazlarida o'qituvchilar ilo'or pedagogik texnologiyalar va raqamli vositalar yordamida masg'ulotlarni olib borayotganiga amin bo'ldik. Ammo, ushbu pedagogik mahorat markazlarining kurs tinglovchilarini o'qituvchilari kursga bo'lgan qiziqishini oshira olmaganligini va dasturlashni samarali o'zlashtirishga erisha olmaganligi ma'lum bo'ldi.

Nazarimizda pedagogik mahorat markazlarida «Tarbiya» fani o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishda bu kabi muammolarning paydo bo'lish sabablariga quyidagilarni keltirish mumkin: «Tarbiya» fani o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishga oid ilmiy- metodik manbalar yetarli darajada emasligi; «Tarbiya» fani o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishni pedagogik shartlarini takomillashtirish lozimligi; «Tarbiya» fani o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishda masofaviy o'qitish tizimlaridan foydalanish lozimligi; pedagogik mahorat markazlarida raqamli ta'lim texnologiyalar va muammoli ta'lim texnologiyalarni integratsiyalash asosida mashg'ulotlarning tashkil etishga yetarli darajada e'tibor qaratilmayotganligi; «Tarbiya» fani o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayoniga mobil ta'limni joriy etish mavjudligi.

Bizning fikrimizcha bu kabi muammolarni yechishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:

– «Tarbiya» fani o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqot ishlarini olib boorish va ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish. Bunda pedagogik mahorat markazlarida pedagogik-tajriba-sinov ishlarini olib borib, undagi mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularning yechimiga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

– «Tarbiya» fani o'qituvchilarining auditoriyada va auditoriydan tashqari uzluksiz kasbiy rivojlantirishni pedagogik shartlarini aniqlashtirish, agar lozim bo'lsa takomillashtirish kerak. Chunki, pedagogik shartlar asosida ko'zlangan pedagogik maqsadlarga erishish imkonini beradi;

– «Tarbiya» fani o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishda masofaviy o'qitish tizimlaridan, shu jumladan axborot-ta'lim muhitlaridan, ta'lim portallaridan

va ta'limga oid veb-saytlardan hamda bulutli xizmatlardan foydalanish lozim. Bunda «Tarbiya» fani o'qituvchilarining mustqil ravishda uzluksiz kasbiy rivojlantirib borishga va mashg'ulotlarni raqamli vositalar yordamida loyihalshga oid kompetentligini rivojlantirishga erishiladi;

– pedagogik mahorat markazlarida «Tarbiya» faniga oid mashg'ulotlarnin raqamli ta'lim texnologiyalar va muammoli ta'lim texnologiyalarni integratsiyalash asoida mashg'ulotlarning tashkil etish tuzilmasini, bosqichlarini, texnologik xaritalarini ishlab chiqish va ularning pedagogik tajriba-sinovda o'tkazish orqali o'quv jarayoniga joriy etish;

– «Tarbiya» fani o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirishda mobil texnologiyalardan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish. Bunda «Tarbiya» fani o'qituvchilari tarbiya fanini o'qitishga oid yangiliklardan xabardor bo'lishi va mobil ilovlar yordamida tarbiyag oid turli didaktik materiallar ishlab chiqishga doir ijodiy qobiliyatini oshirishga erishiladi.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan taklif va tavsiyalar asosida «Tarbiya» fani o'qituvchilarining mustaqil ravishda uzluksiz kasbiy rivojlantirishga va «Tarbiya» faniga doir darslarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida tashkil etish kompetentligini rivojlantirishga erishiladi.

**Adabiyotlar:**

1. Джураев А.С. Малака ошириш жараёнида тингловчиларнинг касбий малакасини ривожлантиришнинг педагогик механизмларини такомиллаштириш // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. - Самарқанд, 2019. - 52 б.

2. Xakimova D. M. Maktab o'qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmini takomillashtirish // Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 2024. - 74 b.

3. Ибрагимов А.А. Халқ таълими ходимлари малакасини ошириш тизимини кўп векторли ёндашув асосида такомиллаштириш // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. - Самарқанд, 2018. - 56 б.

4. Маматқулов Д.М. Малака ошириш жараёнида умумтаълим мактаб раҳбарларининг мафкуравий компетентлилигини ривожлантириш механизмларини такомиллаштириш // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. - Т., 2018. - 48 б.

5. Обидов А.Э. Педагог кадрларни малакасини ошириш жараёнларини вебинар технологияси асосида такомиллаштириш // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. -Т., 2020. - Б .48

# TALABALARDA MULOQOT MADANIYATINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH TIZIMI

***M.A.USMONOVA,***
*Qo‘qon davlat pedagogika instituti*
*2-bosqich doktaranti*

*Ushbu maqolada talabalarda muloqot madaniyatini integrativ yondashuv asosida rivojlanganligini aniqlashga qaratilgan ko‘nikmalarning chambarchas bog‘liqligi va ularning rivojlanishida talabaning o‘z-o‘zini anglashi, ijtimoiylashuvi va muvaffaqiyatli hayot kechirishini ta‘minlashga qaratilgan ikki katta toifaga og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan muloqot ko‘nikmalarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar keltirib o‘tilgan.*

***Kalit sozlar:*** *konflikt, konstruktiv, muloqot, integrativ, gestikulyatsiya, poza, mimika, tepm, his-tuyg‘u, empatiya, tolerantlik.*

*В статье представлены рекомендации по совершенствованию вербальных и невербальных коммуникативных навыков по двум широким категориям, направленным на определение развития культуры общения у учащихся на основе интегративного подхода, и их развитие, направленное на обеспечение самосознания, социализации и успешной жизнедеятельности учащегося.*

***Ключевые слова:*** *конфликт, конструктивный, коммуникация, интегративный, жестикуляция, поза, мимика, удар ногой, эмоция, эмпатия, толерантность.*

*This article presents recommendations for improving verbal and non-verbal communication skills in two broad categories, aimed at determining the development of a culture of communication in students based on an integrative approach, and their development is aimed at ensuring the student‘s self-awareness, socialization and successful life.*

***Key words:*** *conflict, constructive, communication, integrative, gesticulation, posture, mimicry, gait, emotion, empathy, tolerance.*

Talabalarda muloqot madaniyati ko‘nikmalari ularning o‘zaro munosabatlarini, o‘rganish samaradorligini va kelajakdagi kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishini ta‘minlaydi. Bu ko‘nikmalar ikki katta toifaga bo‘linishi mumkin: og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan muloqot ko‘nikmalari.

I. Og‘zaki muloqot ko‘nikmalari:

– samarali tinglash: diqqat bilan tinglash, tushunish, savollar berish, muloqotning mazmunini qayta aytish, muloqot doirasida muhim fikrlarni ajratib olish.

– aniq va tushunarli gapirish: fikrlarni aniq, tushunarli va mantiqiy tartibda ifoda etish, to‘g‘ri so‘z tanlash, tovushlarni aniq talaffuz qilish.

– suhbatni boshqarish: suhbatni boshlash va yakunlash, mavzuni o‘zgartirish, muloqot ishtirokchilarining fikrlarini tinglash va ularga javob berish, muloqot jarayonini nazorat qilish.

– fikrlarni ifoda etish: o‘z fikrlarini ishonchli va hurmatli tarzda ifoda etish, dalillar keltirish, argumentlash, o‘z nuqtai nazarini himoya qilish.

– savol berish va javob berish: aniq va maqsadli savollar berish, savollarga to‘liq va tushunarli javob berish.

– bahslashish: qarama-qarshi fikrlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, o‘z fikrini asoslab berish, quloq solish va murosa topish.

– ma’lumotni taqdim etish: ma’lumotni aniq, tushunarli va qiziqarli tarzda taqdim etish, taqdimotni tashkil etish va o‘tkazish.

II. Og‘zaki bo‘lmagan muloqot ko‘nikmalari:

– tana tili: mos keladigan tana holatini saqlash, yuz ifodalari, gestikulyatsiya va boshqa tana harakatlaridan foydalanish orqali xabarni yanada aniqroq yetkazish.

– ko‘z aloqasi: suhbatdosh bilan ko‘z aloqasini saqlash, lekin haddan oshmaslik.

– masofa: suhbatdoshga mos keladigan masofani saqlash.

– ohang: ovoz ohangini, balandligini va tempini vaziyatga moslashtirish.

– imo-ishoralar: imo-ishoralar orqali xabarni qo‘llab-quvvatlash yoki ta’kidlash.

III. Boshqa muhim ko‘nikmalar:

– empatiya: boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish va ularga hamdard bo‘lish.

– o‘zaro hurmat: suhbatdoshlar fikrlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish.

– tinglash: suhbatdoshning fikrini to‘liq tinglash va tushunishga harakat qilish.

– madaniyatlararo muloqot: turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish.

– konfliktlarni hal qilish: konfliktli vaziyatlarda konstruktiv yechimlar topish.

– jamoada ishlash: guruh a’zolari bilan samarali hamkorlik qilish.

Tadqiqot davomida ko‘nikmalar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq va ularning rivojlanishi talabaning o‘z-o‘zini anglashini, ijtimoiylashuvini va muvaffaqiyatli hayot kechirishini ta’minlaydi. Muloqot madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim jarayoni bu ko‘nikmalarni birgalikda va integrativ yondashuvlar orqali shakllantirishga qaratilishi kerak.

Talabalarda muloqot madaniyati ko‘nikmalarini rivojlanganligini baholash mezonlari ularning og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan muloqot ko‘nikmalarini, shuningdek, muloqot madaniyatining boshqa jihatlarini o‘z ichiga olishi kerak. Baholash mezonlari talabalarning muloqot ko‘nikmalarini turli darajalarda baholash imkoniyatini berishi lozim. Quyidagi mezonlar talabalardagi muloqot madaniyati ko‘nikmalarini baholashda foydali bo‘lishi e’tiborimizni tortdi:

I. Og‘zaki muloqot:

Tinglovchanlik:Past daraja: Suhbatdoshni diqqat bilan tinglamaydi,

savollarga noaniq javob beradi, suhbat mavzusidan chetga chiqadi.

O‘rta daraja: Suhbatdoshni asosan diqqat bilan tinglaydi, savollarga to‘liq javob beradi, suhbat mavzusiga rioya qiladi.

Yuqori daraja: Suhbatdoshni juda diqqat bilan tinglaydi, murakkab savollarga ham to‘liq va aniq javob beradi, suhbat mavzusini rivojlantiradi, muloqotda faol ishtirok etadi.

Gapirish mahorati:

Past daraja: Gapirishda qiyinchilik sezadi, fikrlarini noaniq va tartibsiz ifodalaydi, tilda xatolar ko‘p.

O‘rta daraja: Gapirishda qiyinchilik sezmaydi, fikrlarini nisbatan aniq va tartibli ifodalaydi, tilda xatolarga yo‘l qo‘ymaydi.

Yuqori daraja: Gapirish mahorati yuqori, fikrlarini aniq, mantiqiy va ta’sirchan ifodalaydi, til boyligi yuqori, ovoz tembri va ohangi muvofiq.

Muloqotni boshqarish:

Past daraja: Suhbat mavzusini o‘zgartira olmaydi, suhbatdoshning fikrlariga e’tibor bermaydi.

O‘rta daraja: Suhbat mavzusini o‘zgartira oladi, suhbatdoshning fikrlariga e’tibor beradi.

Yuqori daraja:Suhbat mavzusini mohirona o‘zgartiradi, suhbatdoshning fikrlariga e’tibor beradi, suhbatni samarali boshqaradi.

II. Noverbal muloqot:

Tana tili: To‘g‘ri va mos keladigan tana tilidan foydalanadimi? (poza, imo-ishoralar, mimika)

Ko‘z aloqasi: Suhbatdosh bilan ko‘z aloqasini o‘rnata oladimi?

Masofa: Suhbatdosh bilan masofani to‘g‘ri saqlay oladimi?

III. Muloqot madaniyatining boshqa jihatlari:

Empatiya: Suhbatdoshning hissiyotlarini tushunadi va his qila oladimi?

Hurmat: Suhbatdoshga hurmat bilan munosabatda bo‘ladimi?

Tolerantlik:Turli fikr va qarashlarga bag‘rikenglik bilan munosabatda bo‘ladimi?

Konfliktlarni hal qilish: Konfliktli vaziyatlarni hal qilishda konstruktiv yondashuvni qo‘llay oladimi?

Jamoada ishlash: Jamoada samarali ishlay oladimi?

Baholashda ushbu mezonlarning har biri uchun ball beriladi va yakuniy ball hisoblab chiqariladi. Baholash natijalari talabaning muloqot madaniyati darajasini aniqlash va ularning muloqot ko‘nikmalarini yanada takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar berish uchun foydalaniladi. Baholash jarayoni obyektiv va shaffof bo‘lishi kerak.

Pedagogik mahorat fanini o‘qitish orqali talabalarda muloqot madaniyati

ko‘nikmalarini rivojlantirish darajasini baholash uchun bir necha ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin. Bu ko‘rsatkichlar talabalarning og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan muloqot ko‘nikmalarini, shuningdek, muloqot madaniyatining boshqa jihatlarini o‘z ichiga olishi kerak. Ko‘rsatkichlarni tanlashda tadqiqotning maqsadi va vazifalarini, shuningdek, talabalarning yosh xususiyatlari va o‘quv darajasini hisobga olish muhim ekanligini tadqiqotda e‘tiborga olindi (1 - jadvalga qarang).

1- jadval.

| № | Muloqot madaniyati ko‘nikmalari | Muloqot madaniyatini baholash mezondari |
|---|---|---|
| | Tinglash | Suhbatdoshning gapini to‘liq va diqqat bilan tinglash qobiliyati. Bu ko‘rsatkichni baholash uchun suhbat vaqtida talabaning diqqat darajasi, savollarining aniqligi va mazmuni, suhbat mavzusiga rioya etilishi kabilarni kuzatish mumkin |
| | Gapirish mahorati | Fikrlarni aniq, mantiqiy va tushunarli ifoda etish qobiliyati. Bu ko‘rsatkichni baholashda talabaning lug‘at boyligi, grammatik to‘g‘rilik, ovoz tembri va ohangi, fikrlarini tartibli bayon etishi kabilarni hisobga olish mumkin |
| | Muloqotni boshqarish | Suhbatni boshlash, o‘tkazish va yakunlash qobiliyati, suhbat mavzusini o‘zgartirish va boshqarish. Bu ko‘rsatkichni baholashda talabaning suhbatdagi ishtiroki, fikrlarni taklif etishi, savollarga javob berishi va suhbatga boshqalarni jalb etishini kuzatish mumkin |
| II.Noverbal muloqot | Tana tili | Tana tilining muloqotga taьsiri. Kuzatiladigan ko‘rsatkichlar: poza, imo-ishoralar, mimika va ko‘z aloqasining to‘g‘ri va mos qo‘llanilishi |
| | Ko‘z aloqasi | Suhbatdosh bilan ko‘z aloqasini o‘rnatish va saqlash qobiliyati. Bu ko‘rsatkich talabaning suhbat davomida ko‘zlarini qancha vaqt suhbatdoshga qaratishi orqali baholanishi mumkin |
| | Masofa | Suhbatdosh bilan masofani to‘g‘ri saqlash. Bu ko‘rsatkich talabaning suhbatdoshga nisbatan qancha masofani saqlashi orqali baholanishi mumkin. |
O‘quvchilarning raqamli savodxonligini oshirish maqsadida, maktab ta’limi orqali o‘quvchilar dasturlash, ma’lumotlarni tahlil qilish va raqamli vositalardan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Zamonaviy ta’limning mazmuni oliy ta’lim muassasasi talabalarining ham ma’naviy-axloqiy sifatlarini takomillashtirishda nafaqat ma’lum bilim va ko‘nikmalar to‘laligiga, balki mustaqil ravishda o‘z bilimlarini boyitib borish, turli xil muammolarni qo‘yish va ularni hal qilish ma‘lum darajada axborot vositalaridan qay darajada foydalanishlariga bog‘liqdir. Shu ma’noda talaba shaxsining axborot tayyorgarligi, axborot ehtiyojini ifodalash, axborot so‘rovlarini shakllantirish, axborot talabalarlari bilimi, axborot qidiruvini amalga oshirish va ularni qayta ishlash, axborotlarga tanqidiy yondashish, ularni tushunish va baholash hamda ulardan ijodiy foydalanish ko‘nikmalari, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana bilish kabilar ta’limda axborot texnologiyalari ahamiyatining ortishiga muhim omil bo‘lishi yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Hozirgi globallashuv jarayoni vazifalardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash,

zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida 2019-yil 8-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-sonli Farmoni qabul qilindi[2].

Talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish axborotlarni o'zlashtirish jarayoni bilan bog'liq bo'ladi, ya'ni axborotlarni tanlash va saralash, o'z faoliyatining kasbiy talablaridan kelib chiqqan holda ularni tayyorlash, axborot ko'lamini ilmiy jihatdan aniqlash, o'quv dasturini tuzish, ta'lim mazmuni va metodlari, shakllari, vositalari, metodikalari va prinsiplarini amalga oshirish bilan bog'liqdir. Buning natijasida talabalarda har qanday axborotga nisbatan o'zini-o'zi boshqarish, his etishi, o'z munosabatini bildirish, reaksiyaga kirisha olish, ularga loqayd bo'lmaslik, hamisha adolat mezoniga rioya qilgan holda yaxshi munosabat va muloqotda bo'lish, axborot qonuniyatlarini egallash va ularga asoslanish, zaruriyat tug'ilganda zudlik bilan qaror qabul qilish, emotsional holatlarga baho berish va ularning har birini tahlil qilish kabilar amalga oshiriladi.

Talabalarda axborotlarni psixologik to'siqlar, vaziyatlar, nizoli holatlarni yengish xatti-harakatlari vujudga keladi. Talaba faoliyatida axborotlarga nisbatan irodaviy kuch-quvvatni mujassamlashtirishi natijasida ularda maqsadga intilish va sobitqadamlik, tashabbuskorlik, mustaqillik, ijodkorlik, dadillik, jasorat, to'siqlarni pisand qilmaslik, qat'iylik, vazminlik, esankiramaslik, o'zini qo'lga ola bilishlik, intizomlilik, o'zini-o'zi uddalash, o'ziga o'zi buyruq berish, o'z kuchiga ishonch, o'zini safarbar qila olish kabi fazilatlar shakllantiriladi.

Talabalarda axborot madaniyatini shakllantirish asosida shaxsda bilimlar, ijtimoiy holatlar, qonuniyatlar, hodisalar rivoji ularni keltirib chiqaruvchi omillar, harakatlantiruvchi mexanizmlar, ijtimoiy muammolarning yechimi, ushbu jarayonda qat'iy qaror qabul qilish va uning bajarilish bosqichlari to'g'risidagi ma'lumotlar, axborotlar psixologik muhitni barqarorlashtirish munosabatlari to'g'ri tashkil etiladi. Buning natijasida talabalar o'rtasida o'zaro ta'sir, ta'sirlanish, ta'ssurot, o'zaro tushunish, hurmat, hamdardlik kabi murakkab kechinmalarni anglab yetishdagi nuqson va kamchiliklarni bartaraf etishga imkoniyat yaratiladi. Bundan tashqari tajriba-sinov ishi jarayonida talabalarda axborot madaniyatini rivojlantirish modeli ishlab chiqiladi.

Oliy ta'lim tizimida o'rganiladigan axborot texnologiyalari sohasiga oid fanlarni o'qitishda talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni takomillashtirishning birinchi bosqichida axborotlarni o'zlashtirish va unda o'z bilim va tasavvurlarini rivojlantirish uchun matn, jadval, tasvir va tovushlardan foydalanish, aniq maqsad

asosida topilgan axborotlarga zarur ma'lumotlarni qo'shish yoki olishni bilish, ayrim topshiriqlarni bajarishni rejalashtirishni tashkil qilish, bajarilgan ish haqida fikrlay olish kabilar rivojlantiriladi. Axborotlarini o'rganish, ularni izohlab berish, tadqiq etish, narsa, hodisa va kontekstlar bo'yicha muammoni yaxlitligicha hal etish, ulardan samarali foydalanish, nazorat qilish, ro'yxatga olish va saqlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish texnikasini qo'llay bilish, qiyoslash kabilar amalga oshiriladi.

O'quv jarayonida talabalarda axborotlarni o'rganish malakalari takomillashtiriladi. Ushbu jarayonda fanining didaktik imkoniyatlari haqidagi ma'lumotlar tasnifi, ulardan foydalanish, loyihalash usullari, axborot madaniyati mazmuni, vositalarini qiyosiy tahlil etish, dasturiy vositalarni tavsiflash kabi bilim, ko'nikma va malakalar rivojlantiriladi. Yoshlarda sog'lom dunyoqarash, jumladan, kitobxonlik ko'nikmasini shakllantirish, Internet, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish, ularda g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish masalasiga alohida e'tibor qaratish lozim [3].

Talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish uchun didaktik shart-sharoitlarni yaratish, o'qitishning samaradorligini oshirish va ularning tarbiyasini mustahkamlash katta ahamiyatga ega. Quyidagi shart-sharoitlar talabalar ma'naviy-axloqiy sifatlarini takomillashtirishga yordam beradi:

Innovatsion o'qitish metodlari. Interaktiv metodlar, masalan, guruhli muhokamalar, onlayn forumlar va kollaborativ o'qish metodikalarini qo'llash, talabalarning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirishga yordam beradi. Bu metodlar orqali talaba o'z fikrini erkin ifodalaydi, boshqalarning fikrini hurmat qiladi, va o'zining jamiyatdagi munosib o'rniga ega bo'ladi.

Axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish. O'quv jarayonida zamonaviy texnologiyalar, masalan, onlayn kurslar, multimedia materiallar, virtual reallik va boshqa vositalar yordamida talabalarga axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni o'rgatish imkoniyatlari yaratiladi. O'qituvchilar ushbu texnologiyalar orqali talabalarga ma'naviy-axloqiy savodxonlikni oshirish uchun muhim axborot va materiallar taqdim etadilar.

Shaxsiylashtirilgan o'qitish. Har bir talabaning o'ziga xos ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olib, individual o'qitish metodlarini qo'llash talabalar shaxsini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirishda shaxsiylashtirilgan yondashuv talabaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va uning axloqiy va ma'naviy rivojlanishini rag'batlantiradi.

Axborot xavfsizligi va axloqiy me'yorlar. Talabalarga internet resurslaridan foydalanishda axborot xavfsizligi, axloqiy me'yorlarga rioya qilishni o'rgatish muhimdir. Ularni ijtimoiy tarmoqlar, onlayn platformalarda axloqiy va etika

normalariga rioya qilishga undash, axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri va samarali foydalanishga o‘rgatish zarur.

Ijtimoiy muhit va o‘qituvchilarning roli. Talabalarda axloqiy-ruhiy sifatlarning shakllanishi faqat texnologik vositalarga bog‘liq emas. O‘qituvchilarning shaxsiy misoli, ijtimoiy muhit va jamoaning ta’siri ham muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchilar axloqiy-ruhiy tarbiyani ma’naviy qadriyatlar va etika asosida olib borib, talabalar shaxsiyati rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadilar.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar ta’lim sohasi tizimida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bu texnologiyalar nafaqat bilim olishda yordam beradi, balki shaxsiy axloqiy va ma’naviy qadriyatlarni ham rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Didaktik shart-sharoitlar, ya’ni ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi interaktiv aloqalar, raqamli platformalarda ma’naviyat va axloqiy jihatlarga e’tibor qaratish, shuningdek, axborot xavfsizligi va madaniy me’yorlarga amal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon esa ta’lim oluvchilarda raqamli dunyoda mas’uliyatli va axloqiy harakat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi «Raqamli O‘zbekiston-2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PF-6079-sonli Framoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-oktabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5847-sonli Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida»gi PQ-3160-son Qarori.

4. Azimova N.E. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchisini ma‘naviy-axloqiy tarbiyalash texnologiyasi.Ped.fan.nom. ...diss.avtor.-T.;2012.

5. Adizov B.R. Yangi pedagogik texnologyalar nuqtai nazaridan ta’limni didaktik loyihalash // Pedagogik ta’lim. - 2000. - №3.

# STEAM YONDASHUV ASOSIDA O‘QUVCHILARDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

***D.X.ALIMOVA,***
*Toshkent amaliy fanlar universiteti*
*Pedagogika fakulteti Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi*
*va metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi*

*Mazkur maqolada o‘qituvchilarning boshlang‘ich sinf darslarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish haqida aytib o‘tilgan. Shu bilan birgalikda dars ishlanmalarini ham qay tarzda tayyorlanishi yoritilib berilgan.*
***Kalit so‘zlar:*** *pedagog, faoliyat, ta‘lim, tarbiya, o‘qituvchi, bilim, muammo, o‘qitish jarayoni, ko‘nikma, malaka, uzluksiz ta‘lim.*

*В данной статье рассматривается организация уроков в начальных классах в соответствии с современными требованиями. Также подробно раскрыто, каким образом разрабатываются методические материалы для уроков.*
***Ключевые слова:*** *педагог, деятельность, образование, воспитание, учитель, знание, проблема, процесс обучения, навыки, квалификация, непрерывное образование.*

*This article discusses the organization of primary school lessons in accordance with modern requirements. It also provides a detailed explanation of how lesson plans are developed.*
***Key words:*** *pedagogue, activity, education, upbringing, teacher, knowledge, problem, learning process, skills, qualification, lifelong education.*

Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi bilan ta’lim tizimida yangi yondoshuvlar va vositalar paydo bo‘lmoqda. Ta’lim zamonaviy yondashuvlar va innovatsion platformalar yordamida o‘quvchilarning qiziqishlarini oshirish va ularni texnologiyalar bilanyaqindan tanishtirish uchun ajoyib imkoniyatdir. Ushbu maqolada STEAM yondoshuv orqali o‘quvchilarda tayanch kmpetensiyalarni shakllantirishning ahamiyati, STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yondoshuvining ahamiyati va ular orqali samaradorligini oshirish usullari.keng yoritiladi.

Boshlang‘ich ta’limda STEAM - ta’‘limning vazifasi o‘quvchilarni tabiiy va texnik fanlarga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirishdan iborat. Bajaradigan ishlarini qiziqib bajarishadi,qiziqishlarini rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy yondoshu hisoblanadi. STEAM so‘zining bosh harflari:
S-science (tabiiy fanlar)
T- technology (texnologiya)
E- engineering (muhandislik ishi)
A-art (san’at)
M- mathematics ( matematika)

O‘quvchilar bu fanlarni uyg‘unlashgan holda, ular orasidagi bog‘lanishlar va amaliy yondashuvga asoslangan holda o‘rganadilar.Boshqacha qilib aytganda STEAM fanlararo integratsiya yondoshuvga asoslangan o‘qituvchi va o‘quvchining hamkorlikdagi faoliyati.Bu jarayonda o‘quvchi va o‘qituvchi ijodiy fikr yuritadi.

Ta’lim mamalakat kelajagining ko‘zgusi.Davlzt o‘zining kuchli tomonlarini, rivojlanish zonalarini ko‘rib, milliy ta‘lim dasturini to‘g‘ridan- to‘g‘ri ta’lim tizimining poydevoriga moslashtiradi.Sanoatlashtirish davrida savodxonlik va ish qobiliyatlari muhim ahamiyatga ega edi.

STEAM o‘quvchilarda quyidagi xususiyatlar va ko‘nikmalarni rivojlsntirishga yordam beradi.

Muammolarni keng qamrovli tushunish:

– Ijodiy fikrlash

– Muhandislik yondoshuv

– Tanqidiy fikrlash

– Ilmiy metodlarni tushunish va qo‘llash

– Dizayn asoslarini tushunish

STEAM – ta’lim texnologiyasi loyihalash metodiga tayangan holda uning asosida bilish va badiiy izlanish yotadi.

STEAM – ta‘limi bolaning rivojlanishini tashqi olam bilan bevosita bog‘laydi.

STEAM – ta’limida fanlararo aloqa va loyihalash metodi birlashtirilgan bo‘lib,unig asosida tabiiy fanlarni texnologiya,muhandislik ijodiyoti va matematikaga integratsiya qilish yotadi. Bunda muhandislik bilan bog‘liq kasblarga bo‘lgan tayyorgarlik amalga oshiriladi.

Ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo‘llash.

STEAM – ta’limda amaliy mashg‘ulot yordamida bolalarga ilmiy-texnik bilimlaridan real hayotda foydalanish namoyon qilinadi. Har bir darsda o‘quvchilar zamanaviy industriya modellarini rivojlantirish va muammolarni yechish.

Tanqidiy tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirish va muammolarni yechish.

STEAM – dasturi kudalik hayotlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yengishda zarur bo‘ladigan tanqidiy tafakkur va muammolarini yechish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Masalan: bolalar tez yuradigan mashina modelini yig‘adilar, so‘ngra uni sinovdan o‘tkazadilar.Birinchi sinovdan so‘ng kutilgan natijaga erishilmasa uning sabablari haqida o‘ylaydilar va topadilar.Balki, g‘idiraklarning kattaligi yoki aerodinamikasi to‘g‘ri kelmagandir. Har bir sinovdan so‘ng ular kamchiliklarini bartaraf etadilar.

O‘z kuchiga ishonish hissining ortishi.

Bolalar ko‘prik qurish,mashina va samolyot modelini ishga tushirishda har safar

maqsadga yaqinlashib boradilar.Har bir sinovdan so‘ng modelni takomillashtiradilar. Oxirida barcha muammolarni o‘z kuchlari bilan yengib maqsadiga erishadilar. Bu bolalar uchun ruhlanish,g‘alaba va demakdir.Har bir g‘alabadan so‘ng ular o‘z kuchlariga yanada ishonadilar.

Faol kommunikatsiya va komandada ishlash.

STEAM – dasturi faol kommunikatsiya va komondada ishlash bilan farqlanadi.Muloqot davrida o‘z fikrini bayon qilish va bahs-munozara olib boorish uchu erkin muhit vujudga keltiradi.Ular gapirishga va taqdimot qilishga, o‘rganadilar. Bolalar doimo o‘qituvchi va sinfdoshlari bilan qatnashadilar  mashg‘ulotni yaxshi eslab qoladilar.

Texnik fanlarga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantiradi.

STEAM – mashg‘ulotlari juda dinamik va qiziqarli bo‘lganida bolalar mashg‘ulot paytida zerikmaydilar va vaqtning qanday o‘tganligini sezmay qoladilar.

Loyihalarga kreativ va innovatsion yondashuv.

STEAM – ta’limi oltita bosqichdan iborat: savol (vazifa),muhokama, dizayn,qurish,sinovdan o‘tkazish va rivojlantirish. Bu bosqichlar tizimli loyihalash yondashuvning asosi hisoblanadi.

Ta’lim va karera orasidagi ko‘prik.

Turli xil baholashlarga ko‘ra hozirgi kunda talabgor eng ko‘p bo‘lgan 10 mutaxassisdan 9 tasida aynan STEAM bilimlar zarur bo‘ladi. Bunday kasblarga muhandis – kimyogar, neft bo‘yicha muhandis, kompyuter tizimlari analitiklari, muhandis-mexaniklar,  muhandis-quruvchilar, robototexniklar, yadromeditsinasi kiradi.

STEAM dasturlari 7-14 yoshdagi o‘quvchilarning mutassil ravishda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarga qiziqishlarini orttiradi.

Masalan: tabiat darslarida suvning 3 holatini o‘rgansalar, STEAM to‘garaklarida suvni ma’lum darajada muzlatishni yoki ma’lum darajalarda uning holatini o‘zgarib borishini o‘zlari bajarib bilimlarini mustahkamlaydilar.

STEAM mashg‘ulotlarida ular qiziqarli eksperementlar o‘tkazganlarida terminlarni ham osongina tushunib olishlari mumkin.

Boshlang‘ich ta’limda «Tabiiy» fanini o‘qitishda STEAM texnologiyasini qo‘llasak,bolalar tabiatni tushinib dunyoni muntazam o‘rganishadi va shu bilan qiziqishlarini, muhandislik fikrlash uslubini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini, jamoaviy ish qobiliyatini rivojlantirish va liderlik, o‘z-o‘zini namoyon qilish asoslarini o‘rganishadi, o‘z navbatida, bolalar rivojlanishining tubdan yangi darajasini ta’minlaydi.

«Oy yerning yo‘ldoshi» mavzusini STEAM texnologiyasi asosida ishlab chiqamiz.

STEAM texnologiyasidagi  S harfi fanni bildiradi. Bunda o‘quvchilar nazariy

ma‘lumotlar bilan tanishtiriladi. Nazariy ma’lumot: Oy haqida ma‘lumot berilib oy yuzasi yer yuzasi bilan taqqoslanadi. Oy dumaloq shakldagi juda kata sovuq va qattiq osmon jismidir. U yerning yo‘ldoshi, chunki u sayyoramiz atrofida aylanib turadi. Oy yuzasi Yer yuzasida 14 baravar kichikdir.

T harfi – texnologiyani bildiradi. Oy yuzasi, teleskop b ilan qaralgandagina quyidagi savollarga javob toppish topshiriladi.

1.Oy va Yer orasidagi masofa taxminan necha kilometrni tashkil etadi

2.Oyda suv va havo bormi?

3.O y nima bilan yerdan farq qiladi?

4.Oydagi tog‘lar va dengioyning modelini yasash topshiriladi.

E harfi – muhandislikni bildiradi. O‘quvchilarga qog‘oz va loy,plastilindan oyninhg modelini yasash topshiriladi.

A harfi – san’atni bildiradi. O‘quvchilar berilgan ma’lumotlar asosida she‘r, hikoya yozadilar.Daftarlariga oyning rasmini chizish topshiriladi.

M harfi – matematikani bildiradi. Globusning aylanish o‘qini, shimoliy va janubiy qutublarini hamda ekvatorni o‘lchamlarini matematik nuqtai nazardan hisob- kitob qilishlari zarur bo‘ladi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanini o‘rgana boshlaganlarida dars o‘rgatiladigan dastlabki mavzularga qiziqish ko‘rsatadilar, o‘qituvchining savollarini muhokama qilishda faol ishtirok etadilar. STEAM kundalik hayotning ilmiy tadqiqot, texnika taraqqiyoti va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta‘minlashda maktab,jamoatchilikni jalb qilib, ilmiy savodxonlik, raqobatbardoshlikni targ‘ib qilishga qaratilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. B.X.Xodjayev «Umumiy pedagogika nazriyasi va amaliyoti» -T., 2017 «Pedagogik texnika».

2. B.X.Xodjayev «Umumiy pedagogika nazriyasi va amaliyoti» -T., 2017 «Pedagogik mahorat haqida tushuncha».

3. R.Shomahmudova «Umumiy pedagogika» -T., 2017

4.https://scratch.mit.edu/

5.https:// cybernetika.ru/article/n/ta’lim-metodlari - va- vositalari.

# UZLUKSIZ TA'LIMDA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT SOHASINI YUKSALTIRUVCHI TARG'IBOTLAR

**M.Z.HAMDAMOVA,**
*p.f.n, dotsent, Toshkent viloyati pedagogik mahorat markazi, «Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari» kafedrasining professori*

*Ushbu ilmiy, siysiy-nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan maqola, maktablarda tarbiyaviy ishlarni olib boruvchi har bir ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan shaxslarga mo'ljallangan bo'lib, bu boradagi bilimlarni umumiy o'rta ta'lim maktablarida, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda vatanparvarlik, milliy qadriyatlar asosida insonparvarlik fazilatlarini rivojlantiruvchi mohirlikni amalga oshiriladi.*

***Kalit so'zlar:*** *ilmiy, siyosiy, ma'naviy, ma'rifiy, vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy qadriyatlar, targ'ibot, metod, rivojlantirish.*

*Данная статья, имеющая научное, политическое, теоретическое и практическое значение, предназначена для лиц, работающих в любой системе образования, осуществляющих воспитательную работу в школах, и будет применять полученные знания в общеобразовательных средних школах, организуя духовно-просветительские мероприятия, развивающие гуманистические качества, основанные на патриотизме и национальных ценностях.*

***Ключевые слова:*** *научный, политический, духовный, образовательный, патриотизм, гуманизм, национальные ценности, пропаганда, метод, развитие.*

*This article, which has scientific, political, theoretical and practical significance, is intended for individuals working in any educational system who carry out educational work in schools, and will apply this knowledge in general secondary schools, organizing spiritual and educational events that develop humanistic virtues based on patriotism and national values.*

***Key words:*** *scientific, political, spiritual, educational, patriotism, humanitarianism, national values, propaganda, method, development.*

Yoshlarimizning ma'naviy olamida bo'shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz zarur. Bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arzimas bo'lib tuyuladigan kichkina har qanday xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon etkazishi mumkin. Bizning ulug' ajdodlarimiz o'z davrida komil inson haqida butun bir axloqiy mezonlar majmuini, zamonaviy

tilda aytganda, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanliklarini eslash o‘rinli, deb bilaman. Ota-bobolarimizning ongu tafakkurida asrlar, ming yillar davomida shakllanib, sayqal topgan or-nomus, uyat va andisha, sharmu hayo, ibo va iffat kabi yuksak axloqiy tuyg‘u va tushunchalar biz tanlagan mavzuning asosiy ma‘no-mazmunini tashkil etadi, desak, o‘ylaymanki, davlat siyosatining ustuvor yo‘lanishlariga xos bo‘ladi.

Bugungi kunda ta’lim tizimidagi islohotlarning muammolari pedagog kadrlar salohiyati bilan bog‘liq. Zamonaviy tashkilotlarda inson resurslarini boshqarish hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan mamlakatimizda ta‘lim sohasida maktabgacha ta’limdan tortib oliy o‘quv yurtlarining sifatiga etibor qaratib, ta‘lim sohasini rivojlantirish bilan bog‘liq xarajatlar o‘quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini yaxshilashga zarur o‘quv adabiyotlar bilan ta’minlashga va shu bilan birga jahon andozalariga mos keluvchi zamonaviy ta’lim muassasalarini qurishga shuningdek, rivojlangan xorijiy davlatlarning oliy o‘quv yurtlari filiallarining ochilishi kabi bir qator amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi yoshlarning ma’naviy kamolotini oshirishda va ularning malakali kadrlar bo‘lib etishishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’naviy sohada ma‘naviy qadriyatlarimizni ilm-fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitib borish, o‘zligimizni chuqurroq anglash, milliy g‘oya va istiqlol mafkurasi tamoyillarini xalqimizning qalbi va ongiga singdirish, muqaddas dinimiz va tariximizni soxtalashtirish, ulardan siyosiy maqsadlarda foydalanishlariga yo‘l qo‘ymaslik bu boradagi asosiy vazifalarimizdan biri bo‘ldi.

Hozirgi kunda, ya’ni jamiyat hayotining modernizatsiyalashish sharoitida jamiyatda ma’naviy sohada quyidagi vazifalarni bajarishimiz lozim:

– yoshlarimizni ma’naviy yangilanish va islohotlar jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish, ularning kuch va salohiyatini ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik kabi ezgu maqsadlarga xizmat qildirish, ma’naviyatning kuch-qudratidan ezgu maqsadlar yo‘lida samarali foydalanish, ijtimoiy munosabatlarni insoniylik g‘oyalari asosida rivojlantirish;

– turli qarash va fikrga ega bo‘lgan ijtimoiy qatlamlar, siyosiy kuch va harakatlarning o‘ziga xos orzu-intilishlarini uyg‘unlashtiruvchi g‘oyalarVatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi barcha yurtdoshlarimiz uchun muqaddas maqsadga aylanishiga erishish, ko‘ppartiyaviylik va plyuralizm tamoyillariga amalda rioya qilgan holda milliy hamjihatlikni yanada mustahkamlash;

– ota-bobolarimiz dinining gumanistik mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish borasidagi ishlarni davom ettirish, din xalqimizning ming yillik tarixi, bugungi ma’naviy hayotimizning asosi, Alloh doimo qalbimizda, yuragimizda ekanligining yurtdoshlarimiz ongiga singdirib borish. Buning uchun, avvalo:

– ommaviy axborot vositalarida milliy ma'naviyatimiz aks etgan turli xil sifatli hamda qiziqarli raqobatbardosh ko'rsatuvlar, seriallar, kino va badiiy filmlar namoyishini omma e'tiboriga taqdim qilish;

– raqobatbardosh telekanallarni ko'paytirib, haqiqiy raqobat maydonini vujudga keltirish;

– internet tizimidan foydalangan holda milliy saytlar ko'paytirish hamda yoshlarbop ruknlarni ochish va ular orqali milliy g'oyalarni singdirib borishni ta'minlash;

– jamiyatda ma'naviyatni takomillashtirish imkoniyatlari va istiqbollari mavzuida ilmiy loyihalar joriy etish hamda qonun ustuvorligini ta'minlash zarurdir. Ma'naviy meros zamonlar o'tishi bilan o'z qadrini yo'qotmaydi, balki sifat jihatdan yangi ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy meros kishilar ongiga, ichki dunyosiga, his-tuyg'usiga ta'sir etib, ular ongini boyitadi, axloqodobini ezgulik sari etaklaydi. Shu nuqtai nazardan XXI asrda davlatimizning ravnaqi, uning kuchi hamda salohiyati ko'p jihatdan xalq ma'naviyatining yuksakligi va pokligiga, yoshlarimizning intellektual savodxonligiga, ular ongida va qalbida milliy g'oyaning shakllanganligiga bog'liqdir.

Buyuk alloma Ibn Sino ham ta'lim-tarbiya va axloqqa oid «Tadbir almanozil», «Risola fi ilm al-axloq», «Risola fi al-ahd», «Risola fi tazkiyai an-nafs», «Siyosat al-badan», «Kitob al-ansof» kabi asarlar yaratgan. Ibn Sinoning fikricha, bola tarbiyasi bilan, avvalo, oila, ota-ona shug'ullanmog'i lozim. «Bola axloqi shakllanishida, – deydi u, – er-xotinning bir-biriga bo'lgan munosabati muhim o'rin tutadi. Buning uchun oila a'zolarining har biriga ma'lum vazifalar yuklatilgan bo'lishi kerak».

Ibn Sino deydi: «...agar yomon xulq odatga kirib qolsa, u mijoz buzilishini keltirib chiqaradi. Masalan, g'azab kuchli qizdiradi, qayg'u kuchli ozdiradi, hafsalasizlik nafsoniy quvvatni bo'shashtirib, mijozni balg'amlikka moyil qiladi. Xulqning mo'tadilligi natijasida, ham nafas, ham badan sog'lom bo'ladi»[3]. Ibn Sino axloqqa oid ko'plab muammolarni odamning ruhiy holati va ma'naviy xossalarining his-hayajonli paydo bo'lishi asosida talqin etadi. Fitrat mazkur asarining ikkinchi qismida farzand tarbiyasi haqida yozadi. «Oiladagi eng og'ir vazifa bola tug'ilgandan keyingi farzand tarbiyasidir... Bani Odamning siyosiy, diniy, ijtimoiy inqiloblarining asosi ana shu ikki so'z – «bola tarbiyasi»dan iborat birikmaga bog'liq. Bu xalqning harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi, zaif bo'lib xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib, e'tibordan qolishi, o'zgalarga tobe, qul va asir bo'lishi, bolalikdan o'z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog'liq»,[4] - deydi.

Abdulla Avloniy ham ta'lim-tarbiga oid ilg'or qarashlarni ilgari surgan. Uning

ilmiy merosi boy bo‘lib, «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», «Turkiy guliston yoxud axloq», «Maktab gulistoni» kabi asarlarida "aqllining bolasi aqlli, ahmoqning bolasi ahmoq» kabi aqidalarga qarshi chiqadi va tarbiyaning hal qiluvchi ahamiyatini alohida ta’kidlaydi. Avloniy tarbiyani shunday tushuntiradi: «Tarbiya», «pedago‘giya», ya’ni bola tarbiyasining fani demakdur... Bolani salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakni tuzatmak, yaxshi xulqlarni o‘rgatmak, yomon xulqlardan asrab o‘sdurmakdur»[5] . Uning fikricha, tarbiya bola tug‘ilgan kundan boshlanadi va umrining oxiriga qadar davom etadi. Tarbiya ikki bosqichdan – oila va maktab tarbiyasidan tashkil topadi. Oilada to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan tarbiya maktab uchun katta madaddir va, aksincha, oilada tegishli tarbiya ishlari olib borilmasa, bu hol maktabning ta’lim tarbiya ishini juda qiyinlashtirib qo‘yadi. Avloniy tarbiyaga oid qarashlarida tarbiyani uch asosiy ko‘rinishga – badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi va axloq tarbiyasiga bo‘ladi hamda ular o‘rtasida uzviy birlik bo‘lishi zarurligini uqtiradi.

Xalq tarbiyasi an‘analarida so‘zdan emas, ko‘proq, namuna va harakatlardan foydalanganligi haqida rus etnografi S.P.Polyakov ham ma’lumot beradi[6] . Jazo usullari tanbeh, urishish, kaltakdan esa juda kam foydalanilgan. Lekin, keyingi yillarda ota-onalarning jazo usullardan ko‘proq foydalanish tendensiyasi ko‘zga tashlanmoqda. M.Midning fikricha, taqlid o‘yin, o‘qish va mehnat orqali shakllanadi. Bu jarayon boshqalar rolini qabul qilish, ularga o‘xshashga intilishning ko‘rinishidir[7]. Taqlid bolaning yoshiga, idrokiga bog‘liq ravishda ongli yoki ongsiz tarzda yuz berishi mumkin. Bola go‘dak yoshida kattalarga ko‘r-ko‘rona taqlid qiladi. Fransuz olimi E.Dyurkgeymning fikricha, bola taqlid qilish qobiliyati bilan tug‘iladi, o‘smir yoshiga etganda esa taqlid qilish faqat tanlov asosidagina amalga oshadigan jarayon bo‘lib, ijtimoiy tajribani keng ma’noda egallay boshlashi, natijada bolaning xarakteri, temperamenti, qiziqishlari ham shakllanadi.

Demak, bola o‘sgan sari, taqlid jarayoni mazmunan o‘zgaradi va ongli xarakter kasb etadi[8] . Uning fikricha, kattalarga taqlid qilish asosida bolalarning axloq sohasidagi ijobiy fikrlari mustahkamlanishi yoki, aksincha, ularda tajovuzkorona xislatlar ham rivojlanishi mumkin. Xulosa sifatida aytish mumkinki, o‘zbeklarda oilaviy tarbiya an’analari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, eng avvalo, tarbiya vositasida bolalarga ota-onalarning ota-onalik, qon-qarindoshlik xislatlari, milliy ma‘naviy fazilatlar singdiriladi. Shu orqali bola o‘z ota-onalarining farzandlariga bo‘lgan mehr-muhabbatini, oila va jamiyat oldidagi burch mas‘uliyatini, bola tarbiyasidagi tajribalarini o‘zlashtiradi.

Xulosa va taklif. Yoshlarning siyosiy-huquqiy madaniyatini shakllantirishda biz, avvalo, o‘quvchi yoshlarimizni shu muqaddas zaminda tug‘ilganliklaridan,

yashayotganliklaridan, dunyo e'tirof etgan buyuk allomalar Xorazmiy, Farg'oniy, Ismoil al-Buxoriy va Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy davomchilari ekanliklaridan faxrlanish hissini shakllantira olishimiz zarur. Agar yoshlarda ushbu tuyg'uni uyg'ota bilsak, ularning xatti-harakatlarida, ongu fikrida davlatimizni har tomonlama taraqqiy ettirishga mas'ul ekanliklari bilan bog'liq kayfiyat yuzaga keladi. Jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirishda mustaqil fikrlay oladigan, iymon-irodasi, e'tiqodi mustahkam, shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'unlashtiradigan, erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalash har bir pedagogning eng asosiy maqsadi bo'lmog'i lozim.

Globallashib borayotgan bugungi dunyoda axborot xavfsizligining oldini olish eng dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda, shuning bilan birga o'quvchi yoshlarimizni ana shu axborot xavfsizligidan asrash esa nafakat ota-onalardan, balki ta'lim tizimi xodimlaridan kuchli e'tibor va mas'uliyatni talab etmoqda. Yon atrofda sodir bo'layotgan voqealarni diqqat bilan kuzatar ekanmiz, jahondagi barcha voqelikni yaratuvchisi sifatida ma'naviyat va axloqning birlamchi omil ekanligini his qilish qiyin emas.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoev Sh.M.Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.- T.,O'zbekiston:NMIU, 2016. 14-bet.

2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi /http://lex.uz/pages

3. Rahimov S. Abu Ali ibn Sino ta'lim va tarbiya haqida. - Toshkent: O'qituvchi, 1967. -B. 88-89.

4. Abdurauf Fitrat. Oila yoki ... -B.- Toshkent: O'qituvchi, 1992. -B. 12.

5. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq - Toshkent: Fan, 1996. -B. 276.

6. Поляков С. П. Традиционализм в современном среденеазиатском обществе. - М., 1989. - С.

7. Маргарет Мид. Культура и мир детства. - М.: Глав. ред. восточ. летературы, 1988. - С. 179

8. Дюркгейм Э. Ценностные реальные суждения // Социологические исследования. - М.: изд-во «Рефл-бут», 1991, № 2. - С. 109-110.

# UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA AL-HAKIM AT-TERMIZIYNING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARIDAN FOYDALANISH

***N.A.ACHILOV,***
*Termiz davlat universiteti*
*Ijtimoiy fanlar fakulteti dekani, pedagogika fanlari*
*bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

*Maqolada al-Hakim at-Termiziyning faoliyati, asarlarining mazmuni va tarbiyaviy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, alloma asarlarining mazmuni pedagogik jihatdan ilmiy tahlil qilinib, uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash imkoniyatlari tasniflangan.*

***Kalit so'zlar:*** *ma'naviyat, axloq, ma'rifatparvarlik, insoniy fazilatlar, yolg'on, g'iybat, chaqimchilik, qasam, tushkunlik, arazlamaslik.*

*The article covers the activities of al-Hakim at-Termizi, the content of his works and their educational significance. Also, the content of the scholar's works is scientifically analyzed from a pedagogical perspective, and the possibilities of spiritual and moral education of students in the continuous education system are classified.*

***Key words:*** *spirituality, morality, enlightenment, human qualities, lies, gossip, slander, oath, depression, non-satisfaction.*

*В статье освещается деятельность аль-Хакима ат-Термизи, содержание его трудов и их воспитательное значение. Также научно анализируется содержание трудов ученого с педагогической точки зрения, классифицируются возможности духовно-нравственного воспитания учащихся в системе непрерывного образования.*

***Ключевые слова:*** *духовность, нравственность, просвещение, человеческие качества, ложь, сплетни, клевета, клятва, депрессия, неудовлетворенность.*

Ko'hna Termiz shahri dunyo tamadduniga mashhur olimlarni voyaga yetkazgan ma'rifatparvarlik o'cog'i hisoblanadi. Bu zamindan jahon ilm-faniga ulkan hissa qo'shgan benazir allomalar, tengsiz adib va shoirlar yetishib chiqqan. Jumladan, islom dini teran g'oyalarining mumtoz targ'ibotchilari al-Hakim at-Termiziy, Abu Bakr Varroq Termiziy, Muhammad ibn Homid Termiziy, musulmon olamida e'tirofini topgan «Sihoh sitta» (Olti hadis kitobi)ning mualliflaridan biri Imom Abu Iso at-Termiziy shular jumlasidan. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn Hasan ibn Bishir ibn Horun Hakim at-Termiziy ko'hna Termiz shahrida dunyoga keldi. U yoshligidan oilada Payg'ambarimiz hadislarini tinglab, yoshlikdan ilm ul-osor (hadis ilmi)ni hamda ilm ul-roy (hanafiy fiqh)ni o'rgandi. Oiladagi ana shunday ilmga chanqoq muhiti, al-Hakim at-Termiziyni Buxoro, Samarqand, Marv, Nishopur hamda Sharqning Ray,

Hamadon, Bag‘dod, Basra, Samara, Kufa, Makka, Madina va yana ko‘plab boshqa shaharlarga chorlaydi. Alloma bu shaharlarning ilm ahli bilan tanishdi, ular bilan qizg‘in suhbatlar qurdi, ulardan fan sirlarini o‘rgandi va mashhur olimlar bilan bahsu munozaralarda ishtirok etdi. Alloma merosini o‘rganish jarayonida alohida bir xususiyat namoyon bo‘ladiki, u ham bo‘lsa, uning asarlaridagi ma’lumotlar xilma-xilligi, mazmunan boyligi va allomaning madaniy – ma’rifiy salohiyatining keng ko‘lamligidir. Al-Hakim at-Termiziyga xos bo‘lgan bu ajoyib iste’dod unga zamondosh olimlardan birortasida ham bo‘lmay, o‘sha davr ilm-fani va ma‘rifati taraqqiyotining barcha jihatlarini o‘zida mujassam qilgan edi [1;1].

Al-Hakim at-Termiziy asarlarining bosh g‘oyasi shaxsni ilmli, ma‘rifatli bo‘lishi. Ilmni nur, shu nur – ilm insonni Alloh vasli tomon yo‘naltirishini ta‘kidlaydi [2;2]. Xususan, alloma asarlarida «Ma’rifat al-ilm billoh», ya’ni «Allohni bilim bilan tanish» g‘oyasini ilgari suradi. Tasavvuf ta’limoticha, imon va ilm mushtarak tushunchalar, imon – Alloh ilmi, hatto dastlab, islom so‘zi ilmni anglatgan. Qalb qanchalar gunohdan poklansa, ilm shu qadar munavvvar va mukammal bo‘lishini ta’kidlab, «Kitob al-aql va-l-havo»(«Aql va havoyilik haqida kitob») asarida: «Allohni anglashda qalb bilan tasdiqlash va til bilan iqror bo‘lish lozim»ligini qayd etgan [3; 14.].

Al-Hakim at-Termiziyning yo‘li ilm, ma’rifat yo‘li bo‘lib, asarlarining bosh g‘oyasi ham shaxsni ilmli, ma‘rifatli bo‘lishidir. Uning kitobi va risolalarining ko‘pchiligi tasavvuf ilmiga oid bo‘lib, ular mutasavvuflarning eng katta va salmoqli kitoblaridan, deb e‘tirof qilinadi. Jumladan «Qaytarilgan amallar» («al-Manhiyot») nomli asari xuddi shunday asarlardan biridir. Asarning bizgacha yetib kelgan ikki qo‘lyozma nusxasi haqida ma’lumotga egamiz. Birinchisi, Ali ibn Sulaymon ibn Ahmad ibn Sulaymon al-Muroliy al-Andalusiy tomonidan 1139-yili ko‘chirilgan nusxa bo‘lib, u Frantsiyada Parij milliy kutubxonasida 5018/XII raqam ostida saqlanadi. Ikkinchisi, Turkiyada dastlab Sulaymoniya kutubxonasining As’ad Afandi fondida 1479 tartib raqami ostida saqlangan qo‘lyozma nusxa. Hozirgi kunda u Avqof muzeyida 2032 raqami ostida saqlanmoqda. Ushbu asar Muhammad Usmon Xusht tomonidan 1985-yilda Misrda «Maktabat al-Qur‘an» nashriyotida chop etilgan. Aynan shu yilda tadqiqotchi Abu Hojar Muhammad Sa‘id ibn Baysuniy Zag‘lul tomonidan ham Livanda, Bayrutda «Dar al-kutub al-ilmiyya» nashriyotida chop etilgan [4;35.]. Asarning arab tilidan o‘zbek tiliga tarjimasi 2019-yil Mas’udxon Ismoilov tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu asarning mavzusi, islomiy axloq, insoniy fazilatlar va ijtimoiy odob masalalari

hisoblanadi. Alloma mazkur masalalar tadqiqi va talqinida uning irsiy, atrof muhit va inson tabiati bilan bog‘liq ilmiy asoslari tomonidan emas, balki Payg‘ambar (alayhissalom)ning sunnatlariga aloqador va hadislarda bayon etilgan jihatlari nuqtai nazaridan yondashilgan. Asarda musulmon kishini katta-kichik gunoh, makruh ishlardan, xato va kamchiliklardan qaytaruvchi hadislar tanlab olinib sharhlashga asosiy e’tibor qaratilgan. Mazkur hadislarga nazar tashlab, Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam)dan sahobalar tomonidan rivoyat qilgan hadislarga e‘tibor qaratsak, u zot qaytargan narsalar turli tumanligi bilan ahamiyatlidir. Ularning ayrimlari odob-axloq yuzasidan, ba‘zilari esa harom bo‘lganligi sababidan qaytarilgan. Qur‘oni Karimning Hashr surasi 7-oyatida: «Payg‘ambar sizlarga keltirgan narsani olinglar, u sizlarni qaytargan narsadan qaytinglar!» [5;385.] – deb ta’kidlangan.

Ushbu jadvalda allomaning «Qaytarilgan amallar» («al-Manhiyot») asari tahlil qilinib inson tarbiyasida muhim hisoblangan fazilatlar guruhlandi. Shu nuqtai nazardan ularning qisqacha mazmunini e’tiboringizga havola qilmoqchimiz. Jumladan: Yolg‘on gapirishdan qaytardilar. Yolg‘on gapirish insonga tuhmat va buhton qilish hisoblanadi. Agar yolg‘on gapirish ruxsat etilganda, biron bir xabarga nisbatan qalblarda ishonch bo‘lmagan bo‘lar edi. So‘zlovchi gapiraveradi, qalb esa uning gapiga ishonib xotirjam bo‘lmasdi. Chunki u inson to‘g‘ri gapirayaptimi, aladayaptimi bilolmas edi. Yolg‘on gapirish ta’qiqlangach, rostgo‘ylik ravshan bo‘ldi. Qalblar esa so‘zlovchilarning xabarlaridan xotirjam bo‘ldi. Kimning yolg‘oni namoyon bo‘lsa, sharmanda bo‘ladi ishonch pardasi yirtiladi, xor-zor bo‘ladi. Shu sababli yolg‘ondan saqlanish hukmi joriy bo‘lgach, qalblar ham xabar beruvchilarning gaplaridan xotirjam bo‘la boshladi.

G‘iybatdan va g‘iybatga quloq solishdan qaytardilar. G‘iybat insonning obro‘sini to‘kishdir. Holbuki, bir insonning obro‘sini saqlash barcha insonlarning zimmasida. Chunki dinimizda insonning qoni, moli, obro‘sini to‘kish harom qilingan. Ayniqsa, gapga quloq tutgan kimsa g‘iybatchiga sherik hisoblanadi. Bu narsa katta buzg‘unchilikka olib boruvchi va yomonliklarning barchasiga yetaklovchi ishdir. Shuning uchun Payg‘ambar (alayhissalom): «G‘iybatchi jannatga kirmaydi», – dedilar. Chunki, g‘iybatchi shaytonning bir askari, josusidir. U buzg‘unchilik qilib, bir muhabbatli jamoani tarqatib yuborishga qodir.

Gap tashib chaqimchilik qilishdan va unga quloq solishdan qaytardilar. Chaqimchilik bu bir insonda bor bo‘lgan kamchiligini uni boshqa bir odamga yetkazishidir. Ya’ni bu insonlar o‘rtasida nifoq va adovatni paydo qilishdir. U

odamlar o‘rtasida bog‘lab qo‘ygan rishtaga tajovuz qilib, uni tugunga aylantirib, ular o‘rtasida nafrat va yomonliklarni yuzaga kelishida sabchi bo‘ladi.

Yolg‘on qasam ichishdan qaytardilar. Hadisu sharifda: kimki achchiq yolg‘on bilan qasam ichsa, bu ishi bilan kishining obro‘sini to‘ksa, Alloh taologa yo‘liqqanda unga g‘azab qilgan holatda bo‘ladi, – deb ta‘kidlanadi.

Tushkunlikdan qaytardilar. Tushkunlik mohiyatan Allohning hukmlari va taqdiridan qochishdir. Vaholanki, bo‘lishi taqdir qilingan narsa inson qaerga qochsa ham ergashib boraveradi. Demak, undan qochuvchi yomon odam hisoblanib, g‘azabga qoladi.

O‘yinlarda va botil ishlar vaqtida hozir bo‘lishdan qaytardilar. Inson behuda ishlar uchun yaralmagan. Agar u bekorchi ishlar bilan shug‘ullansa, o‘ziga ham, birovga ham foydasi yo‘q ishlar bilan mashg‘ul bo‘lsa, ertaga u hasratu nadomatda bo‘ladi, o‘tkazib qo‘ygan har bir vaqti umri uchun achinadi. Yoki buning aksi. Agar inson dunyo va oxirat ishlarini har tomonlama o‘ylab qilsa uning foydasiga bo‘ladi. Zarariga bo‘lmaydi bunday ishning savobi doimiydir.

Tishlarni orasini ochishdan qaytardilar. Bu ishlar musladir. Musla – biron bir ishni Yaratguvchiga o‘xshab qilishga urinish va o‘zini unga o‘xshatmoqlik hisoblanadi. Zero, oldin bo‘lmagan narsani yasash va yaratish Yaratguvchining ishidir. Demak tishlarning orasini ochish temir bilan muolaja qilinadigan ish bo‘lib tishlarning orasini alohida-alohida qilishdir. Bunda tishlar orasida ochiq qoldiriladi. Bu ishni qilgan odam Alloh yaratgan holatni o‘zgartirgan bo‘ladi.

Xol qazishdan qaytardilar. Xol qazish – igna bilan qo‘lga yozish yoki surat chizib, ko‘k rang bilan bo‘yashdir. Odam tanasida xuddi tug‘ma yaratilgan kabi iz qolishi uchun igna sanchib chiqiladi. Bularning hammasi kalondimog‘lik, manmanlik bilan nafsi havoga va shaytonga ergashishdir.

Kishini chap qo‘li bilan taom yeyishdan qaytardilar. Chunki chap qo‘l shaytonga xosdir. O‘ng qo‘l esa farishtalarga xosdir. Shu sababli yeyish, ichish, kiyish, biror narsani oldi berdi qilish kabilarning hammasi o‘ng qo‘l bilan qilinishi lozim. Ammo bir narsani rad qilish, biron-bir ozor zararlarni, kirlarni ketkazish esa chap qo‘l bilan bo‘lishi kerak.

Arazlashib yurishni man qildilar. Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam): «Kimki bu ishni qilishga majbur bo‘lib qolsa, aslo uch kundan ko‘pga birodarini tark qilmasin. Birodaridan arazlashgan holda vafot etgan kishiga do‘zaxning eng birichi talabgoridir», – dedilar. Arazlashib yurishda haqorat qilish va xorlash bor. Chunki bunda ison salomlashmay qo‘yadi, yaxshi gapirishni to‘xtatadi. Bu esa

ison o‘zining do‘st birodarini dushman bilib, yomon ko‘rib, undan yuz o‘girishiga olib keladi. Ammo shu ish bilan odob berish zarurati tug‘ilsa, hadisda ta‘kidlanganidek faqat uch kunga ruxsat beriladi. Undan o‘tib ketmasligi lozim! Shu o‘rinda biz man etilgan narsalarni ikki qismga ajratilishini bildik. Birinchisi odob berish – «nahyi ta‘dib» va ikkinchisi esa harom bo‘lganligi sababli qaytarilgan – «nahyi tahrim» narsalardir. Kimki odobni tark qilsa darajasi pasayadi, kimki haromga qo‘l ursa halokatga uchraydi [6;256.].

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalar asosida uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish yo‘lini davom ettirish va sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, jumladan jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Bu borada xalqimizning intellektual boy ilmiy merosi va umumbashariy qadriyatlari asosida milliy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning samarali tizimini shakllantirish hamda ana shu maqsadga xizmat qiluvchi allomalar asarlari vositasida talabalarda ma‘rifatparvarlik fazilatlarini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish zaruratini taqozo etadi [7;25.]. Shu sababli ajdodlar ilmiy merosini o‘rganish asosida yoshlarni ilmli bo‘lishga yo‘naltirish, ularda yuqorida ta’kidlangan sifatlar asosida ma’rifatparvarlikni rivojlantirish o‘quvchi-talabalarning ijodiy fikrlash va tafakkur qilishlariga asos bo‘ladi. Shuning uchun ham uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida allomalarimizning bebaho merosini o‘rganib, asarlarini tahlil qilish lozim. Buning uchun uzluksiz ta’lim tizimida dars va darsdan tashqari tarbiyaviy mashg‘ulotlarda al-Hakim at-Termiziy merosidan foydalanish maqsadga muvofiq[8;4.]. Olib borilgan ilmiy tadqiqotimiz natijasida Al-Hakim at-Termiziyning «Qaytarilgan amallar (al-Manhiyyot)» asari tahlil qilindi. Shu maqsadda, uzluksiz ta’lim tizimida alloma ma’naviy-axloqiy qarashlaridan foydalanish bo‘yicha quyidagi taklif va tavsiyalarni bermoqchimiz:

– birinchidan, oilada olib borilayotgan ilk tarbiya jarayonida allomaning ma’rifatparvarlik fazilatlari haqidagi qarashlari ota-onalar tomonidan ta’kidlanib, odatlantirib boriladi. Natijada, farzandlarining ongida yaxshi fazilatlar shakllanadi;

– ikkinchidan, maktabgacha ta’lim muassasalarida olib borilayotgan mashg‘ulotlar jarayonida allomaning hikmatli so‘zlari tanishtirilib boriladi. Natijada, insonparvarlik fazilatlar rivojlantiriladi;

– uchinchidan, umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarida dars va darsdan

tashqari tarbiyaviy mashg'ulotlarda alloma hayoti va ilmiy faoliyati o'rganiladi va asaridan namunalar keltirilib, fazilatlar tahlil qilinadi. Natijada, o'quvchilar allomaning hayoti va faoliyatini chuqur o'rganib, ushbu asarining tub mazmuni va mohiyatini anglab, fazilatlar takomillashtiriladi;

– to'rtinchidan, oliy ta'lim muassasalari talabalarida audutoriya va audutoriyadan tashqari tashkil etiladigan tarbiyaviy mashg'ulotlar jarayonida alloma ma-naviy-axloqiy qarashlari tahlil qilinadi va mustaqil topshiriqlar asosida o'rganiladi. Natijada, talabalar ilm egallashda ularning yo'lidan borishga intiladilar va kasbiy faoliyatlarida allomalar merosidan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, tarbiyaviy mashg'ulotlarda allomaning ma'naviy-axloqiy qarashlari, ibratli hikmatlaridan samarali foydalanish, o'quvchi-talabalar ma'naviy merosimizning bebaho ekanligini bilishga, ulardan g'ururlanishga, asarlarini o'rganib, amaliy tajriba faoliyatlarida tadbiq qilib, ularning munosib davomchilari ekanliklarini his qilishga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar:**

1. Abdugafforovich A. N. Scientific theory of al-khakim at-termezi //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. - 2019. - T. 2019.

2. Ачилов Н. А. Влияние учения Аль-Хаким Ат-Тирмизи в идейном наследии мыслителей //Журнал выпускается ежемесячно, публикует статьи по гуманитарным наукам. Подробнее на. - 2018. - С. 70.

3. Achilov N.A. Al-Hakim at-Termiziy asarlari vositasida talabalarda ma'rifatparvarlik fazilatlarini rivojlantirish texnologiyasi. Ped. fan. bo'y. fal. dok. ... diss. - Termiz, 2020. - 173 б.

4. Termizlik allomalar asarlarining qo'lyozmalari katalogi.-Toshkent. 2015 y.B.35.

5. Quroni Karim. Ma'nolar tarjimasi. Tarjimon va izohlar muallifi Abdullaziz Mansur. 385-386 betlar.

6. Al-Hakim at-Termiziy, Qaytarilgan amallar (al-Manhiyyot). Tarjima va izohlar muallifi M.Ismoilov. -Samarqand: «Imom Buxoriy xalqaro markazi», 2019.-256 b.

7. Ачилов Н.А. Технология развития просветительских качеств у студентов посредством произведений Аль-Хакима Ат-Термези // Авто. дисс. док. фило. (PhD) по пед. наук. - Термез, 2020. - С.

8. Ачилов Н. А. Просветительские взгляды Аль-Хакима ат-Термези // Педагогическое образование и наука. - 2019. - №. 5. - С. 16-19.

# SIFATLI TA'LIMNING MUHIM MEZONI

**R.JUMANIYOZOV,**
O'zbekiston Yozuvchilar va
jurnalistlar uyushmalari a'zosi, f.f.n, professor

*Ushbu maqolada ta'lim sifatini oshirishga daxldor masalalar, xususan, pedagog mahoratining muhim qirrasi bo'lgan kommunikativ kompetentlik, nutq madaniyati va notiqlik san'ati haqida fikr va mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, ta'limning kaliti nutq, tarbiyaning kaliti xulq ekani asoslangan.*

***Kalit so'zlar:*** *Ritorika, voizlik, nutq mahorati, til taktikasi, teran tafakkur teranligi, akademik nutq, va'z, da'vat, jang san'ati, strategiya, kommunikativlik, ritor, mulohaza, voiz, lshingvistik kompetensiya, ta'sirchan mexanizm.*

*В статье рассматриваются вопросы, связанные с повышением качества образования, в частности, коммуникативная компетентность, культура речи, ораторское искусство, которые являются важными аспектами педагогического мастерства. Также общеизвестно, что ключом к образованию является речь, а ключом к воспитанию - характер.*

***Ключевые слова:*** *Риторика, проповедование, речевые навыки, языковая тактика, глубина мысли, академическая речь, проповедь, призыв, боевые искусства, стратегия, коммуникация, риторика, рассуждение, проповедник, языковая компетентность, эффективный механизм.*

*This article discusses issues related to improving the quality of education, in particular, communicative competence, speech culture and oratory, which are important aspects of pedagogical skills. It is also based on the fact that speech is the key to education, and character is the key to upbringing.*

***Key words:*** *Rhetoric, preaching, speech skills, language tactics, depth of thought, academic speech, sermon, invitation, martial arts, strategy, communicativeness, rhetoric, reasoning, preacher, linguistic competence, effective mechanism.*

Davlatimiz rahbari respublikamiz bo'ylab qaysi korxona, qaysi tashkilotda bo'lmasin, mutassadilar bilan uchrashmasin, albatta uchta so'zni takrorlashlari va talab etishlari bejiz emas. Bular – sifat, samara va natijadorlik. Har bir qilingan harakatning natijasi, samarasi sifatga bog'liqligi ayon. Demak Prezident o'zlari qayta-qayta e'tirof etgani kabi «Najot ta'limda, najot bilimda, najot ilmda». Shunday ekan, jamiyatni, xalqni ulug' maqsadlar sari olg'a boshlashning birdan bir yo'li – yosh avlodga berilayotgan ta'lim – tarbiyaning sifati bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun ham «Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining

yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘lidir» – deganlari bejiz emas.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o‘tgan yili (2023) yangi o‘quv yili arafasida maktab ta’limidagi masalalarni muhokama qilish va ustuvor vazifalarni belgilab olish yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishi ham mohiyat e‘tibori bilan ahamiyatli bo‘lgan edi.

Shuni e’tirof etish kerakki, «Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshla-nadi», degan ezgu g‘oya asosida katta ishlar amalga oshirilganidan, qisqa muddat mobaynida yuzlab zamonaviy maktablar barpo etilgani, Prezident maktablari, ijod maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘i kengaytirilgani, yangi darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari yaratilganidan ko‘z yumib bo‘lmaydi.

Shuningdek, «Muallim va o‘quvchilar uchun sharoitlarni yaxshilash, ta’lim sifatini oshirishga alohida e’tibor qaratayapmiz», – dedi davlatimiz rahbari yig‘ilish avvalida.

Ta’limdagi natijadorlik va samara uning sifatiga bog‘liq ekani ayon. Bir karra ta’lim berish ikki karra ta’lim olish ekanini unutmaslik zarur. Ta’lim berishning ham o‘ziga xos mashaqqati, rohati, muhim usul va uslublari bor. Bilish boshqa, uni yetkazish va unga amal qilish boshqa. Chunki ilmu amal birlikda bo‘lmasa, samara haqida gap bo‘lishi mumkin emas. Sifatli ta’lim masalasi, avvalombor, intellektual salohiyatga ega bo‘lgan, zamonaviy bilim, texnologiyalar bilan qurollangan, teran tafakkurli, dunyoqarashi keng bo‘lgan muallimga bog‘liqdir. Bu ayni haqiqat.

O‘qituvchi ko‘p bilimga ega bo‘lsa, axborot texnologiyalarini obdon o‘rgangan bo‘lsa, hatto, xorij sertifikatlariga ega bo‘lib ko‘p tillarni bilsa, hatto, bo‘yi barobar kitob, monografiya, ilmiy maqolalar yozgan bo‘lsa ham hali bu ta’limning sifati va samarasi degani emas. Bu masalaning bir tomoni, xolos. Chunki ta’limning sifatli bo‘lishi uchun jahon miqyosidagi sohaviy yangiliklar va bilimlarni obdon o‘rganish, hamkorlik rishtalarini bog‘lash, yetuk mutaxassis, malakali o‘qituvchilar tajribasini ommalashtirish badaliga bo‘lishi asosiy maqsaddan yiroq emas.

Tasavvur qiling, jamoaga yangi o‘quv yili munosabati bilan osh berish niyatida taom masalliqlarini keltirish uchun bir kishini yollasak va asl dehqon yetishtirgan mahsulotlardan keltirishini tayinlasak. U barcha masalliqlar – guruch, piyoz, sabzidan tortib yog‘u go‘shtigacha keltirsa, oshpaz uni tayyorlashga kirishsa, lekin osh xom-xatala bo‘lib qolsa, xo‘sh, kim aybdor?

Bozorga borib kelganmi, yetishtirgan dehqon-mi, yoki sotganmi? Albatta, oshpaz aybdor. Demak, uning osh tayyorlash kompetent-ligi, uquvi hali yetarli emas. Oshpaz hali tajribasi va malakasini oshirishi kerak. Ta'bir joiz bo'lsa, oshpazni muallimga qiyos qilsak, keltirilgan masalliqlarni o'quv-uslubiy qo'llanma va darsliklarga o'xshatish mumkin.

O'qituvchining kommunikativ kompetentlik darajasi yetarli bo'lmasa, ya'ni nutq madaniyati, til imkoniyatlaridan o'rinli va unumli foydalana olmasa, bosh-qacha aytganda, notiqlik mahorati yetarli bo'lmasa, albatta, sifatli ta'lim talabi yuzaga chiqmaydi. Ishning ko'zini bilish degan ibora bu borada bejiz emas. Ish faoliyatimiz, tajriba va kuzatuvlarimizdan shu narsa aniqki, o'qituvchilar yetarli bilimga ega, lekin ular, fan mavzuini, olingan bilim, o'zlashtirilgan malaka, hosil qilingan ko'nikmani o'quvchi yoki talabaning ongiga singdirish mexanizmini – kommunikativ kompetent-likni, nutq madaniyatini to'la va chuqur egallamagan bo'lishadi. Natijada bu sifatli ta'limning samarasiga zid bo'lgan holat sifatida izohlanadi. Yaponiya, Finlandiyada o'quvchini qiziqtirish, mantiqiy mushohada yuritishga chog'lash ta'lim tizimining jon va qon omiri.

Videoselektorda ta'limning va tarbiyaning o'rni haqida, ilmning qiymati, muallimning rutbasi haqida e'tiborga molik mulohazalar bildirildi. Jamiyatga e'tibor masalasi xalqning ertasi, sifatli ta'lim bilan bog'liq degan fikr uqtirildi. Maktabgacha ta'lim, maktab ta'limi o'rta-maxsus va oliy ta'lim uzviy bosqichma-bosqich tizimli ravishda bo'lishi, biri-birini to'ldiradigan, boyitadigan bo'lishi kerakligi ma'lum.

Shu o'rinda aytish kerakki, Prezident oldingi chiqishlarida o'n yil davomida o'qigan o'quvchi nahotki, ikkita xorijiy tilni bilmaydi, vaholanki, repetitorga borsa bir yilda o'rganayapti, demak, bizni ta'lim berishimiz ko'ngildagidek emas ekanligini aytib, ko'pchilik darsliklar eski usulda ekanligi, bugungi o'quvchini dunyoqarashiga mos emasligini, jahon andozalariga moslab tayyorlanmaganligi ham e'tirof etilgandi.

Shuningdek, tilning o'rni barcha fanlarda, sohalarda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlash o'rinli. O'tgan yili Prezidentimizning Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomasida «Chet tillarni bilish kerak, ammo xalq o'z ona tilini bilishga majbur, majbur majbur» – deya kuyunchaklik bilan qayta-qayta uqtirganlari hamon yodimizda. Shu o'rinda beixtiyor ma'rifatparvar adib Is'hoqxon Ibratning ushbu o'gitlari yodga keladi: «Bizning yoshlar, albatta,

boshqa tillarni bilish uchun sa'y-harakat qilsinlar, lekin avval o'z ona tilini ko'zlariga to'tiyo qilib, ehtirom ko'rsatsinlar. Zero, o'z tiliga sadoqat - bu vataniy ishdir». Aytish mumkinki, bu vataniy ishgina emas, balki vataniy ishqdir.

O'ylab ko'ring, o'qituvchi tabiiy fanlardanmi, yoki ijtimoy-siyosiy yoxud gumanitar fanlardan dars beradimi, albatta, tilning ifoda imkoniyatlarini, nutq madaniyatini to'la egallashi shart. Aks holda, fanning, mavzuning mohiyati ro'yobga chiqmaydi. Fizik qonuniyatlarni ham, kimyoviy reaksiyalarni ham, geometrik aksioma va teoremalarni ham, matematik sinus – kosinuslarni ham pedagog qaysi tilda tushuntiradi? Albatta, o'z ona tilida – davlat tilida tushuntiradi. Demak, unda chalami? Fan ham, mavzu ham chala bo'ladi.

Xorijiy tilni o'rganishga bo'lgan mehr o'z ona tiliga bo'lgan muhabbatdan boshlanadi, chunki til muqoyasa etib o'rganiladi. Ona tili chalami, o'zga tillar ham chala bo'lishi aniq. Demak, nutq mahoratiga ega, nutq hususiyatlarini bilib nutq texnikasiga amal qila oladigan, tili burro, tallafuz me'yori ham tafakkur darajasi ham aniq va tiniq bo'lgan murabiylarni darsga jalb etilishi va ularning ritorik mahoratini oshirish ta'limning sifati va samarasiga bevosita daxldor masaladir.

Tarixda Rossiya imperatori Pyotr 1 shu xususda maxsus farmon ham chiqargani ma'lum. «Nutqiy nuqsoni bor bo'lgan muallim garchi bilimli bo'lsa ham sinfga qo'yilmasin, chunki bolalar taqlidchi bo'lishadi, unga ergashishadi». Har ikki gapida bir «tak», «znachit», «toys» deb turadigan o'qituvchini tinglagan o'quvchini g'ashi kelishi aniq. Ajab emaski, unga «Takov Znachit Toysovich» deb laqab qo'yib yuborishsa! Nutqning aniqligi tafakkur va talaffuzning tiniqligidanligini aslo unutmaslik kerak. Qaysi sohada, qaysi kasbda ishlamaylik, qaysi fandan dars bermaylik, avvallombor hammamiz nutq madaniyatini, notiqlik san'atini yaxshi egallagan bo'lishimiz kerak. Shundagina o'quvchi bizga ergashadi, shundagina u bizni fanimizni sevadi. Aks holda, uning bu qulog'idan kirib unisidan chiqib ketadi, bundan esa hech qanaqa naf yo'q!

Ta'limning sifatini ta'minlashda notiqlik san'atining o'rni bo'yicha yaqinda tajriba o'tkazib ko'rdik. O'zining 32 soatlik o'quv – amaliy dasturiga ega bo'lgan «Notiqlik san'ati akademiyasi» ta'lim muassasasiga 4 nafar o'qituvchini chaqirtirdik. Ulardan ikki nafari litsey, ikki nafari kollej o'qituvchilari edi. Ularga besh daqiqalik videorolikni qo'yib berdik va diqqat bilan ko'rib-kuzatganlarini gapirib berishni tayinladik. Birinchi o'qituvchi

xuddi antennasi yo‘q televizorda bijir-bijir tasvir ko‘rgandek taassurot uyg‘otib mujmal gapirdi, ikkinchisi oq-qora rangli televizorda ko‘rgandek fikr berdi. Uchinchisi rangli televizorda ko‘rgandek zavqu shavqli taassurot bergan bo‘lsa, to‘rtinchisi esa xuddi 3 D, 5 D qilib tashladi.

Shuning uchun ham Uilyam Uort «O‘rtacha o‘qituvchi bayon qiladi, yaxshi o‘qituvchi tushuntiradi, mashhur o‘qituvchi namoyish qiladi, buyuk o‘qituvchi esa ilhomlantiradi.» – deb bejiz aytmagan edi. Uchinchi va to‘rtinchi toifa o‘qituvchilarni tayyorlamas ekanmiz, oldimizga qo‘yilgan maqsadlarni, xususan Uchinchi Renessansni to‘la amalga oshirish mushkul. Biz ta‘lim tizimining barcha bosqichlarida pedagoglarni lingvistik kompeteniya bo‘yicha tayyorlashimiz kerak, chunki ta’lim olgan ta’lim bera olganidek, tarbiyalangangina tarbiyalashi mumkin. O‘qituvchining bilimi, kommunikativ kompetentligi va notiqlik san’ati ta’limning natijadorligi va samarasi masalasi eng muhim mezon ekanligini qayd etib vazirliklarga bir necha bor xatlar ham qildik. Yaqindagina bu fikr quvvatlandi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziriligi, shaxsan vazirning o‘zlari Ibrohim Yulchievich Abdurahmonov tomonidan bu masala ma’qullandi.

Barcha ta’lim vazirliklari tizimida professor o‘qituvchilar malakasini oshirish bo‘yicha maxsus ritorik mahorat, notiqlik san’atini oshirish bo‘yicha amaliy kurslarning tashkil etilishi maqsadga muvofiq. To‘g‘ri, qisqa muddat ichida notiq – pedagog bo‘lish qiyin, uning uchun yillar kerak bo‘ladi. Lekin, o‘z ustida ishlash doimiy tarzda bo‘lishi shart.

Shuni ta’kidlash joizki, pedagogning o‘z ustida ishlashi avvalambor, so‘z ustida ishlashdan boshlanadi. Ta’limning kaliti – nutq bilan, tarbiyaning kaliti - xulq bilan ekanini anglash muhim. Nutqiy va xulqiy madaniyatga ega bo‘lgan inson komil, avlod barkamol atalishi o‘rinli. Demak, chinakam notiq-o‘qituvchi o‘zi yoqimli, so‘zi yuqumli bo‘lishi, u shunchaki yetkazuvchi emas, balki o‘tkazuv-chi bo‘lishi kerak. So‘zi bilan yondiruvchi, fikri bilan qondiruvchi nisbati ham ularga xosu mos libos.

Videoselektorda yuqori sinflarga ayrim fanlarning xususan, kimyo, biologiya, matematika, fizika, chet tili, ona tili va adabiyot fanlarini chuqurlashtirib o‘qitilishi masalasining e’tirof etilishi ahamiyatli bo‘ldi. Barcha fanlarni, tabiiy va gumanitar fanlarni bog‘lovchi vosita pedagogning kommunikativ kompetentligi hamda nutq madaniyati, notiqlik san’atidir, bu esma pedagogik mahoratning o‘zagi va o‘zanidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh. «Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak». - T.: «O'zbekiston» NMIU. 2016.

2. Ibraimov X, Quronov M. Umumiy pedagogika. Darslik. «Sahhof» nashriyoti. T., 2023

3. Kaykovus. Qobusnoma. - T.: «Meros», 1992.

4. Navoiy A. «Mahbub ul-qulub». - T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1993.

5. Navoiy A. «Vaqfiya», «O'qituvchi» nashriyot-matbaa ijodiy uy, 2006-y.

6. Husayn voiz Koshifiy. Futuvvatnomai Sultoniy. Axloqi Muhsiniy. «O'qituvchi» nashriyot-matbaa ijodiy uy, 2018.

7. Jumaniyozov R. «Spikerlik sirlari». «O'zbekiston» NMIU, 2022- y.

8. Bekmirzaev N. Notiqlik san'ati. T., 2019 -y.

# O‘SMIR QIZLARDA MA‘NAVIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHDA SINF RAHBARNING O‘RNI

**V.T.RAJAPOV,**
*Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy instituti tadqiqotchisi*

*Maqolada o‘smir qizlarni o‘qitish va tarbiyalash jarayonini qurishning boshlang‘ich va asosiy qoidalari ochib berilgan. Bundan tashqari, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning asosiy tamoyillari, tushunchalari shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning texnologik arsenali haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar.*** *Ma’naviy dunyoqarashni tarbiyalash samaradorligi, o‘smir qizlarning mazkur muammoga yondashuvi, yondashuvning texnologik arsenali, individualligini shakllantirish, xususiyatlar.*

*В статье раскрыты элементарные правила и основные положения построения процесса обучения и воспитания девочек-подростков. Кроме того, были рассмотрены основные принципы, концепции личностно-ориентированного подхода технологический арсенал личностно-ориентированного подхода.*

***Ключевые слова:*** *Эффективность воспитания духовного мировоззрения, интереса девочек-подростков к проблеме, технологический Арсенал подхода, формирование индивидуальности, по характеру.*

*The article reveals the initial rules and Basic Rules for the construction of the process of training and education of teenage girls. In addition, the basic principles, concepts of the personality-oriented approach were reflected on the technological arsenal of the personality-oriented approach.*

***Key words:*** *The effectiveness of the upbringing of a spiritual worldview, the interest of teenage girls in the problem, the formation of a technological arsenal, individuality of the approach, characteristic.*

Bugungi kunda axloqiy tarbiya bo‘yicha bir paytlar juda faol bo‘lgan ish shakli – tashviqot jamoasi asta-sekin qayta tiklanmoqda. Ma’rifiy-satirik dasturlar, tanlovlar, ro‘znomalar, vatanparvarlik qo‘shiqlari tanlovlari – bular ma’naviy ma’rifatning bosh shakllaridir. Bugungi kunda o‘smir qizlarda vatanparvarlik hissini kuchaytirishda sinf rahbarlarining o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Sinfda tashkil qilingan to‘garaklar asosida o‘smir qizlarning o‘zlari she’r, matn yozadilar, ssenariylar tuzadilar, kuylaydilar, raqsga tushadilar, sahna bezaklarini tayyorlaydilar va hokazo. Bu yerda eng qimmatlisi – samaradorlik: ijtimoiy tajriba shakllanadi, jamoa bo‘lib ishlash, hayotiy qiyinchiliklarni yengib o‘tishga ichki tayyorgarlik mexanizmlari ishlab chiqiladi.

Sinf jamoasida tashkil etiladigan va o‘tkaziladigan tarbiyaviy ishlarning katta tizimi o‘smir qizlarni tarbiyalash dasturi asosida quriladi.

Sinf rahbari uchun o‘quv yili (yarim yillik) uchun ma’naviy-tarbiyaviy vazifalar doirasida quyidagi vazifalar belgilab olinadi;

– qo‘yilgan vazifalar doirasida o‘smir qizlarning qiziqishlari va ehtiyojlarini aniqlanadi;

– qo‘yilgan vazifalarni hal qilishda tarbiyaviy ishlarning asosiy mazmuni va rolini aniqlanadi;

– o‘smir qizlar shaxsining tarkibiy qismlarini shakllantirishning (ong, xulq-atvor va hokazo) hisobga olgan holda tarbiyaviy ishlarni taqsimlanadi;

– ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning asosiy tushunchalariga, bizning fikrimizcha, quyidagilarni kiritish mumkin:

– individuallik – inson yoki guruhning takrorlanmas o‘ziga xosligi, ulardagi yakka, o‘ziga xos va umumiy xususiyatlarning noyob birikmasi, bu ularni boshqa individlar va insoniy jamoalardan ajratib turadi;

– shaxs – doimiy ravishda o‘zgarib turadigan tizimli sifat, individning barqaror xususiyatlari majmui sifatida namoyon bo‘ladi va insonning ijtimoiy mohiyatini tavsiflaydi;

– o‘z-o‘zini faollashtirgan shaxs – o‘zi bo‘lishga, o‘z imkoniyatlari va qobiliyatlarini to‘liq ochishga intilishni ongli va faol amalga oshiradigan shaxs;

– o‘z-o‘zini ifodalash – individ tomonidan o‘ziga xos bo‘lgan sifatlar va qobiliyatlarni rivojlantirish va namoyon etish jarayoni va natijasi;

– sub‘ekt – o‘zini va atrof-muhitni bilish va o‘zgartirishda ongli va ijodiy faollikka va erkinlikka ega bo‘lgan individ yoki guruh;

– Men-konsepsiya – insonning o‘zi haqidagi ongli va his qiladigan tasavvurlari tizimi, ular asosida u o‘z hayotiy faoliyatini, boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabatlarini, o‘ziga va atrofdagilarga munosabatini quradi;

– tanlov – inson yoki guruh tomonidan o‘z faolligini namoyon etish uchun ma’lum bir majmuadan eng maqbul yechimni tanlash imkoniyatini amalga oshirish;

– pedagogik qo‘llab-quvvatlash – sinf rahbarlarining o‘smir qizlarga jismoniy va ruhiy salomatlik, muloqot, o‘qishda muvaffaqiyatli ilgarilash, hayotiy va kasbiy o‘z-o‘zini belgilash bilan bog‘liq individual muammolarini hal qilishda preventiv va tezkor yordam ko‘rsatish bo‘yicha faoliyati.

Ikkinchi tarkibiy qism – o‘smir qizlarni o‘qitish va tarbiyalash jarayonini qurishning boshlang‘ich qoidalari va asosiy qoidalari.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi:

1. O‘zligini namoyon qilish tamoyili. Har bir bolada aqliy, kommunikativ, badiiy va jismoniy qobiliyatlarini faollashtirishga ehtiyoj mavjud. O‘smir qizlarning

meni, iqtidor imkoniyatlarini namoyon etish va rivojlantirishga intilishini rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash muhimdir.

2. O‘ziga xoslik tamoyili. O‘smir qiz va o‘qituvchi shaxsining o‘zligini shakllantirish uchun sharoit yaratish ta’lim muassasasining asosiy vazifasidir. Nafaqat o‘quvchi yoki kattalarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, balki ularning keyingi rivojlanishiga har tomonlama yordam berish zarur.

3. Subyektlilik tamoyili. O‘smir qizlarga sinfda va maktabda hayotiy faoliyatning haqiqiy subyekti bo‘lishga yordam berish.

4. Ijodkorlik tamoyili. O‘smir qizlarning ijodkorlik qirralarini rivojlantirishga yordam berish. Ularning iqtidoriga qarab, turli to‘garaklarga yunaltirish.

5. Ishonch va qo‘llab-quvvatlash tamoyili. O‘smir qizlarning ruhiy-emotsional holatini tushunish, qo‘llab-quvvatlash.

O‘smir qizlarning menini rivojlantirish:

– Suhbat asosida;

– Ijodkorligini namoyon etishga sharoit yaratish asosida;

– Bellashuvlar, tanlovlar tashkil etib, iqtidorlilarni rag‘batlantirish asosida;

– O‘zi yoqtirgan mashg‘ulotlarga yo‘naltirish asosida.

Bugun tarbiya-ta’lim bilan birga chambarchas bog‘langan bir sharoitda o‘zmir qizlarni ma’nan yetuk va sog‘lom qilib hayotga tayyorlash katta mas’uliyatni talab qiladi. Bu mas’liyatli vazifani bajarishda sinf rahbarlarida o‘z kasbiga fidoiylik talab qilinadi.

Ma’naviy dunyoqarashning shakllanganligini belgilaydigan mezonlar sifatida axloqiy bilimlar (axloqli bo‘lish nima ekanligini tushunish) – kognitiv daraja; ularga munosabat (bu bilimlar shaxsning ehtiyojlari va motivlariga aylandimi, uning qadriyatli yo‘nalishlari va ko‘rsatmalari tizimiga kirdimi) – hissiy daraja; va axloqiy xulq-atvor (bu munosabatlar shaxs tomonidan aniq xatti-harakatlarda va harakatlarda qanday darajada amalga oshiriladi) – xulq-atvor darajasi hisoblanishi mumkin.

Haqiqiy iqtidorli sinf rahbarida o‘smir qizlarning ma’naviy kuchlarini «Sen uddalaysan!» degan so‘zlar bilan bo‘shashtirish va ochishning ajoyib qobiliyati namoyon bo‘ladi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, o‘qituvchining tarbiyalanuvchi shaxsiga hurmati tarbiyaviy ta’sirlarning ixtiyoriy psixologik qabul qilinishining zarur shartidir. O‘qituvchining to‘liq fidoyiligi – haqiqiy hamkorlikning o‘ziga xos asosidir. Bundan tashqari, tajribali sinf rahbari yaxshi kayfiyat, tetik hissiy ohang shaxsning axloqiy madaniyatining bir qismi ekanligini va sinf jamoasi uchun major ruhi zarurligini biladi. Chunki o‘zaro hurmat, bir-biriga toqatlilik, jamoaning har bir a’zosining yaxshi kayfiyati haqida g‘amxo‘rlik qilish ham jamoani axloqiy tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Tarbiyaviy faoliyatning belgilangan muammolar doirasida o‘smir qizlarning bo‘sh vaqtini tashkil etish bo‘yicha sinf rahbarining ishi muhim ahamiyatga ega.

Bo‘sh vaqt faoliyati, birinchi navbatda, o‘z tabiatiga ko‘ra erkin va bolalar tomonidan o‘yinning tabiiy jarayoni sifatida qabul qilinadi. Bu mutlaqo ixtiyoriy faoliyat va bolalarni bo‘sh vaqt bilan shug‘ullanishga majburlab bo‘lmaydi. Ammo oqilona bo‘sh vaqtga qiziqtirish – bu juda real.

Bo‘sh vaqt faoliyatida o‘smir qizlarning o‘zlari kattalarning tarbiyaviy talablarini o‘zlariga qo‘yadilar, bu esa bo‘sh vaqtni mazmunli tashkil etish, o‘z-o‘zini tarbiyalash mashg‘ulotiga aylantiradi. Bo‘sh vaqt ko‘plab qiziqishlarni amalga oshirish, iqtidorini sinab ko‘rish, tengdoshlar orasida o‘zini tasdiqlash, o‘z shaxsini tan olish.

Bo‘sh vaqt faoliyatida yosh bolalarga xos bo‘lgan «erkinlik refleksi» to‘liq namoyon bo‘ladi. Kattalar va bolalar o‘rtasida pedagogik maqsadga muvofiq o‘zaro ta’sir paydo bo‘ladi: majburlash o‘rniga – ilhomlantirish; ota-onalar, sinf rahbarlari tomonidan zo‘ravonlikning yo‘qligi; bolalar hayoti va faoliyatida asossiz cheklovlar va cheklashlarning yo‘qligi; bolalar va o‘smirlarning ijtimoiy faoliyati va ijodkorligi uchun keng soha va sharoitlarning mavjudligi; bola huquqlarining haqiqiy amalga oshirilishi.

Bo‘sh vaqt faoliyatida o‘qituvchining roli – bu, birinchi navbatda, tashkilotchi, katta do‘stning rolidir. O‘zmir qizlarni vaqtini mazmunli tashkil qilishda milliy o‘yinlar katta ahamiyat kasb etadi.

Buyuk alloma Abdulla Avloniy ta‘kidlaganidek: «Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir». Haqiqatan ham inson saodatga, insoniy fazilatga erishmog‘ida bolalar milliy o‘yinlarining tarbiyaviy ahamiyati katta. Bugungi axborot texnologiyalari farzandlarimiz aql-u shuurini band etgan. Yoshlarni milliy urf-odatlarimiz, an’analarimiz, o‘chmas merosimizga mehr-muhabbat, ularga sodiqlik ruhida tarbiyalay olsak, ularda milliy g‘urur, milliy ong, milliy g‘oya, ma’naviyat, yuksak madaniyat egasi kabi tushunchalarni ularning ongiga singdirsak, marra bizniki bo‘ladi. Chunki tarixni bilmasdan, o‘rganmasdan undan ruhiy, ma’naviy ozuqa olmasdan orzu niyatlarga erishish qiyin. O‘smir qizlarni milliy o‘yinlarga jalb etish – ularning vaqtini to‘g‘ri taqsimlash, jismonan va ruhan tetik bo‘lishlariga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bo‘sh vaqt pedagogikasining shakli sifatida o‘yinga quyidagi funksiyalar xos:
– jamoaviylik;
– ijtimoiylik;
– jismoniy tetiklik.

O‘quvchilarni tarbiyalashda tarbiyaning interfaol metodlaridan foyldalanish sinfda o‘qituvchiga o‘quvchilar bilan do‘stona munosabat o‘rnatish imkonini beradi. Srahbari, uning tarbiyalanuvchilari faoliyatida tarbiyaning yangi shakllari, usullari va vositalarini izlash uzluksiz bo‘lishi kerak, chunki yuqori darajadagi faollik sinf jamoasining tarbiyaviy ishlari muvaffaqiyatli ekanligidan dalolat beradi.

Har bir sinf rahbari o‘smir qizlarning tarbiyasi bilan shug‘ullanadigan chog‘da bolaning ruhiy-emotsional holatini hisobga olishi, bolani menini hurmat qilib, uning iqtidori va iste‘dodini shakllantirishiga qo‘lidan kelgancha yordam berishi zarur.

Fikrlarimizni umumlashtirgan holda, shunday xulosa qilish mumkinki, o‘smir qizlarni ma‘naviy dunyoqarashni shakllantirishda sinf rahbarining o‘rni alohida ahamiyatga ega. O‘smir qizlarni ma’naviy-ruhiy qo‘llab-quvvatlash, menini tarbiyalash, turli jamoat ishlarida o‘z iqtidori va imkoniyatlarini ko‘rsatishga sharoit yaratish, ushbu yo‘nalishdagi ishlarda asosiy bo‘lgan shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida qurilishi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Mirziyoyev Sh.M.Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir// Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. - Toshkent: O‘zbekiston. NMIU, 2018.- B.195-196.

2. Avloniy A. Turkiy guliston yohud axloq. Yoshlar nashriyot uyi, Toshkent, 2018, 28 bet

3. Abbosxo‘jaev O., Umarova N., Qo‘chqorov R. Mafkura poligonlaridagi olishuv. -T.: Akademiya. 2007. - B. 90.

4. Jabborov X.X. Mafkuraviy immunitetni shakllantirishning psixologik mexanizmlari // Zamonaviy ta’lim. -T.: 2016. №5.

5. Jonimatova H. Abu Ali ibn Sino ta’lim - tarbiya to‘g‘risida. - T.: 1980. - B. 32.

6. Juraeva Z. Yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda oilaning o‘rni..Academik Resarch, Uzbekistan.2021. -915. www.ares/uz/.

7. Jo‘raev R., Zunnunov A. Maktab o‘quvchilari ongida milliy istiqlol g‘oyasini shakllantirishning pedagogik asoslari. - T.: Qori Niyoziy nomidagi O‘PFITI. 2007.

# TARBIYA SHAKLLARINI MAKTAB-OILA-MAHALLA HAMKORLIGIDA TASHKIL ETISH MEXANIZMLARI

***L.M.QARAXONOVA,***
*Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti bo'lim mudiri, (PhD) katta ilmiy xodim*

*Pedagogik hamkorlik asosida tarbiyalashning mexanizmlarini takomillashtirish hamda ma'naviy tarbiya ishining samaradorligini baholash – umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiya muammolarini samarali hal etishning muhim sharti hisoblanadi. Jamiyat ma'naviy-axloqiy muhitini takomillashtirishda asosiy tayanch omillar sifatida pedagogik hamkorlik munosabatlarining muhim shakllari: o'qituvchi – o'quvchi – ota-ona, jamoatchilik tashkilotlari – o'quvchi – o'qituvchi, ta'lim muassasalari – o'quvchi – mahalla organlari, mahalla organlari – o'quvchi – ota-onalar kabi faoliyatning mushtarakligini baholash orqali o'quvchilar tarbiyasini ta'minlashda mazkur paradigmalarning ma'naviy hamkorligini ta'minlashni tashkil qilish muhim amaliyot sanaladi.*

***Kalit so'zlar:*** *ta'lim-tarbiya, komil inson tarbiyasi, maktab, mahalla, oilada tarbiyaviy ishlar, ota-onalar va maktab hamkorligi masalalari, o'quv jarayoni, ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, oilaviy qadriyatlar asosida tarbiyalash ishlari, ta'lim muassasalari.*

*Совершенствование механизмов воспитания на основе педагогического сотрудничества и оценка эффективности духовно-просветительской работы является важным условием эффективного решения задач духовно-нравственного воспитания в учреждениях общего среднего образования. Организatsiя обеспечения духовного сотрудничества этих парадигм в обеспечении воспитания обучающихся путем оценки совместной деятельности важных форм отношений педагогического сотрудничества как основных поддерживающих факторов совершенствования духовно-нравственной среды общества: учитель - ученик - родитель, общественные организatsiи - ученик - учитель, образовательные учреждения - ученик - органы самоуправления, органы самоуправления - ученик - родители рассматривается как важная практика.*

***Ключевые слова:*** *образование, воспитание полноценной личности, школа, микрорайон, воспитателная работа в семе, вопросы взаимодействия родителей и школы, образователный процесс, духовно-нравственное воспитание, воспитание на основе семейных ценностей, образователные учреждения.*

*Improving the mechanisms of upbringing on the basis of pedagogical cooperation and assessing the effectiveness of spiritual education work is an important condition for effectively solving the problems of spiritual and moral education in general secondary educational institutions. The organization of ensuring the spiritual cooperation of these*

*paradigms in ensuring the education of students by assessing the joint activities of important forms of pedagogical cooperation relations as the main supporting factors in improving the spiritual and moral environment of society: teacher - student - parent, public organizations - student - teacher, educational institutions - student - neighborhood bodies, neighborhood bodies - student - parents is considered an important practice.*

*Key words: education and upbringing, perfect human upbringing, school, neighborhood, educational work in the family, issues of parents and school cooperation, educational process, moral and moral education, work of education based on family values, educational institutions.*

Yosh avlodni axloqiy, madaniy-ma'rifiy jihatdan yetuk insonlar qilib tarbiyalash ishi birinchi navbatda oiladan boshlanadi. Bu borada barkamol avlodni tarbiyalashda ota-ona, mahalla va ta'lim muassasalarining hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik kabi xislatlar bilan birga diniy va milliy bag'rikenglik, yuksak ma'naviyat egasi hamda boshqa millatlarga nisbatan hurmat bilan qaraydigan, insoniy qadr-qimmatni e'zozlaydigan qilib tarbiyalashda uch asosiy omil – oila, mahalla va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga egadir.

O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, o'z Vatani va xalqiga sodiq fuqaroni shakllantirish bo'yicha maktablarning ota-onalar, oilalar, mahalla qo'mitalari, Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi bo'linmalari, jamoat tashkilotlari va jamg'armalar bilan mustahkam o'zaro hamkorligi amalga oshiriladi.

Bolalarning ma'naviy barkamol va jismoniy sog'lom bo'lishlarida oilaning vazifalari:

– oilada sog'lom ijtimoiy muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olgan holda farzandlarda ota-ona, Vatanga muhabbat g'usini shakllantirish;

– bolalarning qiziqishi, iqtidori va ehtiyojlarini hisobga olgan asbga yo'naltirish;

– ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish, istiqlol g'oyalari va milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;

– bolalarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish va ularning qo'shimcha ta'lim olishlariga shart-sharoit yaratish;

– bolalar ongiga sanitariya-gigienik, ekologik bilim va ko'nikmalarni singdirish, diniy aqidaparastlik, ichkilikbozlik, giyohvandlikka qarshi tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish.

Davlatimiz oilalarni o‘zining olib boradigan siyosati markazida olib qaraydi. Shu sababli imkoniyat doirasida moddiy va ma’naviy yordam berib, oilaviy tarbiyani maktab, jamoatchilik bilan uyg‘unligini ta‘minlashdan manfaatdordir.

Bugungi kunda o‘quvchi ma’naviyatiga qarshi yo‘naltirilgan, bir qarashda arzimas bo‘lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamida globallashuv shiddatidan kuch olib, ko‘zga ko‘rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo‘lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin. Har bir ota-ona o‘z farzandi kamolini ko‘rish uchun uni voyaga yetkazadi, albatta, bu jarayon o‘z-o‘zidan amalga oshmaydi.

Xalqimizda bir naql bor: «Nima eksang, shuni o‘rasan», shu naqlni boshqa talqinda aytib ko‘raylik: «Nima o‘rishni xohlasang, shuni ek». Ota-ona farzandlariga mol-mulk, uy-joy, avtomobil va boshqa qimmatbaho moddiy boyliklarni berishi mumkin, lekin tarbiya, baxtni topib bera oladimi? Bunga o‘zlarining qanday tarbiya ko‘rganlik darajasi bilan erishiladi.

«Ota o‘g‘lini yetaklab ketayotib, o‘g‘lim qadamingni o‘ylab bos deb aytsa, o‘g‘li shunday javob beribdi: ota siz qanday qadam bossangiz men shunday yuraman, chunki men sizga ergashayapman». Bu tarbiyaning ibrat-namuna usuliga misol bo‘la oladi.

Ta’lim-tarbiya masalasi har doim kun tartibidagi masalalardan biri bo‘lib kelgan va shunday vazifa bo‘lib qoladi. Chunki yangi avlodlar tug‘iladi, hayotda kamol topish uchun ta’lim-tarbiyaga ehtiyoj sezadi. Insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag‘rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma’naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir».

Bolalarning ma‘naviy barkamol va jismoniy sog‘lom bo‘lishlarida oilaning vazifalari:

– oilada sog‘lom ijtimoiy muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olgan holda farzandlarda ota-ona, Vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantirish;

– bolalarning qiziqishi, iqtidori va ehtiyojlarini hisobga olgan holda kasbga yo‘naltirish;

– ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, istiqlol g‘oyalari va milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;

– bolalarning bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri tashkil etish va ularning qo‘shimcha

ta'lim olishlariga shart-sharoit yaratish;

– bolalar ongiga sanitariya-gigienik, ekologik bilim va ko'nikmalarni singdirish, diniy aqidaparastlik, ichkilikbozlik, giyohvandlikka qarshi tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish.

Mahallaning vazifalari:

– ta'lim muassasalari bilan birgalikda ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirilishi kerak bo'lgan masalalarni muhokama qilishda qatnashib, oqilona yechimlar topishda faollik ko'rsatish;

– farzandlari tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmaydigan ota-onalarni mahalla yig'inlarida muhokama qilish, ularga jamoatchilik ta'sirini o'tkazish, lozim hollarda bunday ota-onalar bilan tegishli profilaktik tadbirlarni belgilash maqsadida mahalla faollarini biriktirish yoki qonun doirasida boshqa choralar ko'rish;

– yoshlar diniy mazhablar va sektalar, aqidaparastlikning salbiy ta'sirini to'g'ri anglab yetishida ularga ota-onalar orqali ta'sir ko'rsatish, ulug' ajdodlarimizning tarbiyaviy o'gitlarini singdirib borishga keng jamoatchilikni safarbar qilish;

– mahalla hududidagi notinch oilalarni aniqlash va ularda sodir etilishi mumkin bo'lgan kelishmovchilik va nizolarning oldini olish.

Oila, mahalla, ta'lim muassasalari hamkorligida quyidagi tamoyillar va bosqichlarga amal qilinganda samaradorlik yanada yuqori bo'ladi:

– ta'lim va tarbiya jarayonida hamkorlik harakatlarining ish birligi;

– tarbiyalanuvchiga hurmat va talabning uyg'unligi;

– hamkorlik jarayoni sub'ektlarining teng huquqligi va yuksak mas'uliyatliligi;

– faoliyat jarayonida millat va davlat manfaatlari ustuvorligi;

– hamkorlik ishlarining ilmiyligi.

Hamkorlik ishlari quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqich. Yosh oilalar bilan ishlash. Yosh ota-onalarga farzand va uning tarbiyasi haqida pedagogik, tibbiy tushunchalar berish va bu tadbirlarga tibbiyot xodimlari, ibratli oilalarni jalb qilish (yosh oilalarning oilaviy sharoitlarini o'rganib chiqish va doimo ma'naviy tomondan qo'llabquvvatlash).

Ikkinchi bosqich. Farzandning maktabgacha bo'lgan davridagi jismoniy, aqliy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash borasida ularga rasm chizish, voqealarni bayon qilish, o'ziga o'zi xizmat qilish, qo'shiq va raqsga tushish, mustaqil ravishda bilim olish, maktabga tayyorlash guruhlari, «Yakshanbalik maktablari» ishini tashkil qilish.

Uchinchi bosqich. Kichik yoshdagi (6-11 yosh) maktab davrida bolalarning jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy shakllanishini ta'minlash, ularning ilk iqtidori,

qiziqishi va aqliy imkoniyatlarini aniqlash, ularda o‘z xatti-harakatlariga javobgarlik hissini tarbiyalash, bo‘sh vaqtini to‘g‘ri tashkil qilishni o‘rgatish, atrof-muhitga ongli munosabat, vatanlarvarlikni shakllantirish.

To‘rtinchi bosqich. O‘smirlarning (11-16 yosh) qiziqishi, bilimga chanqoqligi va aqlzakovatini hisobga olgan holda ijtimoiy faoliyatga tortish, jismonan baquvvat bo‘lishini ta’minlash, turli kasblarga yo‘naltirish, jamoatchilik orasida o‘z o‘rnini topa olishiga ko‘maklashish, o‘z xatti-harakatlari uchun qonun, jamoatchilik va ota-ona oldida javobgarlik tuyg‘usini shakllantirish.

Beshinchi bosqich. Yoshlarni (16 yosh va undan yuqori) dunyo andozalariga mos bilim olishlari, kasb tanlashlari, ta’lim olishlari, tanlagan kasb bo‘yicha ish bilan ta‘minlash, iqtisodiy mustaqil bo‘lishlari uchun shart-sharoit yaratish. Vatan, davlat oldidagi fuqarolik burchlarini ado etish, mustaqil oila qurishda yo‘llanmalar berish. Shuningdek, bu borada Jamoat kengashi a‘zolari oldida ham qator vazifalar mavjud.

Yurtimiz hududlardan, hududlar tumanlardan, tumanlar mahallalardan, mahallalarimiz oilalardan, oilalarimiz ota-ona, farzandlardan iborat. Demak, avvalo har bir ota-onaning mafkurasi mustahkam bo‘lsa, oila, tuman, shahar, hududlar, ya’ni xalqning mafkurasi mustahkam bo‘ladi.

Xalqaro maydonda mafkuraviy, g‘oyaviy va informatsion kurashlar kuchayib borayotgan hozirgi murakkab va tahlikali davrda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, yoshlarimizni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, yurtdoshlarimizning hayotga ongli munosabatini shakllantirish, yon-atrofda yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish asosiy vazifamizdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz... - T.: «Ma’naviyat», 2013.

2. Shodmonova Sh., Xoshimova M., Fayzullaeva N. Tarbiyaviy ishlar uslubiyati. O‘quv qo‘llanma. - T.: TDIU, 2007.

3. L.M.Qaraxanova. Oila – farzand tarbiyasida asosiy mas’uliyat bug‘inidir // Raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim oluvchilarni kasbga yunaltirish: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. - Toshkent sh. 2024 10-dekabr. - B. 143-147.

4. L.M.Qaraxanova. Tarbiyani samarali tashkil etishda maktab, oila va mahalla hamkorligi// «Markaziy Osiyo ayollarining tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishda gender tenglik tamoyili» xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2024-yil 10-oktabr. - B. 75-76.

# DUAL TA'LIM SHAROITIDA INNOVATSION RAHBARLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

**S.YU.ASHUROVA,**
p.f.d.,professor,
**N.R.SIROJIDDINOVA**
p.f.b.f.d(PhD) Professional ta'limni rivojlantirish instituti

*Ushbu maqolada jamiyatning innovatsion rivojlanishiga asoslangan ta'lim muassasalarida liderlik madaniyatini shakllantirish tahlili keltirilgan. Dual ta'lim sharoitida innovatsion yeliderlik madaniyatini shakllantirishning samarali mexanizmlari ham keng tahlil qilinmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimidagi islohotlar va ilg'or xorijiy tajribalar asosida raxbarlarlarning faoliyatiga innovatsion madaniyatni joriy etish yo'llari ko'rib chiqilgan. Natijalar asosida innovatsion liderlik madaniyatini shakllantirishning asosiy mexanizmlari (hamkorlik, malaka oshirish, rag'batlantirish va boshqalar.) , ularning har biri uchun amalga oshirish usullari, ta'sir doirasi va kutilayotgan natijalar aniqlandi.*

***Kalit so'zlar:*** *dual ta'lim, innovasion rahbarlik, boshqaruv madaniyati, maktabgacha ta'lim,liderlik kompetensiyasi, xalqaro tajriba, hamkorlik.*

*В данной статье представлен анализ формирования культуры лидерства в образовательных учреждений основанного на инновatsionном развитии общества. Также широко проанализированы эффективные механизмы формирования культуры инновatsionного руководства в условиях дуального обучения. На основе реформ натsиональный системы дошкольного образования и передового зарубежного опыта рассмотрены пути внедрения инновatsionной культуры в деятельность руководителей. По результатам определены ключевые механизмы формирования инновatsionной культуры лидерства (сотрудничество, повышение квалификатsии, стимулирование и др.), для каждого из которых раскрыты методы реализатsии, сфера влияния и ожидаемые результаты.*

***Ключевые слова:*** *дуальное обучение, инновационное руководство, культура управления, дошкольное образование, лидерская компетентность, международный опыт, сотрудничество.*

*This article presents an analysis of the formation of a leadership culture in educational institutions based on the innovative development of society. Effective mechanisms for the formation of a culture of innovative leadership in the context of dual education are also widely analyzed. Based on the reforms of the national preschool education system and advanced foreign experience, the ways of introducing an innovative culture into the activities of managers are considered. Based on the results, key mechanisms for the formation of an innovative leadership culture (cooperation, professional development, incentives, etc.) have been identified, for each of which implementation methods, sphere of influence, and expected results have been revealed.*

***Key words:*** *dual education, innovative leadership, management culture, preschool education, leadership competence, international experience, cooperation.*

Mamlakatimiz maktabgacha ta'lim tizimida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida rahbarlik faoliyatiga yangi talablar qo'yilmoqda. Jumladan, professional ta'lim tizimida "dual ta'lim" modeli joriy etilib, 2021-2022 o'quv yilidan boshlab maktabgacha ta'lim, temir yo'l, qurilish kabi sohalar bo'yicha o'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlash uchun 3 mingdan ortiq yoshlar dual ta'lim shaklida o'qishga qabul qilindi. Dual ta'lim – bu o'quvchi nazariy ta'limni ta'lim muassasasida olishi barobarida, ish joyida amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'minlovchi o'quv-ishlab chiqarish hamkorlik shaklidir. Maktabgacha ta'lim yo'nalishida kadrlar tayyorlashda dual tizimni joriy etish borasida mamlakatimizda konkret mexanizmlar ishlab chiqilmoqda. Tabiiyki, bunday shart-sharoitda maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlari faoliyati ham yangicha mazmun kasb etmoqda – ular nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonini, balki yosh kadrlarni ish o'rnida o'rgatish va innovatsiyalarga o'rgatish jarayonini ham boshqarishga mas'uldirlar.

Mutaxassislar fikricha, zamonaviy boshqaruv madaniyati imkoni boricha innovatsion loyihalarni joriy etishga qaratilgan bo'lishi lozim. Shu sababli, dual ta'lim sharoitida maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarida innovatsion rahbarlik madaniyatini shakllantirish masalasi ayni paytda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, innovatsion liderlikni qaror toptirish ta'lim muassasasiga zamon talablariga mos o'sish va raqobatbardoshlikni ta'minlaydi. Masalan, Indoneziya tadqiqotchilari ta'kidlashicha, innovatsion rahbarlik – bu ta'lim muassasasida yangi g'oyalarni amalga oshirish uchun inklyuziv innovatsiya madaniyatini barpo etib, barcha xodimlarning ijodiy faolligini rag'batlantiradigan yetakchilik turidir. Innovatsion lider o'z jamoasini kelajakka ilhomlantirib, yangilikka intilish uchun strategik yo'nalish beradi. Kelgusida maktabgacha ta'lim muassasalarida shunday innovatsion rahbarlik madaniyatini shakllantirish mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslash bugungi tadqiqotning maqsadidir.

Ushbu tadqiqotda innovatsion rahbarlik madaniyatini o'rganish uchun sifatli (qualitative) tadqiqot yondashuvi qo'llanildi. Birinchidan, mavzuga doir ilmiy manbalar, xususan, Scopus va Elsevier tahliliy ma'lumotlar bazalaridagi ilmiy maqolalar hamda mintaqaviy (MDH) tadqiqotlar o'rganildi. Adabiyotlar tahlili orqali mazkur muammoning nazariy asoslari va xalqaro tajribalar haqida ma'lumotlar to'plandi. Xususan, ta'lim menejmenti va liderlik bo'yicha pedagogik va boshqaruv adabiyotlaridagi qarashlar, konsepsiyalar tahlil etilib, «innovatsion rahbarlik madaniyati»ning mazmunini ochib berishga harakat qilindi. Ikkinchidan, empirik ma'lumotlar to'plash maqsadida maktabgacha ta'lim tizimi rahbar va pedagog xodimlari o'rtasida sotsiologik so'rov o'tkazildi. So'rovnoma savollari asosan rahbarlik uslubi, tashkilotdagi innovatsion muhit, xodimlarni yangilikka undovchi omillar va to'siqlarga qaratildi. Umumiy hisobda respublika

boʻyicha turli hududlardagi 30 ta davlat va xususiy maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlari hamda metodist, tarbiyachi kabi 120 nafar xodimlar ishtirok etdi. Soʻrov natijalari rahbariyat tomonidan innovatsiyalarni joriy etish holati va muammolarini aniqlash imkonini berdi. Shuningdek, bir nechta muassasa rahbarlari bilan yarim-strukturalashgan intervyular oʻtkazilib, ularning fikr va tajribalari umumlashtirildi. Uchinchidan, mahalliy institutsional loyihalar va rasmiy hisobotlar tahlil qilindi. Maktabgacha ta'lim vazirligi hamda hududiy boʻlimlar tomonidan oxirgi yillarda amalga oshirilgan innovatsion loyihalar (masalan, bolalar bogʻchalarida zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish boʻyicha pilot dasturlar) hujjatlari oʻrganildi. Bunda rahbarlarning malaka oshirishi, xorijiy tajriba almashinuvlari, ragʻbatlantirish tizimiga oid ma'lumotlar olindi.

Muhokama. Natijalardan koʻrinishicha, innovatsion rahbarlik madaniyatini shakllantirish bir necha oʻzaro bogʻliq yoʻnalishlarni qamrab oladi. Birinchi mexanizm – hamkorlik mexanizmi – dual ta'limning asosi sifatida ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish subyektlari oʻrtasidagi uzviy aloqani nazarda tutadi. Bizning holatda bu maktabgacha ta'lim muassasalari va pedagog kadrlar tayyorlovchi kollej/universitetlar hamkorligida namoyon boʻladi. Soʻrov natijalari bu sohada hali toʻliq tizim shakllanmaganini koʻrsatsa-da, Germaniya kabi mamlakatlar tajribasi samarali hamkorliksiz innovatsion maqsadlarga erishib boʻlmasligini koʻrsatdi. Hamkorlik mexanizmi rahbarlardan ochiqlik va tashabbuskorlikni talab qiladi - masalan, bolalar bogʻchasi mudirasi tayanch kollej bilan doimiy aloqada boʻlib, oʻquvchilar amaliyotini muvofiqlashtirishi, bogʻcha tomonidan biriktirilgan ustoz faoliyatini qoʻllab-quvvatlashi kerak. Hamkorlikni ta'minlash uchun aniq reglament va shartnomaviy baza zarur (buning huquqiy asoslari yurtimizda shakllantiril-moqda). Muhokamalar davomida ma'lum boʻldiki, ayrim rahbarlar bunday hamkorlikka tayyor emas yoki bunga vaqt ajrata olmayotgan ekan. Shuning uchun hamkorlik mexanizmidan kutilayotgan natija – nazariya va amaliyotning uygʻunlashuvi, kadrlar tayyorlash sifati oshishi – toʻla namoyon boʻlishi uchun rahbar kadrlarni maxsus oʻqitish lozim.

Malaka oshirish mexanizmi bu borada hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tadqiqot davomida aniqlandiki, innovatsion rahbarlik uchun zarur kompetensiyalarni hamma rahbar ham birday egallamagan. Koʻpgina mudiralar zamonaviy menejment va liderlik boʻyicha yangilangan bilimlarga muhtoj. Shuningdek, tarbiyachilardan yetakchi boʻlib yetishib chiqadigan yosh kadrlarni aniqlab, ularni oʻqitish ham muhim. Xalqaro tajribada (masalan, Yaponiyada) doimiy malaka oshirish orqali rahbarlar muvaffaqiyatli innovatsiya tashabbuskoriga aylanayotgani kuzatiladi. Bizning soʻrovda ham rahbarlarning 78%i har yili hech boʻlmaganda bir marta kasbiy rivojlanish kurslarida qatnashishni istashini bildirgan. Bu esa tizimli qayta tayyorlashga boʻlgan talabni koʻrsatadi. Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, innovatsion liderlikning yuzaga kelishi

uchun tashkilotda uzluksiz o‘rganish va tajriba almashish muhiti bo‘lishi muhim (Harris va boshq., 2022). Demak, malaka oshirish mexanizmi orqali nainki rahbarlar, balki butun jamoa «o‘quvchi tashkilot» (learning organization)ga aylanishi, ya‘ni birgalikda o‘rganish va o‘sish madaniyati qaror topishi zarur.

Keyingi o‘rinda rag‘batlantirish mexanizmi turibdi. Yangiliklarni joriy etish faqat buyruq-bajaruq tartibida bo‘lishi qiyin, aksincha, xodimlarni ilhomlantirish va rag‘batlantirish orqali tezroq samara beradi. So‘rov ishtirokchilarining aksariyati shu fikrni bildirishdiki, agar innovatsion g‘oyalar uchun ma’lum bir tanlov yoki mukofot tizimi bo‘lsa, xodimlarda faollik keskin oshishi mumkin. Xalqaro tajribada ma’lumki, innovatsiyani rag‘batlantirishning moddiy (masalan, bonus, grant) va ma’naviy (olqishlash, e’tirof etish) turlari birgalikda qo‘llanilganda yaxshiroq natija beradi. Masalan, Singapur ta’lim tizimida har yili «Innovative Teacher Award» berilib, bu nafaqat g‘olibga, balki barcha pedagoglarga ilhom bag‘ishlaydi. Bizning shart-sharoitda ham maktabgacha ta’lim tizimi rahbar va tarbiyachilari uchun shu kabi tanlovlar tashkil etilmoqda (bunga misol sifatida «Lider tarbiyachi» ko‘rik-tanlovini keltirish mumkin). Ammo ularning ko‘lami va qamrovi hali cheklangan. Shu bois rag‘batlantirish mexanizmini institutsional darajada (vazirlik va mahalliy boshqarmalar tomonidan) joriy qilish, innovatsion tajribalarni ommalashtirish zarur. Bu xodimlarda «mening g‘oyam ham qo‘llab-quvvatlanar ekan» degan ishonchni uyg‘otadi va jamoada ijobiy innovatsion raqobatni kuchaytiradi.

To‘rtinchi mexanizm – ta’lim muhitini transformatsiya qilish, ya’ni tashkilot ichki madaniyatini shunday shakllantirish kerakki, har bir xodim o‘zini jamoaning faol va qimmatli a’zosi sifatida his etsin. Muhokama davomida intervyu berilgan rahbarlardan biri shunday dedi: «Muassasamda shunday muhit yaratmoqchimanki, har bir tarbiyachi o‘zini lider deb bilsin va biror yangilik taklif etishdan cho‘chimasin». Darhaqiqat, tashkilot madaniyati shunday bo‘lsa, innovatsion g‘oyalar faqat rahbardan emas, har bir xodimdan chiqaveradi. Bu – «taqsimlashgan liderlik»ning amaldagi ko‘rinishidir. Blum va Bella (2005) ta’kidlashicha, bolalar bog‘chalarida kuchli liderlik nafaqat direktor, balki barcha darajalarda namoyon bo‘lishi lozim, shundagina bolalar tarbiyasi sifati ortadi. Bizning tadqiqotimiz natijalari ham shuni ko‘rsatadiki, agar tarbiyachilar va metodistlar qaror qabul qilish va yangilikka oid masalalarda ishtirok etsa, ular o‘zlarini tashkilot taraqqiyoti uchun mas’ul deb bilishlari oshadi. Shu bois rahbarga maslahat kengashlari, jamoa yig‘ilishlarida barchaga so‘z berish kabi usullar orqali kichik yetakchilarni yetishtirish tavsiya etiladi. Bunda, albatta, rahbarning o‘zi katta namuna bo‘ladi – uning ochiqligi, tanqidni tinglay olishi, xatolardan qo‘rqmasdan tajriba qilishga tayyorligi haqiqiy innovatsion madaniyatni shakllantiradi. Zero, «innovatsiya lideri bilan izquvar o‘rtasidagi farqni belgilaydi» degan mashhur naql bejiz emas.

Nixoyat, modellash va strategiya mexanizmi innovatsion rahbarlik madaniyatining barqarorligi uchun javob beradi. Agar boshqaruvda aniq strategik reja va

model bo‘lmasa, yangiliklar tasodifiy va tarqoq xarakterga ega bo‘lib qolishi mumkin. Tadqiqot davomida ma’lum bo‘ldiki, ko‘plab rahbarlar innovatsiyalarni joriy etishga harakat qilsa-da, ularning strategik rejasi yo‘q. Masalan, so‘rovda qatnashgan mudiralarning 52%i muassasasining kelgusi 3 yillik rivojlanish rejasida «innovatsiya»ga oid bandlar yo‘qligini ma’lum qildi. Shuning uchun ular kelajakda qaysi yo‘nalishda va qanday yangiliklar joriy etish haqida biroz muammoga duch kelishlari mumkin. Nazariy jihatdan olib qaralsa, strategik boshqaruv va innovatsion liderlik bir-biriga uyg‘unlashganda keng qamrovli o‘zgarishlarga erishish osonlashadi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti uchun innovatsion strategiya kam hajmda bo‘lsa-da, mavjud bo‘lishi kerak – u rahbariyatga yo‘nalish beradi, resurslarni to‘g‘ri taqsimlashga xizmat qiladi va eng muhimi, innovatsiya jarayonini tizimli boshqarishga imkon yaratadi. Shuning uchun maqolamizda taklif etilgan mexanizmlarning barchasi bir-biriga bog‘liq holda amalga oshirilishi zarur: hamkorlik va malaka oshirish innovatsion g‘oyalarning paydo bo‘lishini rag‘batlantirsa, rag‘batlantirish va transformatsiya esa bu g‘oyalarning sinovdan o‘tishi va jamoa tomonidan qabul qilinishiga yordam beradi; bularning barchasi esa strategik model asosida integratsiyalanishi kerak. Faqat shundagina innovatsion rahbarlik madaniyati izchil va uzoq muddatli bo‘ladi. Yuqoridagi mulohazalar mahalliy va xalqaro manbalar tahlili bilan ham muvofiqdir. Xususan, Indoneziyalik tadqiqotchi Djoko Hartono (2020) ta’kidlaganidek, innovatsion liderlik mavjud bo‘lmasa, ta‘lim muassasasi o‘z maqsadlaridan ko‘z yumib, tang holatga tushib qolishi mumkin, ammo innovatsiya-larni rag‘batlantiruvchi liderlik bilan maktab dinamik, moslashuvchan va kelgusi choralarga tayyor bo‘ladi. Demak, innovatsion madaniyat – tashkilotni muvaffaqiyat sari yetaklovchi kuchli vosita hisoblanadi.

Dual ta’lim sharoitida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida innovatsion rahbarlik madaniyatini shakllantirish – zamon talabi va ta’lim samaradorligini oshirishning muhim shartidir. Ushbu tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Rahbar kadrlarning innovatsion malakasini oshirish: Maktabgacha ta’lim muassasalari mudiralari va ularning o‘rinbosarlari uchun yil davomida maxsus trening va seminarlar tizimini yo‘lga qo‘yish lozim. Bu treninglar innovatsion menejment, yetakchilik psixologiyasi, o‘zgarishlarni boshqarish kabi mavzularni qamrab olsin. Shuningdek, ularning xorijiy tajriba almashuvlarida ishtirok etishiga shart-sharoit yaratish tavsiya etiladi.

2. Har bir muassasada «innovatsiya guruhi»ni tashkil etish: Bog‘cha jamoasida ixtiyoriy asosda yangi g‘oyalar ustida ishlaydigan kichik guruhlar tuzilsin. Bu guruhlar tarbiyachilar, metodistlar va hatto ota-onalar vakillarini qamrab olgan holda, muassasa faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi. Rahbar bu guruh faoliyatini qo‘llab-quvvatlab, takliflarni amalga oshirishga ko‘maklashishi zarur.

3. Dual ta’lim hamkorligini institutsionallashtirish: Pedagog kadrlar tayyorlovchi muassasalar (kollej va universitetlar) bilan bog‘chalar o‘rtasida uzoq muddatli

hamkorlik memorandumlari imzolanib, hamkorlik chora-tadbirlari rejasi tuzilsin. Masalan, yillik asosda bog‘cha bazasida amaliyot o‘tayotgan talabalar uchun ustozlik (mentorlik) dasturi hamda amaliy seminarlar joriy etilishi lozim. Bu rahbarlarga ham yosh kadrlar bilan ishlash ko‘nikmasini beradi.

4. Innovatsion tashabbuslarni rag‘batlantirish tizimini yaratish: Maktabgacha ta’lim tizimida har yili innovatsion loyihalar tanlovini tashkil etish taklif etiladi. Unda bog‘chalar jamoalari o‘z yangicha loyiha va g‘oyalari bilan qatnashadi. Eng yaxshi loyihalar vazirlik darajasida taqdirlanib, boshqa muassasalarga tatbiq etish uchun tavsiya etiladi. Shu orqali tizimda sog‘lom raqobat va hamkorlik muhiti shakllanadi.

5. Moddiy-texnik baza va axborot texnologiyalarini modernizatsiya qilish: Rahbarlik madaniyati innovatsion bo‘lishi uchun muassasaning infratuzilmaviy jihatdan ham zamonaviylashgan bo‘lishi kerak. Shu sabab, bog‘chalarda menedjmentning elektron axborot tizimlarini joriy etish, pedagoglar uchun elektron resurslar bazasini yaratish lozim. Bu rahbariyatga tezkor ma’lumot asosida qaror qabul qilish imkoniyatini beradi hamda innovatsion boshqaruvni yengillashtiradi.

Innovatsion rahbarlik madaniyatini shakllantirish uzoq muddatli jarayon bo‘lib, uni amalga oshirish uchun rahbarlardan tashabbus, izchillik va hamkorlikka tayyorlik talab etiladi. Dual ta‘lim sharoitida bu jarayon yanada dolzarb, chunki ta’lim muassasasi rahbari endi ikki tizim kesishuvida – ta’lim va amaliyot chegarasida – faoliyat yuritadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion madaniyatni qaror toptirish mexanizmlari samarali ishlasa, maktabgacha ta’lim sifati va muassasa boshqaruvi sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilishi mumkin. Maqolada bayon qilingan xulosa va tavsiyalar maktabgacha ta’lim sohasida rahbarlik salohiyatini oshirish va innovatsiyalarni kuchaytirishga qaratilgan bo‘lib, ularni amaliyotga tatbiq etish orqali sohada yangicha boshqaruv madaniyatini shakllantirish mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, yosh avlodning barkamol ta’lim-tarbiya olishi uchun mustahkam asos yaratadi.

**Foydalangan adabiyotlar:**

1. Митин А.Н Культура управление: учеб.пособ// Урал. акад.гос.службы -Екатеринбург 2015-526 с

2. Alimov O.K. «Korxona boshqaruvchilarida liderlik xususiyatlarini shakllantirish va rivojlantirish» …. Iqt.fanlari nomzodi disc., 2009 й

3. Rashidova N.R Professional ta’lim faoliyati samaradorligida pedagog kadrlarda jamoaviy liderlik kompetentligining ahamiyati// Ta’lim, fan va innovatsiya. Ma’naviy-ma’rifiy ilmiy amaliy jurnal № 2/ Toshkent 2023. - B. 84-86

4. Емельянов, С. М. Управление конфликтами в организации: учебник и практикум для академического бакалавриата / С. М. Емельянов. - 2-е изд., испр. и доп. - М. : Издательство Юрайт, 2019. - 219 с.

5. Кларин, М. В. Корпоративный тренинг, наставничество, коучинг : учеб. пособие для бакалавриата и магистратуры / М. В. Кларин. - М. : Издательство Юрайт, 2019. - 288 с.

# TA'LIM-TARBIYA TIZIMIDA RAHBARLIK VA PEDAGOGIK BOSHQARUV QOBILIYATINING SHAKLLANISHI

**D.I.XODJAKULOVA,**
TTYSI dotsenti
**Q.N. MA'RUFJONOV,**
TTYSI magistranti

*Ushbu maqolada ta'lim-tarbiya tizimiga rahbarlik va pedagogik boshqaruv qobiliyatining shakllantish haqida so'z boradi. Pedagogik boshqaruv qobiliyatining rivojlanishi rahbarning shaxsiy fazilatlari, kasbiy malakasi va innovatsion yondashuvlariga bog'liq bo'lib, u ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.*

***Tayanch so'zlar:*** *pedagogik boshqaruv, boshqarish mahorati, strategiya, taktika.*

*В данной статье речь идет о формировании способностей лидера и педагогического управления системой образования. Развитие педагогических управленческих способностей зависит от личностных качеств, профессиональных навыков и инновационных подходов руководителя, что напрямую влияет на качество образования.*

***Ключевые слова:*** *педагогический менеджмент, управленческие навыки, стратегия, тактика.*

*This article discusses the development of leadership skills and pedagogical management of the education system. The development of pedagogical management skills depends on the personal qualities, professional skills and innovative approaches of the leader, which directly affects the quality of education.*

***Key words:*** *pedagogical management, management skills, strategy, tactics.*

Hozirgi davrda ma'naviy boshqaruv g'oyat katta ahamiyatga ega. Bu shakldagi boshqarish umumiy ta'lim maktablari, maktabgacha, maktabdan tashqari bolalar muassasalari, xalq ta'limi, o'rta maxsus kasb hunar ta'limi va oliy o'quv yurtlari, pedagogik kadrlar malakasini oshirish institutlarini boshqarishni, fan, adabiyot, san'at, madaniyat, sog'liqni saqlash kabi sohalarni boshqarishni o'z ichiga oladi.

Pedagogik boshqaruvga xodimlarning malakasi, qobiliyati, qiziqishlarni hisobga olgan holda ularni to'g'ri tanlash va joy-joyiga qo'yish, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishda qo'llanilayotgan usullar tizimini uzluksiz takomillashtirish va ta'lim tarbiya, jarayoniga texnika vositalarini joriy etish masalalari kiradi. Ta'limda boshqarish bu – boshqaruvchining – o'qituvchining mavjud imkoniyatlari (fan yuzasidan mavjud bilimlari, egallagan turli o'qitish uslublari, o'quv vosita va qurollari, pedagogik mahorati) asosida talaba – o'quv-chida kerakli (zarur bo'lgan) bilim, ko'nikma va malakalarni qo'yilgan maqsadga mos shakllantirish jarayonidir.

Albatta ta’limni boshqarishni turli yo‘llar bilan amalga oshirish mumkin. Ayniqsa hozirgi paytda ta’lim-tarbiya jarayonini boshqarishga turli ilg‘or pedagogik texnologiyalar qo‘llanilib kelinmoqda.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirilgan bosh maqsad va pirovard natija har jihatdan barkamol avlodni tarbiyalash, XXI asrning erkin fikrli, o‘z vatani va xalqini manfaatlariga sadoqatli yorqin shaxslarni voyaga etkazishda namoyon bo‘ladi. Ta’lim oldiga qo‘yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish ta’lim tizimini boshqarish va unga rahbarlik qilish faoliyatining saviyasiga bog‘liq.

Boshqaruv keng ma’noda zarur natijalarni qo‘lga kiritish maqsadidagi qandaydir tizimning (moddiy-narsa, ijtimoiy) holatini boshqarishni ifodalaydi. Boshqaruvning asosini belgilovchi narsa natija hisoblanadi. Psixologiyada natijaga olib keladigan faoliyat elementi maqsad deb nomlanadi.

Shu bois uzluksiz ta’lim tizimi muassasalari pedagogik jamoasini boshqarish ikki maqsadga tayanadi. Ulardan biri o‘quv-tarbiya, o‘quv ishlab chiqarish jarayoni, ikkinchisi ta’lim muassasasi jamoasi a’zolarining shaxsiy ehtiyoji va manfaatlarini qondirishdan iborat.Ular birgalashib ta’lim muassasasi ichki boshqaruvining maqsadli funksiyalarini hosil qiladi. Birinchi funksiya – ishlab chiqarish funksiyasi bo‘lib, unga o‘quvchi, talabalarga ta’lim-tarbya berish, ularni hayotga tayyorlash bo‘yicha buyurtmalarni bajarish kiradi. Ikkinchidan, ijtimoiy funksiya: pedagoglar-ning manfaatlarini aniqlash, moddiy va ma’naviy talablarini qondirib borish uchun ishda qulay shart-sharoitlar yaratish, pedagogik jamoada mehnat qilish uchun ijobiy mikroiqlim, ko‘tarinki kayfiyat hosil qiluvchi sharoitlarni shakllantirishdan iboratdir.

Pedagogik jamoalardagi boshqaruvning maqsadi pedagogik jamoa a’zolarining samarali ishlashlari uchun sog‘lom ijtimoiy psixologik holat va xususiyatlarni shakllantirish bilan belgilanadi. Pedagogik jamoani boshqarishning ijtimoiy psixologik funksiysi ham bir necha tarkibiy qismlarga ega: jipislashtirish, faollashtirish, takomillashtirish, o‘zini o‘zi boshqarish.

Ta’lim muassasasidagi pedagogik jamoani boshqaruvchi yoki rahbarlik qiluvch shaxs unga bog‘liq psixologik muammolarni tahlil qila olishi va bilimlarga ega bo‘lishi muhim.

Insonni boshqarish mahorati – murakkab jarayoh bo‘lib, bir qator diagnostika usullarini, xodimlarni baholash va turli tipdagi odamlar bilan aloqaga kirish, hamda turli xarakterdagi insonlar guruhlari bilan munosabatda bo‘lish, axborot va ma’lumotlar bilan ishlash, tahlil qilish, modellashtirish, shaxs va jamoaga ta’sir o‘tkazish, ishchan munosabatlarni shakllantirish, so‘rovlar o‘tkazish, suhbat-

doshni tinglash san‘ati, «qaytma aloqalar» ko‘nikmasi va pirovard holatda to‘g‘ri qarorlar qabul qilish malakasini egallash va olingan bilimlarni amaliyotda va muammolarni hal etishda qo‘llashni o‘rganashdan iboratdir.

Rahbar oddiy shaxs bo‘lmasligi, ayniqsa muloqot, ishontirish, suhbatlashish san’atini mohirona egallashi, o‘tkir o‘ziga xos aqlga va hayot va bilimning barcha sohalarida salmoqli tajribaga ega bo‘lishi zarur. Har qanday rahbar birinchi navbatda kishilar bilan ishlaydi va u inson tafakkurining barcha nozik jihatlarini bilishi hamda keng ijtimoiy insonni o‘rganishga oid bilimlarga ega bo‘lishi lozim.

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda, uning obyektiv va subyektiv holatlaridan kelib chiqqan holda RAHBAR kadrlarning boshqaruv jarayonini tahlil qilish, modellashtirish, ishchan muloqotni ta’minlash, majlislar o‘tkazish malakasini yuksaltirish, shaxs va jamoga ta’sir etish usullarini egallash, ishontirish va o‘ziga jalb etish usullarini o‘zlashtirish, boshqaruv qarorlarini maqsadli ravishda qabul qilish, shuningdek, jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyalaridan foydalanish, etakchi sifatida o‘zining boshqaruvchilik imijini namoyish etish talab etilmoqda.

Konfutsiy ikki yarim ming yil avval «Yaxshi boshqariladigan davlatda kambag‘allikdan uyaladilar. Yomon boshqariladigan davlatda boylikdan or qiladilar» deb yozgan edi. Bir so‘z bilan aytganda samarali boshqaruv uchun uning nazariy asoslarini bilish, amaliy tajribaga ega bo‘lish va nazariya hamda amaliyotdan ijodiy foydalana bilish ya‘ni boshqaruv mahoratini egallash bilan xarakterlanadi:

– rahbarlik qilish qobiliyati;
– o‘rgatish malakasi;
– guruhiy ishlarni yo‘lga qo‘yish ko‘nikmasi;
– boshqaruv qarorlarini qabul qilish malakasi va boshqalar.

Boshqaruvchilik faoliyatidagi maqsadni tashkil etuvchi ko‘rsatkichlarni o‘rganish rahbarning eng muhim, tasniflarini aniqlashni hamda o‘zini yanada takomillashtirish va rivojlantirish talab etuvchi ko‘rsatkichlarni belgilashga yordam beradi.

Boshqaruv jarayonida rahbarlar tomonidan olib borilgan ish faoliyati tahlili va turli tadqiqotlar davomida olingan ma’lumotlarga ko‘ra, rahbar faoliyatining muvaffaqiyati uning shaxsiy sifatlari, odamlar bilan muloqot olib borish ko‘nikmasi va o‘zaro munosabatlar tizimini yaratish, rahbarlikning optimal usulini ishlab chiqish bilan belgilanadi. Istalgan faoliyat uslublarining hamohangligi ta’minlash, uning talablari o‘zini-o‘zi boshqarish asosida erishiladi. Bular asosida rahbar, na faqat o‘zining boshqaruvchilik uslublarini egallashga, balki ularda o‘zining strategiyasi, taktikasi, texnikasi (texnologiya) va mahoratini belgilaydi va ularning

o‘zaro uyg‘unligini ta‘minlashi mumkin.

Hozirgi zamonaviy tushunchada strategiya – har qanday faoliyat sohasida maqsadga erishishga yo‘naltirilgan bosh, asosiy dasturdir. Strategiya o‘zida bir qator jamlamalarni ifoda etib, ular bilan boshqaruv qarorlarini qabul qilishni tashkil etishda amal qilinadi. Shu bilan birgalikda strategiyaga faoliyatni amalga oshirish va tashkilotning maqsadiga erishiga mo‘ljallangan umumiy kompleks reja sifatida ham qarash mumkin.

Strategiya aniq pozisiya, tashkilot tuzimlasi, uning qadriyatlar tizimi, ayniqsa xodimlar motivasiyasi va nazoratida namoyon bo‘ladi. Strategiya ahamiyatiga ko‘ra tashkilotning yuqori rahbariyati tomonidan ishlab chiqiladi, uning ijrosini ta’minlashda boshqaruvning barcha darajasidagi xodimlar ishtirok etishi ko‘zda tutiladi. Ishlab chiqilgan strategiya tashkilotga umumiy yo‘nalish va o‘ziga xoslikni, uning xodimlariga esa, kundalik harakatlarda aniq yo‘nalishlar olishni beradi.

Boshqaruv sohasidagi har bir mutaxassis boshqaruv nazariyasi va amaliyoti, mahoratini o‘zlashtirgan bo‘lishi, o‘z faoliyatining maqsadlarini aniq belgilay olishi, ularga erishish uchun zarur bo‘lgan strategiya va taktikani belgilab olishi, boshqaruv qarorini qabul qilishi va buning uchun shaxsan mas’ul bo‘lishi lozim.

Ta’lim muassasalari rahbarlari hamda pedagogik jamoa o‘rtasida hamkorlik faoliyatini amalga oshirish jamoadagi sog‘lom psixologik muhitni hamda pedagogik jarayonning samaradorligini ta’minlashning asosiy sharti hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Maxmudov I.I. Boshqaruv psixologiyasi: O‘quv qo‘llanma / Mas’ul muharrir: A.Xolbekov. - T.: DJQA «Rahbar» markazi; «YUNAKS-PRINT» MChJ, 2006.

2. Базарова Т.Ю Управление персоналом. Учебник для вузов / Под ред Т.Ю.Базарова, Б.Л. Еремина - 2-е изд, перерад. и доп. - М.: ЮНИТИ, 2002.

# INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING O‘QUV TOPSHIRIQ ISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH

**D.T.SOBIROV,**
Toshkent Amaliy fanlar universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

*Ushbu maqolada kuzatuv, qiyosiy tahlil, modellashtirish, so‘rovnoma metodlaridan foydalanib, o‘quvchilarning elektron ta’lim muhitida mustaqil ta’limni tashkil etish jarayonida elektron ta’lim resurslaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *innovatsion texnologiyalar, kompetentlik, kreativlik.*

*В данной статье рассмотрены вопросы совершенствования методики использования электронных образовательных ресурсов в процессе организации самостоятельного обучения учащихся в среде электронного обучения с использованием методов наблюдения, сравнительного анализа, моделирования, анкетирования.*

***Ключевые слова:*** *инновационные технологии, компетентность, креативность.*

*This article dealt with the issues of improving the methodology of using electronic educational resources in the process of organizing independent education in the e-learning environment of students using methods of observation, comparative analysis, modeling, survey.*

***Key words:*** *innovative technologies , competence, creativity.*

Dunyoda bo‘lajak pedagog-o‘qituvchilarni, didaktik-metodik kompetentligini rivojlantirishda gibrid ta’lim modellarini samarali qo‘llash mexanizmlarini rivojlantirish, metodik o‘qitish vositasida tpedagogikaning ta’limiy jarayonida, mustaqil ta’lim topshiriqlarini rivojlantirish orqali, ilmiy adabiyotlarda mustaqil topshiriqlarning mazmuniga, foydalilik darajasiga alohida e’tibor beriladi[4]. Jumladan, talabalarning maqsadli ta’limda metodik kompetentligini rivojlantirishning amaliy-metodik va ilmiy metodik ta’minotini rivojlantirish, masofaviy va mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirishning an’anaviy va noan’anaviy shakllarini pedagogik ta’lim sohalariga adaptiv qo‘llash pedagogik-metodik tizimini ishlab chiqish muhim dolzarblik kasb etadi.

Bizning maqolamiz juda muhim va qiziqarli mavzu bo‘lib, talabalarning mustaqil ta’limini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirishni metodikasini takomillashtirish maqsadida quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor berishingiz kerak:

Mustaqil ta'limning mazmuni: Mustaqil ta'limning maqsadi va mazmunini aniqlovchi. Bu, talabalar uchun zarur malumotlarni taqdim etish, ularning o'zlashtirish va amaliyotni rivojlantirishda yordam beradi.

Innovatsion texnologiyalar tanlash: Mustaqil ta'limda innovatsion texnologiyalarni (masalan, interaktiv darsliklar, onlayn darslar, ilova asosida ta'lim, vb.) qanday qilib samarali foydalanishni o'rganish va amaliyotga o'tkazish metodikasini joriy etish[1].

O'quv jarayonini individuallashtirish: Har bir talabaning ilg'orligi, qobiliyati va o'zlashtirishi farqli bo'lishi mumkin. Bu sababli, mustaqil ta'limning metodikasida o'quvchilarning talablari va xohishlari asosida individual yondashish tizimi ishlab chiqilishi zarur.

Amaliyotga asoslangan ta'lim: Teoritik bilimlarni amaliyotga o'tkazish va talabalarni o'zlarining bilimlarini amaliyotda sinovga chaqirish uchun samarali usullarni qo'llash juda muhimdir. Bu, texnik vositalardan samarali foydalanishni ham o'z ichiga oladi.

Monitoring va baholash: Talabalarning o'zlashtirish darajasini, bilim va ko'nikmalarini baholash uchun monitorinq va baholash tizimini joriy etish. Bu, o'qituvchilarga o'quvchilar bilimlarini va rivojlanishlarini kuzatishga yordam beradi va dasturni takomillashtirishga o'z imkoniyatlari misol qiladi.

O'qituvchilar tayyorlash: Mustaqil ta'limning metodikasini rivojlantirishda o'qituvchilarni yangi texnologiyalar va o'quv-uslublarga oid bilimlarini oshirish va ularni rivojlantirishga yo'l qo'ymoq juda muhimdir.

Hamkorlik va ko'cha: O'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar va administratsiya o'rtasidagi hamkorlik va ko'cha qo'llanish, o'quv-tadqiqot ishlari olib borishning muhim qismi bo'ladi.

Bu yo'nalishlar asosida, talabalarning mustaqil ta'limni innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirishni metodikasini takomillashtirishga yondashish maqsadida qadam olib borish juda muhimdir. Ular o'quvchilarning o'zlashtirishini yaxshilash va o'quv-uslublarini yangilashga yordam beradi.

Maqola sarlavhasi: Talabalarning mustaqil ta'lim, o'quv topshiriq ishlarini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish metodikasi.

Joriy holat va muammolar: O'quv jarayoni, xususiy holatlar va dunyodagi so'nggi rivojlanishlar, o'quvchilar va o'qituvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratishiga olib kelmoqda. Mustaqil ta'limning o'zlashtirishga yo'l qo'ymoqda, o'quv topshiriq ishlarini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish juda

muhimdir. Bu metodika, pedagogik uslubni yanada rivojlantirish va o'quvchilar uchun o'rganish jarayonini samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi.

Innovatsion texnologiyalar va o'quv topshiriqlar: Innovatsion texnologiyalar (masalan, interaktiv darsliklar, onlayn darslar, ilova asosida ta'lim, virtual o'qituvchi platformalari, va boshqalar) o'quv topshiriqlarni o'rganish va tushuntirish jarayonlarini yanada samarali qilishi mumkin. Bu texnologiyalar o'quvchilarning mualliflik va tasavvur qobiliyatlari, tahlil va javobgarlik, bilimlarni amaliyotga o'tkazish va kompyuter dasturlarini rivojlantirish imkoniyatlarini yaratadi.

Metodikaning yaratish tizimi: Metodikaning tuzilishi o'quvchilar va o'qituvchilarning talablari va xohishlari asosida o'quv jarayonini individual qilib boshqarishga asoslangan bo'lishi kerak. Bu, o'quv topshiriqlarining innovatsion texnologiyalar asosida tuzilishi, o'quv jarayonining monitoringi va baholashini o'z ichiga oladi.

Amaliyotga asoslangan ta'lim: Teoritik bilimlarni amaliyotga o'tkazish va o'quvchilarning o'zlarining bilimlarini amaliyotda sinovga chaqirish uchun samarali usullar, innovatsion texnologiyalar yordamida o'rganilishi kerak. Bu, o'quvchilarning kritik fikrlash, mualliflik va muhokama qobiliyatlari rivojlanishini ta'minlaydi.

Virtual o'qituvchi platformalari: Bu platformalar o'quvchilarga individual ta'lim olish va o'zlarining o'quv yo'nalishlarini belgilash imkoniyatini beradi. Masalan, Google Classroom, Microsoft Teams, va Moodle kabi platformalar o'quvchilar uchun elektronik topshiriqlar yaratish, vebinarlar o'tkazish, va taqdimotlar ko'rsatish uchun yordam beradi.

Interaktiv darsliklar va ilovalar: Interaktiv darsliklar va ilovalar o'quv jarayonini qiziqarliroq qilish uchun eng muhim vositalardan biridir. Ular o'quvchilarga ma'lumotni o'rganishda va ta'minlashda yordam beradi. Bu ilovalar o'quvchilarga interaktiv sinovlar tashkil etish va o'zlarining tahlil qilish va fikrlash qobiliyatlari rivojlantirishga ham yordam beradi.

Muvofiqlik va xavfsizlik: O'quvchilarning onlayn platformalarda o'rganish jarayonida, shaxsiy axborotlar muhofaza qilinishi kerak. Bu esa, muvofiqlik va xavfsizlik sohasida katta ahamiyatga ega. O'quvchilarning axborotlari shifrlanishi, shaxsiy axborotlarini himoya qilish va onlayn identifikatsiya usullarini qo'llash juda muhimdir.

Tezkor aloqa va qo'llab-quvvatlash: O'quvchilar o'quv jarayonida maslahatlashish va yordam so'ralishga xavfsiz va tezkor usullar bilan ta'minlanishi kerak. O'quvchilar o'qituvchilar yoki dasturxonalar bilan qo'llab-quvvatlash uchun

onlayn chatlar, elektron pochta yoki telefon raqamlari orqali aloqa qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

Bu qo‘shimcha ma’lumotlar, talabalarning mustaqil ta’lim, o‘quv topshiriq ishlarini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish metodikasini yaxshilash va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Natijalar va so‘nggi oqibatlari: Metodikaning amalga oshirilishi va o‘quvchilarning o‘zlashtirishi va bilimlari rivojlantirilganida, ularning o‘zlashtirishi va qobiliyatlari samarali oshadi. Bu, o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun mustaqil ta’limning o‘zini o‘rganish va o‘rganish usullarini yangilashga yo‘l qo‘ymoqda.

Talabalarning mustaqil ta’lim, o‘quv topshiriq ishlarini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish metodikasi, pedagogik uslub va texnologiyalar uchun yangi yo‘nalishlar ochildi. Bu, o‘quvchilarning o‘zlashtirishi va bilimlarni rivojlantirish jarayonlarini samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi[3]. Ushbu metodika, o‘quvchilarning o‘zlarining o‘rganishni rivojlantirish va o‘quv topshiriqlarini amaliyotga o‘tkazish vaqti davomida ularga yordam berish uchun muhimdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Komarova T.S. O‘qitish metodikasi. - Moskva: Ma’rifat, 2019. 160 b.

2. International scientific and practical conference «Economics, management and digital innovation in education: modern trends and approaches». D.T.Sobirov-2024 https://doi.org/10.5281/zenodo.10810692

3. Axmedova M.E. Mustaqil topshiriqlar bilan ishlash va ularni baholash metodikasi // Metodik qo‘llanma, «Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi», MCHJ. Тошкент - 2022. 121 bet.

4. Raximov Z.T. Talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish metodikasi, Monografiya. -T.: «Voris» nashriyoti, 2019. - 116 b.

# АКТУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ИЗУЧЕНИЯ ЯПОНСКОЙ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ В СИСТЕМЕ НЕПРЕРЫВОГО ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА

**Г.В.НИЕТОВА,**
*магистрант Государственной консерватории Узбекистана*

*В статье рассматриваются актуальные аспекты изучения самобытной музыкальной культуры Японии, древнейшей восточноазиатской страны, сохранившей свои уникальные особенности в эпоху глобализации, привлекающей композиторов Узбекистана.*

***Ключевые слова:*** *японская музыкальная культура, поэзия, живопись, музыка, миниатюра, изящество мысли.*

*Maqolada globallashuv davrida o'ziga xos xususiyatlarini saqlab qolgan, O'zbekiston bastakorlarini o'ziga jalb etuvchi eng qadimgi Sharqiy Osiyo mamlakati bo'lgan Yaponiyaning o'ziga xos musiqiy madaniyatini o'rganishning dolzarb jihatlari ko'rib chiqiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *yapon musiqa madaniyati, she'riyat, rasm, musiqa, miniatyura, tafakkur inoyati.*

*The article examines the current aspects of studying the distinctive musical culture of Japan, the oldest East Asian country that has preserved its unique features in the era of globalization, attracting the composers of Uzbekistan.*

***Key words:*** *Japanese musical culture, poetry, painting, music, miniature, grace of thought.*

Изучение музыкальной культуры стран Восточной Азии является одним из перспективных направлений музыкальной науки и образования. Богатейшее самобытное музыкальное наследие и современное музыкальное творчество являются достоянием мировой музыкальной культуры и потому требуют глубокого изучения. Важным этапом в данном направлении явились две Международные конференции, посвящённые 20-летию установления дипломатических отношений между Республикой Узбекистан и Японией. Организационный комитет данных конференций, представленный ведущими специалистами-музыковедами Государственной консерватории Узбекистана, такими, известными учёными, как Саида Касымходжаева, Шойиста Ганиханова, Гулшаной Турсунова, подготовили к изданию ценный сборник научных статей узбекских и зарубежных исследователей [1]. Можно сказать, что данный сборник материалов двух конференций поло-

жил начало специальному изучению взаимосвязей музыкальных культур Узбекистана и Японии.

Следует отметить, что композиторы Узбекистана, в частности, Рустам Абдуллаев, Хабибулла Рахимов, Феликс Янов-Яновский обратились к японским темам в своём творчестве во второй половине XX века и продолжают создавать очень интересные сочинения. Одним из первых в узбекском композиторском творчестве обратился к японской теме композитор Рустам Абдуллаев. В 1973 году он создал вокально-симфонический цикл для голоса и симфонического оркестра «Хиросима фарёди» («Плач Хиросимы») на стихи японских поэтов. Характеризуя данный цикл, исследователь Тамара Вызго отметила: «В узбекскую вокально-симфоническую музыку «Хиросима» Абдуллаева вошла как пример произведения на острую, волнующую тему нашей эпохи, произведения, отвечающего требованиям современной техники композиторского письма и вместе с тем носящего отпечаток национальной самобытности» [2, с. 153-154]. Это ярчайшее драматическое произведение с неизменным успехом исполняется в концертных программах, на международных фестивалях, используется в учебном процессе консерватории. Оно никого не может оставить равнодушным и особенно впечатляюще звучит в исполнении лауреата международных конкурсов Рахима Мирзакамалова. Поистине незабываемым событием музыкальной жизни Узбекистана стало исполнение «Хиросимы» Р.Мирзакамаловым в сопровождении Национального симфонического оркестра Узбекистана под управлением лауреата международных конкурсов Алибека Кабдурахманова в программе концерта на торжественном открытии Фестиваля симфонической музыки 6 ноября 2018 года в Большом зале Государственной консерватории Узбекистана. Столь же великолепно исполнил Р.Мирзакамолов «Хиросиму» на юбилейном концерте в честь 75-летия Рустама Абдуллаева с Государственным симфоническим оркестром Узбекистана под руководством народного артиста Узбекистана Камолиддина Уринбаева в Большом зале Государственной консерватории Узбекистана. Помимо этого Р.Мирзакамалов исполнил данный цикл в различных концертах в сопровождении рояля, на котором непревзойдённо аккомпанировал солисту сам его автор - композитор Рустам Абдуллаев. Таким образом, у вокально-симфонического цикла «Плач Хиросимы» имеется история его исполнительской жизни, интересной судьбы звукового воплощения.

Необходимо отметить, что данный цикл успешно применяется в учебном процессе консерватории как на кафедре академического пения и оперной подготовки, так и на кафедре концертмейского мастерства. Глубокому научно-методическому анализу «Плача Хиросимы» посвятила свой труд заведующая кафедрой концертмейстерского мастерства, профессор Государственной консерватории Узбекистана Рамида Полатханова [3]. В результате тщательного детального рассмотрения произведения она пришла к логическому выводу: «Таким образом, цикл «Хиросима фарёди» выдвигает перед пианистом-концертмейстером ряд сложных задач, решения которых будут способствовать концентрации творческих сил, направленных на раскрытие эстетико-художественной сущности музыки Р. Абдуллаева» [3, с. 16-17].

Необходимо отметить возросший интерес к японской музыке в Узбекистане. Деятельность Узбекско-Японского Центра способствует установлению творческих контактов, активизирующих композиторское творчество. Показательны интерес японцев к узбекским народным инструментам и желание обучаться игре на них, особенно, на дутаре, сочинять музыку для дутара. Так, к примеру, в программе концерта «Фортепианные шедевры женщин-композиторов», состоявшегося в Органном зале Государственной консерватории Узбекистана 4 мая 2022 года, прозвучало сочинение японского композитора Хироми Яно «Вариации на тему Паганини» для дутара и фортепиано в исполнении Ироды Рихсиевой (дутар) и Адибы Шариповой (фортепиано). В связи с этим желательно, чтобы узбекские композиторы и музыканты-исполнители обратились к японским музыкальным инструментам кото, сё, биве, сямисяну и открыли звуковой мир японской традиционной музыки узбекским слушателям. Диалог культур, взаимообмен творческим опытом, знаниями, умениями и навыками являются важнейшими движущими силами духовного обогащения, прогресса.

Исходя из этого актуальными аспектами изучения японской музыкальной культуры в Узбекистане являются следующие:

– ознакомление с основами японской традиционной и современной музыкой, мелодиями, ритмами, музыкальными инструментами;

– ознакомление с японской литературой, живописью, традиционным театром, поэтическом искусством;

– изучение произведений композиторов Узбекистана на японские темы и сюжеты.

Вхождение в мир японского музыкального искусства духовно обогащает молодое поколение, расширяет представление о творческом процессе. Соприкосновение с искусством Японии открывает красочный мир звуковых образов, активизирует творческое мышление и стремление к познанию новых художественных реалий, которые позволяют, в свою очередь, глубже осмыслить свою собственную национальную музыкальную культуру, её традиции и современное состояние.

**Литература:**

1. Материалы I и II Международных конференций, посвящённых 20-летию установления дипломатических отношений между Республикой Узбекистан и Японией «Узбекистан и Япония: диалог культур». Издание второе, исправленное и дополненное. - Ташкент, 2013. - 120 с.

2. Вызго Т. О характерных тенденциях развития вокально-симфонической музыки // Музыкальная культура Узбекской ССР: Сборник статей. - Москва, 1981. - С. 131-159.

3. Полатханова Р. Вокальный цикл Р. Абдуллаева «Хиросима фарёди» в классе концертмейстерского мастерства. - Ташкент, 1999. - 18 с.

# KASBIY REFLEKSIYA BO'LAJAK O'QITUVCHI TAYYORLASHDA MUHIM OMILI SIFATIDA

**A.A.NURMATOV,**
O'zDJTU dotsenti, RhD

*Maqolada bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirish, o'qituvchilik faoliyatida reflekiyaning o'rni va ahamiyati to'g'risida refleksiv qobiliyatlarni shakllantirish va rivojlantirish, pedagogik refleksiya shaxsning o'z kasbiy faoliyatida qanday o'rin tutishini masalalari yoritilgan.*
***Kalit so'zlar:*** *bo'lajak o'qituvchi, refleksiya, refleksiv qobiliyat, refleksiv qobiliyatning tarkibiy qismlari.*

*This article explores the role and significance of reflection in the development of professional competencies in future teachers. In particular, it examines the importance of shaping and enhancing reflexive abilities in teaching activities. Pedagogical reflection is discussed as a crucial factor in a teacher's professional development, allowing them to analyze and improve their teaching practices.*
***Key words:*** *future teacher, reflection, reflexive ability, components of reflexive ability.*

*В данной статье раскрыта роль и значение рефлексии в развитии профессиональных компетенций будущих учителей. В частности, показана важность формирования и развития рефлексивных способностей в педагогической деятельности. Педагогическая рефлексия рассмотрена как ключевой фактор профессионального роста учителя, позволяющий анализировать и совершенствовать свою педагогическую практику.*
***Ключевые слова:*** *будущий учитель, рефлексия, рефлексивные способности, компоненты рефлексивных способностей.*

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda refleksiv qobiliyat muhim o'rin tutadi. Refleksiya – bu insonning o'z faoliyatini anglash, baholash va uni takomillashtirish jarayoni bo'lib, o'qituvchining o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilish va uni samarali boshqarishiga yordam beradi.

Refleksiv qobiliyat – o'qituvchining o'z xatti-harakatlari, qarorlari, o'quvchilarga bo'lgan ta'siri, shuningdek, o'z pedagogik mahorati haqida chuqur o'ylash va tahlil qilish qobiliyatidir. Ushbu qobiliyat orqali o'qituvchi o'zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi, pedagogik jarayondagi kamchiliklarni sezadi va ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqadi, o'quvchilarning bilim olish jarayonidagi qiyinchiliklarini tahlil qilib, ularga mos yondashuvlarni ishlab chiqadi, o'z ustida ishlash va o'quvchilarga samarali ta'lim berish uchun doimiy o'zgarishlarni amalga oshiradi

Refleksiv qobiliyatning tarkibiy qismlariga shaxsiy refleksiya, kognitiv refleksiya, kasbiy refleksiya, kommunikativ refleksiyani kirirtish mumkin.

O‘z mavqeini mustahkamlash tarkibidagi refleksiv elementlar ko‘plab mutaxassislar tomonidan ajratilgan. Ularning ta’biricha, ongli tarzda amalga oshirilgan tanlov refleksiyasiz vujudga kelmaydi. Chunki, refleksiya mantiqiy bilishning asosi hisoblanadi. Muayyan pedagogik konteksda refleksiya metodi chegaralangan tarzda namoyon bo‘ladi.

Pedagogik refleksiya shaxsning o‘z kasbiy faoliyatida qanday o‘rin tutishini anglashi bilan bog‘liq hodisadir. Bu esa, muayyan pedagogik qarorlarga nisbatan bo‘lajak o‘qituvchining munosabatini ifodalaydi. O‘qituvchi har doim o‘zlariga «Men qanday o‘qituvchiman?», «Mening shaxsiy sifatlarim qay tarzda namoyon bo‘layapti?», «Mening samarali pedagogik faoliyat ko‘rsatishim uchun nimalar to‘sqinlik qilayapti?», «Mening pedagogik faoliyatim sifatini ta’minlashda qanday omillar alohida ahamiyat kasb etayapti?», degan savollarni berib o‘z faoliyatlarini muntazam tashxislab borishlari lozim. Chunki, mazkur savollar bo‘lajak o‘qituvchining o‘z faoliyatiga nisbatan refleksiv munosabatini aniqlash imkonini beradi.

Bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv qobiliyati zaminida uning o‘z faoliyati asoslarini izlash ko‘nikmasi namoyon bo‘ladi. Refleksiya – o‘qituvchining faqatgina o‘zida mavjud bo‘lgan bilimlar, ko‘nikmalar, malakalarni tushunish imkoniyati emas, balki, uning shaxsiyati, faoliyati hamda bilish layoqatini ifodalovchi hodisa hamdir. Refleksiv ko‘nikmaga ega bo‘lgan shaxs kishilik madaniyati asoslarini ham egallagan bo‘ladi. U o‘z faoliyati va shaxsiyatini rivojlantirish layoqatiga ham ega. Chunki refleksiya o‘z-o‘zini ma’naviy rivojlantirish imkoniyati hamdir.

Agar o‘quv-tarbiya jarayonini subyekt-subyekt munosabatlari doirasida tahlil qiladigan bo‘lsak, o‘qituvchining o‘quvchiga ko‘rsatadigan ta’siri natijasi refleksiv jarayon yordamida sezilarli darajada rivojlanadi. O‘z-o‘zini tahlil qilish mexanizmi sifatida pedagogik refleksiya o‘z-o‘zini nazorat qilish, fikrlash hamda mas’uliyatli xulq-atvor mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan har bir bo‘lajak o‘qituvchida refleksiv qobiliyatlarning rivojlanishi muhim ahamiyatga ega. Chunki, refleksiya faqatgina pedagogik bilimlar va o‘z-o‘zini tushunishdan iborat bo‘libgina qolmasdan, o‘qituvchini o‘quvchilar qay tarzda bilishi va tushuna olishini aniqlovchi hodisa hamdir. Uning shaxsiy xususiyatlari, hissiy ta’sir kuchi, kognitiv tasavvurlari shular jumlasidandir. Bunday tasavvurlar o‘z mohiyatiga ko‘ra, hamkorlikdagi faoliyat asosini tashkil qiladi. Mazkur jarayonda refleksiyaning alohida shakli bo‘lgan asosli refleksiv munosabat tarkib topadi.

Bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik rivojlanishi muammosini tahlil qila turib, refleksiya yordamida shaxsiy faoliyatga tavsif berish mumkin. Pedagogik jarayonni o‘ziga xos tarzda yangilash va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini tashkil etishda bo‘lajak o‘qituvchining ijodiy tafakkuri muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Ijodiy tafakkurning xarakterli xususiyati shundaki, bunday tafakkur tarziga ega bo‘lgan o‘qituvchi o‘z tajribalarini ko‘nikmaga aylantira oladi, o‘quv-tarbiya jarayoniga pedagogik ta’sir ko‘rsatishning yangi imkoniyatlarini izlab topadi, o‘z faoliyatida qo‘llagan yangi usullarni ilg‘or pedagogik texnologiyalarga mujassamlashtiradi.

Bo‘lajak o‘qituvchining o‘z faoliyatida tarbiyachilik ko‘nikmalarini namoyon qilishi hamda bu sohadagi pedagogik mahoratni egallashi, tarbiyachilik san’atiga egaligi, ko‘p jihatdan pedagogik refleksiyaga bog‘liq. Bu qator elementlarni o‘zida mujassamlashtiradi: o‘z pedagogik faoliyatlarining mayllarini anglab yetish; o‘zlarining shaxsiy qiyinchiliklari va muammolarini o‘quvchilarnikidan farqlay olish; o‘zini boshqalar o‘rniga qo‘ya bilish hamda o‘z faoliyatiga o‘quvchi nazari bilan qarash; o‘zining kasbiy faoliyatini baholash jarayonini yaxshilash, o‘zining shaxsiy harakatlarini baholay olish.

Buning uchun refleksiya tarkibida tanqidiylik ko‘nikmasini ajratish lozim. Tanqid – ta’lim-tarbiya jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan odatlarni tanqid qilish, bu bevosita maktab va maktabdan tashqari faoliyat doirasida rivojlanadi. Bunda o‘z-o‘zini tanqid boshlanganda, o‘z-o‘zini yerga urish maqsadida emas, balki o‘z ustidan nazorat o‘rnatganda ongli tarzda amalga oshadi va muvaffaqiyatli kechadi. Refleksiyada evristik vazifaning ajratilishi orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning e’tiborini yechilmagan o‘quv masalalariga qaratish lozim. Bu o‘rinda o‘qituvchining e’tibori qarama-qarshiliklarga jalb etiladi. Innovatsion pedagogik faoliyatda refleksiv ko‘nikmalar muhim o‘rin egallaydi. Bo‘lajak o‘qituvchida o‘zining innovatsion faoliyatini amaliyotga tadbiq etish unda muayyan model mavjud bo‘lganda amalga oshadi. Faoliyatni amalga oshirish rejasi, maqsadga yo‘naltirilgan holda tarkib toptiriladi. Refleksiyalar jarayon va pedagogik faoliyatning tarkibiy qismi sifatida o‘quv jarayoni istiqbollarini bashorat qilish maqsadini nazarga tutganda bir qadar murakkablashadi. Bunda o‘quvchining o‘zligi, shaxsiyati muhim o‘rin egallaydi.

Jarayon doirasida faoliyat bevosita taqdim etilmaydi. Chunki, u o‘zida nuqtai nazarni mujassamlashtiradi va refleksiv faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi. Shunday refleksiv nuqtai nazar doirasida faoliyatning taqdim etilishi muayyan maqsadga

tayangan holda tarkib toptiriladi. Refleksiya yordamida kasbiy faoliyat tarkib topadi va boshqariladi.

Kasbiy pedagogik faoliyatda refleksiyaning o'rni muhimligini ko'plab mutaxassislar ta'kidlab o'tganlar. Psixologik tadqiqotlarda ham refleksiya insonni yangi faoliyatga moslashtiruvchi mexanizm sifatida talqin etiladi. Insonning refleksiv vazifasi har qanday faoliyat jarayonida amalga oshiriladi. Bu ko'proq shaxs faoliyatida muayyan qiyinchiliklarning vujudga kelishi bilan bog'liq. Bu jarayonda refleksiv mexanizmlar vujudga keladigan qiyinchiliklarni rekonstruktsiyalash maqsadida foydalaniladi. Bu qiyinchiliklarning vujudga kelish sabablarini aniqlagandan keyin refleksiya turli faoliyatlarni takomillashtirishga ko'maklashishi aniqlandi. Bu o'rinda refleksiya pedagogik faoliyatni rivojlantiruvchi asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Jumladan, o'qituvchining kontseptual mavqei har doim refleksiyaga ehtiyoj sezadi. O'qituvchi pedagogik faoliyatning subyekti sifatida o'quvchilarning taraqqiyotiga o'z kuchini safarbar qiladi. Agar bo'lajak o'qituvchi o'zining shaxsiy nuqtai nazarida sobit bo'lsa, u refleksiya yordamida o'z faoliyati uchun zarur bo'lgan holatlarni ko'ra oladi. Bu jarayonda u o'zining maqsadi nimadan iborat ekanligi, bu maqsadga erishish yo'li qanday bo'lishini aniq tasavvur eta oladi.

Bo'lajak o'qituvchining subyektiv fikri bevosita uning o'ziga bog'liq. Bu jarayon o'qituvchining o'z fikri bilan tashqi olamda mavjud bo'lgan vaziyatlar aloqadorligida talqin etiladi. Ular ijtimoiy madaniy qadriyatlardan iborat bo'lib, o'z-o'zini baholashda namoyon bo'ladi. Qaysikim mazkur omil, bo'lajak o'qituvchi pedagogik faoliyatining shakllanishida ikkinchi muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

**Adabiyotlar:**

1. Колесникова И.А. Педагогическая реальность в зеркале межпарадигмальной рефлексии. - СПб., 1999. 242 с.

2. Ma'murov B.B. Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik yondashuv asosida ta'lim jarayonini loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish tizimi: Ped. fanl. bo'yicha fals. d-ri (PhD) … dis. Avtoref. - T., 2018.

3. Седова Н.В. Научно-практические основы овладения педагогической культурой в образовательном процессе средней школы: Дис.... д ра пед. наук. - СПб., 1997. - 393 с.

# UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA GEOGRAFIYA FANIDAN MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA FOYDALANILADIGAN AXBOROT MANBALARI VA O'QUV VOSITALARI

***O.U.ABDIMUROTOV,***
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti,*
*Geografiya kafedrasi mudiri p.f.f.d., dotsent*

*Ushbu maqolada geografiya fanlaridan mustaqil ta'limni tashkil etishda foydalaniladigan axborot manbalari va o'quv vositalarining ahamiyati va ular yordamida talabalarning mustaqil bilim olish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Geografiya fanidan mustaqil ta'limni samarali tashkil etishda turli xil axborot manbalari, jumladan, geografiya darsliklari, xaritalar, globuslar, atlaslar, diagrammalar, grafiklar va statistik ma'lumotlar muhim ahamiyatga ega ekanligi yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Atlaslar, darsliklar, diagrammalar, geografiya o'qitish metodikasi, globuslar, metodika, natural obyektlar, o'quv vositalari, pedagogika, statistik ma'lumotlar, ta'lim jarayoni, ta'lim samaradorligi, xaritalar.*

*В данной статье рассматривается значение информационных источников и учебных пособий, используемых при организации самостоятельного обучения по географическим дисциплинам, а также возможности студентов в самостоятельном овладении знаниями с их помощью. Подчёркивается важность различных информационных ресурсов, таких как учебники по географии, карты, глобусы, атласы, диаграммы, графики и статистические данные, в эффективной организации самостоятельного обучения по географии.*

***Ключевые слова:*** *Атласы, учебники, схемы, методика преподавания географии, глобусы, методика, природные объекты, учебные пособия, педагогика, статистические данные, образовательный процесс, эффективность обучения, карты.*

*This article examines the importance of informational resources and teaching aids used in organizing independent learning in geography, as well as the opportunities these resources provide for students to acquire knowledge independently. The article highlights that various informational sources-such as geography textbooks, maps, globes, atlases, diagrams, charts, and statistical data-play a vital role in the effective implementation of independent learning in geography.*

***Key words:*** *Atlases, textbooks, diagrams, geography teaching methodology, globes, methodology, natural objects, teaching aids, pedagogy, statistical data, educational process, educational effectiveness, maps.*

Bugungi kunda davlatimiz jahon hamjamiyatida o'z o'rniga ega bo'lishi, O'zbekistonning jahonda rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi uchun mamlakatimizda yashaydigan yoshlarni barkamol aql egalari, yuksak madaniy saviya va ma'naviyatga ega bo'lishlari, zamonaviy ta'lim tizimi sifatiga qo'yilgan talablarning

ortib borishi natijasida xalqaro talablarga mos yuksak bilimli, intellektual rivojlangan, raqobatbardosh pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, innovatsion ta'lim tehnologiyalaridan samarali foydalanish yo'nalishidagi islohotlar izchil davom ettirilmoqda. Shu islohatlar negizida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan – «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsep-siyasi»da: mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish; talabalar bilimini baholash tizimi texnologiyalarini takomillashtirib borish va xolisonaligini ta'minlash kabi bir qator vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish orqali oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan geografiya fanlaridan mustaqil ta'limni samarali tashkil etish imkoniyatlarini oshiradi.

Kredit-modul tizimi ta'lim jarayonida mustaqil ta'limning tashkil etilishida yangicha yondashuvlarni talab etadi. Ushbu tizimning asosiy tamoyillaridan biri talabalarga o'z ta'limlarini boshqarish imkoniyatini yaratishdir. Geografiya fanini o'qitishda bu yondashuvning o'rni katta, chunki geografiya kabi tabiiy fanlar o'quvchilarga nafaqat nazariy bilimlarni, balki ularni amaliy tarzda qo'llash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishni talab etadi.

Geografiya fanlarini o'qitish jarayonida ayniqsa mustaqil ta'limni tashkil etishda foydalaniladigan axborot manbalari va o'quv vositalari ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, geografiya kabi tabiiy fanlarda o'qitish vositalarining samarali qo'llanilishi talabalarning materialni yaxshiroq anglashiga yordam beradi. Geografiya ta'limida eng ko'p qo'llaniladigan axborot manbalariga geografiya darsligi, xarita va globuslar, atlaslar, natural vositalar, geografik rasmlar, statistik ma'lumotlar, jadvallar, diagrammalar, grafiklar kabilarni misol qilishimiz mumkin.

Geografiya darsligi axborot manbalari orasida eng asosiysi hisoblanadi. Darslikda fan bo'yicha barcha zaruriy ma'lumotlar to'plangan bo'lib, talabalarga yangi bilimlarni o'zlashtirishda yordam beradi. Geografiya darsligining asosiy afzalligi shundaki, u nazariy va amaliy bilimlarni birlashtiradi va talabalarga fanning turli jihatlarini aniq tushunishga imkon yaratadi. Shuningdek, darsliklarda tasviriy materiallar, xaritalar va rasmlar orqali mavzularni yanada jonlantirish mumkin.

Geografiya ta'limida xaritalar va globuslar eng muhim axborot manbalaridan hisoblanadi. Xarita – bu Yer yuzasining ko'rinishini kichraytirilgan va tekis shaklda ifodalovchi vosita bo'lib, talabalarga turli geografik obyektlarni va ularning o'zaro joylashishini tushunishda yordam beradi. Globus esa Yerning kichik modelidir. Globus talabalarga Yerning shakli va tuzilishini real o'lchamlarda ko'rsatadi. Globus orqali o'quvchilar yerning aylanma harakatini, qutblar va ekvatorni, shuningdek, materiklar va okeanlarni aniq tasavvur qilishlari mumkin.

Geografiya o'qitishida atlaslar ham muhim axborot manbalaridan biridir. Atlas – bu bir nechta xaritalar va boshqa tasvirlarni o'z ichiga olgan to'plam bo'lib, talabalarga geografik ma'lumotlarni bir joyda topish imkonini yaratadi. Atlaslarda keng qamrovli ma'lumotlar, jumladan, siyosiy va tabiiy xaritalar, iqlim va iqtisodiy ko'rsatkichlar, shuningdek, globuslar va boshqa qo'shimcha diagrammalar mavjud. Atlaslar orqali o'quvchilar turli mintaqalar, davlatlar va ularning iqtisodiy va tabiiy holatini o'rganishadi.

Geografiya darslarida natural vositalardan foydalanish ham muhimdir. Masalan, geografik obyektlar, tuproq namunalarini, yer osti boyliklarini, o'simlik va hayvonlarni tarqalishini yoki iqlim sharoitlarini tasvirlovchi materiallar. Bu vositalar talabalarga nazariy bilimlarni amalda ko'rish va o'rganish imkonini beradi.

Geografiya ta'limida geografik rasmlar, ayniqsa devoriy rasmlar, juda muhim vosita hisoblanadi. Bu rasmlar, talabalarga geografik obyektlar va jarayonlarni vizual tarzda ko'rsatishga yordam beradi. Devoriy rasmlar sinf xonasida doimiy mavjud bo'lishi tufayli talabalar uchun doimiy vizual qo'llanma vazifasini bajaradi. Ular geografik tushunchalarni ongli ravishda eslab qolishga yordam beradi va mavzularni real hayotga yaqinroq tushuntirish imkonini beradi. Masalan, geografiya darslarida ostona va sharshara tushunchalarini juda ko'p ishlatamiz, lekin ular orasidagi farqi ko'rsatib berishda devoriy rasmlardan foydalanilsa, talabalarda bu ikki tushuncha haqida aniq tasavvurlar shakllanadi va hotirada doimiy saqlanib qolinadi.

Geografiyada statistik ma'lumotlar o'quvchilarga o'rganilayotgan mavzularni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Statistik ma'lumotlar, masalan, aholi soni, iqtisodiy ko'rsatkichlar, tabiiy resurslar yoki ekologik holatlarni o'lchash uchun ishlatiladi. Bu ma'lumotlar talabalarga geografik hodisalarni raqamlar yordamida tahlil qilish imkoniyatini beradi. Jadvallar geografik o'qitishda ma'lumotlarni tizimli ravishda taqdim etishda qo'llaniladi. Ular talabalarga turli ma'lumotlarni osonlik bilan taqqoslash va tizimlashtirish imkoniyatini beradi. Diagrammalar geografik

ma‘lumotlarni aniq va tushunarli tarzda tasvirlashda ishlatiladi. Masalan, harorat va yog‘inning oylik hamda yillik o‘zgarishini yoki aholining tabiiy o‘sishini va milliy tarkibini diagrammalarda tasvirlanishi, talabalarga bu ma‘lumotlarni qisqacha va vizual tarzda taqdim etadi.

Grafiklar geografik ta’limda ko‘plab turli jarayonlarni tahlil qilishda qo‘llaniladi. Ular ma’lumotlarni vaqt bo‘yicha yoki boshqa o‘zgaruvchilar asosida ko‘rsatishda samarali vosita hisoblanadi. Misol uchun, aholining o‘sish grafigi yoki iqlimning o‘zgarishini ko‘rsatadigan grafik talabalarga ma‘lumotlarni yanada osonroq tushunishga yordam beradi. Grafiklar yordamida geografik tendensiyalarni ko‘rish va ularga aniq baho berish osonlashadi.

Geografiya o‘qitishda yuqoridagi vositalardan samarali foydalanish uchun ularni dars jarayoniga to‘g‘ri kiritish zarur. Bu vositalardan geografiya darslarida samarali foydalanishlari uchun bo‘lajak geografiya o‘qituvchilariga mustaqil ta’lim jarayonlarida ularni yaratish metodikasini chuqur o‘rgatib borishimiz lozim. Darsliklar va tasvirli qo‘llanmalar talabalarga mavzularni tushuntirishda asosiy manba bo‘lib, diagrammalar, grafiklar va statistik ma’lumotlar esa talabalarga o‘rganilgan mavzuni mustahkamlashda yordam beradi. O‘qituvchi vositalarni turlicha va mos ravishda qo‘llagan holda, talabalarga yanada jonli va samarali o‘qitish imkoniyatini yaratadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida mustaqil ta’lim muhim o‘rin tutadi. Geografiya o‘qituvchilari uchun ko‘rgazmali o‘quv vositalarini tayyorlash faqat amaliy ko‘nikma emas, balki ularning ijodiy fikrlashini, fanlararo integratsiyani, dizayn va taqdimot kompetensiyalarini shakllantiradi. Mustaqil ishlarda xaritalar asosida yangi tematik kartogrammalar yaratish, relyef maketlarini yasash, geotizimlar modellari, ekologik jarayonlar yoki urbanizatsiya dinamikasini ifodalovchi diagrammalar tayyorlash kabilar o‘quv jarayonini mazmunan boyitadi.

O‘qitish vositalari – bu bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish maqsadida o‘quv jarayoni tarkibiga kiritilgan turli xil bilim manbalaridir. O‘qitishdagi ko‘rsatmalilik talabalarning geografik tasavvur doiralarini kengayishiga, mavzuni tushunarli bo‘lishiga va puxta o‘zlashtirilishiga imkon beradi. O‘quv dasturi bo‘yicha talabalar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan o‘quv materiali turli manbalardan olinadi.

Mustaqil ta’limning ta’limiy va tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirish maqsadida, o‘quv jarayoni tarkibiga kiritilgan bilim manbalari o‘qitish yoki o‘quv vositalariga aylanadi. Masalan, tog‘ jinslari ochilmasi talabalar tomonidan o‘rganilgan taqdirdagina o‘qitish vositalariga aylanadi. O‘qitish vositalari tabiat va jamiyat

haqidagi ilmiy bilimlarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. O‘qitish vositalarining asosiy vazifasi bilim olish jarayonida ko‘rgazmalilikni ta‘minlashdir. Demak, ta’lim-tarbiya saviyasini yanada yuqoriga ko‘tarish maqsadida maxsus tayyorlangan va darsda bevosita tadbiq etiladigan qo‘llaniladigan, foydalaniladigan barcha qo‘llanmalar o‘qitish vositalari, ya’ni o‘quv qurollari deyiladi.

Mustaqil ta’limning samarasi talabalarni tabiat va xo‘jalik haqida bevosita olgan tasavvurlariga tayanadi. Shuning uchun tabiat haqidagi bilimlarni o‘zlashtirishda natural vositalardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Natural vositalar o‘rganiladigan obyekt va narsalarning shakli, rangi, ba’zan kattaligi haqida to‘g‘ri va aniq tasavvur hosil qiladi. Ushbu vositalar yordamida talabalar o‘rganiladigan materiallarni puxta o‘zlashtirib oladi.

**Adabiyotlar:**

1. Abdimurotov O.U. Kredit-modul tizimi sharoitida bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarining mustaqil ta’limini tashkil etish shakllari // «Pedagogika» ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2023. 4-son. 289-293 b.

2. Abdimurotov O.U. Kredit-modul tizimi sharoitida bo‘lajak geografiya o‘qituvchilariga mustaqil ta’limni samarali tashkil etish vositalari // ILIM ham JAMIYET (FAN va JAMIYAT) ilmiy-uslubiy jurnal 2024. № 5/2. 56-59 b.

3. Abdimurotov O.U. Kredit-modul tizimi sharoitida bo‘lajak geografiya o‘qituvchilariga mustaqil ta’limni tashkil etish dolzarb pedagogik muammo sifatida // «Ta’lim, fan va innovatsiya» jurnali 2023. 6-son. 106-110 b.

4. Murodova M. Kredit-modul tizimida mustaqil ta’lim. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Toshkent: «Fan ziyosi» nashriyoti, 2023

5. Nazarqulova G.A. Kredit-modul tizimida bo‘lajak boshlang`ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini takomillashtirish. Dissertatsiya. - T.: 2023. -152 b.

6. Rajabov F.T., Abdimurotov O.U. Geografiya ta’limida mustaqil ta’limni tashkil etish bo‘yicha xalqaro tajribalar // «Geografiya - nazariyadan amaliyotga» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. Qo‘qon. 2024-yil 25-noyabr. 393-398-b.

## NOFILOLOGIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA CHET TIL O'QITISH,O'RGATISH MASALALARI XUSUSIDA

**Sh.A.ATADJANOVA,**
Nizomiy TDPU P.f.d.(DSc), dots.

*Ushbu maqola oliy ta'lim tizimida chet tilni o'qitish/o'rgatish masalalariga bag'ishlangan. Xususan, chet til o'quv predmeti , ixtisosligi chet til bo'lmagan bo'lajak mutaxassislarni kelgusidagi kasbiga vosita sifatida tayorlab borishi, hamda ularni soha bo'yicha ham muloqot qilishga o'rgatish masalalari hususida so'z boradi.*

***Tayanch so'zlar:*** *Chet til, muloqot, mutaxassis, o'quv predmeti, o'qitish, rivojlantirish, ta'lim tizimi*

*Данная статья посвящена вопросам преподавания/изучения иностранного языка в системе высшего образования. В частности, тематика иноязычного образования заключается в подготовке будущих специалистов, специализацией которых не является иностранным языком, в качестве инструмента для будущей профессии, а также в обучении их к общению в данной сфере.*

***Ключевые слова:*** *иностранный язык, коммуникация, специалист, учебный предмет, система образование*

*This article is dedicated to the issues of teaching foreign languages in the higher education system. In particular, it discusses how the foreign language subject prepares future specialists, who do not have a specialty in foreign languages, as a tool for their future profession, and how they are taught to communicate in their field.*

***Key words:*** *foreign language, communication, specialist, subject, the education system.*

O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lidan tezkorlik bilan ilgarilib borar ekan bu borada xorijiy mamlakatlar bilan har tomonlama aloqalarni rivojlantirish muhim ekanligini davrning o'zi ko'rsatmoqda. Shu sababli bugungi kunda o'sib yangilanib borayotgan O'zbekiston uchun har tomonlama etuk raqobqtbardosh mutaxassislarga extiyoj kundan kunga oshib bormoqda. Bu borada chet ellik hamkorlari bilan chet tilda muloqt qila oladigan kadrlarga har doumgidan ko'ra ehtiyoj kattadir. Bunday ulkan maqsadlarni amalga oshirishda chet tilni o'zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. So'ngi yillarda ta'lim tizimida ham chet tilni o'qitilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda va Muhtaram prezidentimiz tomonidan ham qator farmon va qarorlar qabul qilindiki, ularning barchasida o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim tarbiyasiga hamda ularni har tomonlama rivojlanishiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri chet til o'qitish / o'rgatish masalasiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Chunki chet tilni o'zlashtirish orqali

talaba o‘zga davlat tilini, madaniyatini o‘rganubgina qolmay, o‘zlari tanlagan yo‘nalishlari boyicha ham malakaga ega bo‘lish imkoniyati kattadir.Shunga binoan, nofilologik oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak turli soha mutahassislarini har tomonlama rivojlantirish ta‘lim jarayoninig muhim vazifalaridan biriga aylandi.

Shularni inobatga olgan holda xususan chet tilni o‘qitishda talabalarining nutqiiy kompetensiyasini rivojlantirishning o‘ziga xos metodik, pedagogik,psixologik va lingvistik jihatdan tadqiq etish talab etilmoqda. Nofilologik oliy ta’lim muassasalari talabalariga chet tilni o‘qitishda nutqiiy kompetensiyasini takomillashtirish muayan pedagogik jarayonda amalga oshirilib, aniq maqsad,mazmun, vosita usul va metodlarga egadir. Bugungi mutaxassis qaysi soha egasi bo‘lishidan qat’iy nazar o‘z mutaxassisligi bo‘yicha chet tilda axborot ola bilishi va axborot berishi zarur ekanligini davrning o‘zi ko‘rsatmqda. Bu masalani ijobiy hal qilishda albatta, har bir ta‘lim muassasalarining professor -o‘qituvchilari oldiga muayyan yangi vazifalarni qo‘yadi. Bu esa o‘z o‘rnida ta’limda talabalarni kasbiy malakalarini rivojlantirish uchun yangicha mezonlarni ishlab chiqish zaruriyatini yuklaydi. Yangicha mezonlar davlatimiz istiqbolini ko‘zlagan holda, mustaqillik mohiyatidan kelib chiqqan bo;lishi kerak.

Bizning fikrimizcha, bugungi globallashuv jarayonda chet til ta’limida talabalar kasbiy malakalarini rivojlantirish mezonlari quyidagilarda aks etishi zarur:

chet tilda sohaviy axborotlarni o‘zlashtirish;

mutaxassislik terminlarni chet tilda o‘zlashtirish;

ona tilida olgan mutaxassislik ma‘lumotlarni chet til materiali orqali mustahkamlash.

Ta’kidlash joizki talabalarning kasbiy ko‘nikma va malakalari ularning chet til bo‘yicha avvaldan egallagan fon (xos)bilimlari asosida shakllanadi. Talabalarning chet tildagi kasbiy nutqini o‘stirish ularning maktab davrida o‘zlashtirgan ko‘nikma va malakalariga tayanadi. Malaka olingan bilim va ko‘nikma asosida shakllanadi.

Nofilologik OTMda ta’lim olayotgan bo‘lajak mutaxassislar o‘zlari tanlagan sohalari bo‘yicha umumiy pedagogika , kasbiy psixologiyadan bilimlarini oshirib, ularni o‘zlarinig tanlagan sohalariga bog‘liq holda o‘qib/o‘rganib boradilar. O‘Z faoliyatlari davomida talabalar tanlagan sohalari bo‘yicha mutaxassis sifatida shakllanib, chet tilda ham muloqoyni samarali amalga oshirish kompetensiyasiga ham ega bo‘ladilar.. «Tilni o‘rgatish -bu nutq faoliyatini o‘rgatish bo‘lib, til sohibi nutq odobining barcha ko‘rinishlarini o‘z ichiga oladi.Jamiyat til tufayli mavjuddir»[1:3]. Chet til talabalarni ijtimoiylashiga xizmat qiladi va etuk mutaxassis bo‘lish imkonini beradi.

Chet til shaxsni shakllantirishda jamiyat extiyojini qondirishda yuqori potensiyalga ega. Chet til o‘rgatish nafaqat bilimni namoyon etadi, balki talaba shxsiga bevosita ta’sir o‘tkazadi. Chet til shaxsni intellectual, madaniy va kasbiy rivojlanishiga manba bo‘ladi

va jamiyatni ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik va madaniy o‘sish omillaridan hisoblanadi. Xar qanday tilni o‘rganish til sohibi madaniyatini bilish vositasi hamda shaxsni kommunikativ madaniyatini shakllantirish demakdir deb ta‘kidlaydi [2: 196-197].

Chet til ta’limidagi kommunikativ maqsad madaniyatlararo kognizantni shakllantirishdan iboratdir.

Professor J.J.Jalolov «Kognizant shaxsni shakllantirishda matn muhim omildir» deb nomlangan ilmiy maqolada ilk bor Kognizant termininnig ta’lim jarayonidagi ta‘rif -tavsifini mufassil yoritib berdi va mazkur terminga izoh berilgan. Unda aytilishicha Kognizant-o‘rganilayotgan til vositasida yangi va foydali bilim oluvchi shaxsdir. Kognizant bir tillik ,ikki tillik va ko‘p tillik bo‘lishi mumkin.

Demak, bizning nazdimizda kognizant o‘rganilayotgan til tashuvchilari bilan muloqot qila oladigan shaxsdir.

Shuningdek, olim matn tushunchasiga ham izoh berib otadi. MATN-nutq faoliyati turlarida o‘rin oladigan kommunikativ xodisadir. Matn termini ta‘lim tizimida ananaviy talqini emas, balki muloqotda retseptiv va reproduktiv tarzda axborot olish va yzatish manbai sifatida sharhlanmoqda deb ta’kidlaydi olim. [3: 70-72].

Nofilologik OTMda chet til o‘rgatishdan maqsad – talabalar bo‘lajak kasbiy faoliyatlarida o‘zlari o‘rganib kelayotgan chet tildan amaliy foydalana olishdir. Bundan shunday fikrga kelamizki , har bir bo‘lajak mutaxassis o‘zi tanlagan sohasi bo‘yicha ham chet tildan kasbga oid ma‘lumotlarga ega bo‘lib borishlari lozim desak mubolaga bo‘lmas. Bu borada mazkur OTMlarda chet tildan saboq beruvchi professor o‘qituvchilar oldiga fanni o‘qitish /o‘rgatish bo‘yicha muhim talablar qoyiladi. Yani, oqituvchi talabalarga bo‘lajak kasbiga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etishi va faoliyat olib borishi kerak bo‘ladi.

Kasbga yo‘naltirilgan faoliyat, birinchidan, chet til o‘quv predmetinig mutaxassislik fanlari bilan integrasiyalashuvi;

ikkinchidan, chet til o‘qituvchisi oldida shunday vazifa turadiki, fanlararo aloqani o‘rnatish asosida talabaning kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirilishi; uchinchidan, bo‘lajak mutaxassis uchun zaruriy kasbiy ko‘nikma, malakalarni rivojlantirishda ta’limning zamonaviy metodlaridan foydalanishni taqazo etadi.

Chet til egallashning psixoloigik qonuniyatlaridan kelib chiqib, ta’limning har qaysi bosqichi uchun etakchi maqsad belgilangan. Bizning nadzimizga ko‘ra chet til o‘qitish /o‘rgatishning yakuniy maqsadi talabalarning kasbiy malakalarini hosil qilishdir. Chet til o‘qitish/o‘rgatish jarayonida kommunikativ maqsadni amalga oshirish muhim hisoblanadi. Talabalar chet til vositaida kerakli va zaruruiy informatsiya ola bilishi ,muloqot qila bilishi fikr almasha olishi talab etiladi. Olimlarning (С.Л.Рубинштейн, А.Н.Леонтьев, И.А.Зимняя, Е.А.Милерян) konsepsiyasiga ko‘ra malka faqatgina bilim va ko‘nikmani egallash orqali erishiladi. Ta’limning yakuniy maqsadi malakalrni

hosil qilishdan iboratdir. Malakaning  shakllanishiga metodik bilim va ko'nikmani egallash orqali erishish mumkin. Bu borada sohaga yo'naltirilgan matn va mashqlarning o'rni kattadir. Shuning uchun talim jarayoni ko'p qirrali va murakkab pedagogik hodisadir. Nlisoniy OTMda chet til o'qitish-o'rgatish masalalari ham , ilmiylik, faollik, onglilik, izchillik, ketma -ketlik, tushunarlilik, o'quvchining individual xususiyatlarini e'tiborga olish kabi didaktik prinsiplarga tayanadi.

Chet tillarni egallash  orqali yoshlarni dunyoga xalqimiz ma'naviyati, vadaniyati va san'atini , soxaviy yangiliklarni tanitish imkoniyati yaratiladi.

Demak, bugungi kunda halqaro munosabatlarning keng yo'lga qoyilganligi chet tilga  bo'lgan talabning ortishiga sabab bo'lmoqda. Chunki chet til ta'limi  saviyasini ko'tarish ham jamiyat taraqqiyoti bilan bogliq ekanligini davrning o'zi ko'rsatmoqda.

Inson zaruriy information texnologiyalarni o'zlashtirayotib ,nafaqat yangi faoliyat usulini egallaydi  muhimi, dunyoga boshqacha ko'z bilan qarashga, o'zining shaxsiy axborotlashuv dunyosini ham  ko'radi .

Tili o'rganilayotgan mamlakatdagi yoshlarning hayoti, urf-odati, milliy bayramlari va mashhur kishilari haqida batafsil ma'lumotlarning berilishi ham bo'lajak mutaxassislarning dunyoqarashni yanada kengayishiga zamin yaratadi. Shuni ta'kidlash joizki, 4ta nutq faoliyatini yaxshi egallagan shaxs axborotni gapirish va yozma nutq orqali etkaza olishi kommunikant  (мuloqotdosh) hisoblanadi.

Xulosa qilib  aytish mumkinki, har bir chet til o'qituvchisi  talabalarning bo'lajak kasbiy sohada ham muloqotga o'rgatish masalsiga jiddiy e'tibor qaratishlarii  muhim ekanligini unutmaslik  kerakdir.  Chunki bugungi Renaiissance davr shuni  taqazo  etmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1.Бездаго Р.А. Человек и его язык.http://www.philology.ru/linguistics1/budagov-70.htm

2.Сайназаров Х. Общее и частное в методике обучения иностранным языкам // Тезисы докладов и сообщений Республиканской научно -методической конференции по теории и методике преподавания иностранных языков в средних школах, высших и средних педагогических заведениях. - Т., 1980. - С. 196-197.

3. Ж.Жалолов. Когнизант шахсни  шакллантиришда  матн  муҳим омилдир/ Тил,таълим,таржима. №1/2021    - Б.70-72 .

4.Atadjanova Sh. A. Талабаларнинг касбий малакасини шакллантириш методикаси . Т-2016  «ФАН» . Монография -185б

# «LIFELONG LEARNING» KONSEPSIYASI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING SHAXSIY SIFATLARINI UZLUKSIZ RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI

**N.S.HAKIMOVA,**
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD

*Mazkur maqola «Lifelong learning» (hayot davomida o'qish) kontseptsiyasi doirasida bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy sifatlarini uzluksiz rivojlantirish strategiyalariga bag'ishlanadi. IMRAD formati bo'yicha yozilgan tadqiqotda mazkur yondashuvning pedagogik asoslari, shaxsiy sifatlarning aniqlanishi, hamda rivojlantirishning innovatsion usullari ko'rib chiqiladi. Ushbu maqolada vizual vositalar – diagramma va rasmlar orqali tushunchalar aniqroq yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *lifelong learning, shaxsiy sifatlar, rivojlantirish strategiyalari, o'qituvchilar tayyorlash, pedagogika, kasbiy rivojlanish, innovatsion ta'lim.*

*Данная статья будет посвящена стратегиям непрерывного развития личностных качеств будущих учителей в рамках концепции Lifelong learning (обучение на протяжении всей жизни). В исследовании, написанном в формате IMRAD, будут рассмотрены педагогические основы этого подхода, определение личностных качеств, а также инновационные методы развития. В этой статье более конкретно рассматриваются концепции с помощью наглядных пособий - диаграмм и изображений.*

***Ключевые слова:*** *«Lifelong learning», личностные качества, стратегии развития, подготовка учителей, педагогика, профессиональное развитие, инновационное образование.*

*This article is dedicated to the strategies for developing the personal qualities of future teachers within the framework of the "lifelong learning" concept. Written in the IMRaD format, the research examines the pedagogical foundations of this approach, the identification of personal qualities, and innovative methods for their enhancement. The concepts are illustrated more clearly through visual tools such as diagrams and images.*

***Key words:*** *«Lifelong learning», personal qualities, development strategies, teacher preparation, pedagogy, professional development, innovative education.*

Dunyo bo'ylab ta'lim jarayonlari globallashuv, raqamli texnologiyalar va kognitiv yondashuvlar bilan uyg'unlashib bormoqda. Bu o'z navbatida, o'qituvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish strategiyalarini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Bo'lajak pedagoglarning bilimlari va malakalarini shakllantirishda an'anaviy usullar yetarli emas, shuning uchun «Lifelong learning» kontseptsiyasi bu borada yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Ushbu konsepsiyaning qo'llanilishi o'qituvchilarning o'quvchilarga yanada samarali ta'sir ko'rsatishiga yordam beradi.

O'qituvchilarning shaxsiy sifatlari va kasbiy tayyorgarligi ta'lim sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shunga qaramay, hozirgi ta'lim tizimida ko'plab bo'lajak o'qituvchilarda zamonaviy talablarga javob beradigan shaxsiy sifatlar va ko'nikmalar yetarli darajada rivojlanmagan. Bu esa kelgusida ta'lim jarayonining samaradorligini pasaytirishi mumkin.

«Lifelong learning» konsepsiyasi ushbu muammoni hal qilish uchun samarali vosita hisoblanadi. Ushbu kontseptsiya asosida pedagoglarni tayyorlash, ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishlarini qo'llab-quvvatlash yangi o'quv dasturlarini ishlab chiqishni talab etadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – «lifelong learning» kontseptsiyasi asosida bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

1. «Lifelong learning» konsepsiyasining nazariy asoslarini o'rganish.
2. Bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy sifatlariga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash.
3. Rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish va ularning samaradorligini baholash.

Ishchi guruhlar bilan ishlash tajribali va yangi boshlovchi pedagoglarni birlashtirish orqali maqsadli natijalarga erishishga yordam beradi. Ular o'zaro fikr almashish, hamkorlik qilish va muammolarni birgalikda hal qilish imkoniyatini yaratadi. Bu usul ta'lim jarayonlarini amaliy jihatdan rivojlantirish uchun zarur vositadir.

Amaliy tajribalarning asosiy maqsadi ishchi guruhlarning o'zaro aloqalarini kuchaytirish va ularning rivojlanish jarayonlariga qo'shgan hissasini tahlil qilishdir. Shuningdek, guruhlar orqali innovatsion g'oyalarni sinovdan o'tkazish va ularning natijalarini baholash ko'zda tutilgan.

Ishchi guruhlar tajribali o'qituvchilar, yangi pedagoglar va talabalar orasidan shakllantirildi. Guruhning har bir a'zosi o'ziga xos tajribaga ega bo'lib, bu turli yondashuvlarni birlashtirishga imkon berdi. Shuningdek, guruhlar tarkibi turli darajadagi malakaga ega bo'lgan ishtirokchilardan iborat bo'ldi.

Tajriba davomida har bir guruhga muayyan pedagogik masala berildi. Masalan, o'quvchilar motivatsiyasini oshirish yoki o'qitish usullarini diversifikatsiya qilish bo'yicha yechimlarni ishlab chiqish vazifalari berildi. Guruhlar ushbu masalalarni amaliy ravishda hal qilishda ishladi va o'zaro fikr almashdi.

Ishchi guruhlar o'zaro muhokamalarda faol ishtirok etdi. Har bir guruh a'zosi o'z fikrini ochiq bildirdi va boshqalarning takliflarini qabul qilishga tayyor edi. Bu jarayon ijodkorlik va hamkorlik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qildi.

Amaliy tajribalar davomida guruhlar innovatsion texnologiyalar va yondashuvlardan foydalandi. Masalan, ta'lim jarayonida raqamli vositalar, gamifikatsiya va interaktiv platformalardan foydalanish o'rganildi. Bu usullar amaliy jarayonlarni samarador qilishda muhim rol o'ynadi.

Tajribalar davomida har bir guruhning faoliyati monitoring qilindi. Har bir bosqichda erishilgan natijalar baholanib, kelgusi vazifalar uchun asosiy xulosalar chiqarildi. Monitoring jarayonida guruh a'zolarining hamkorligi va muammolarni hal qilish qobiliyati tahlil qilindi.

Amaliy tajribalar davomida turli xil qiyinchiliklar yuzaga keldi, masalan, guruh a'zolari orasida fikrlarning farqi yoki resurslarning yetishmasligi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun aniq vazifalar belgilandi va har bir ishtirokchi o'z roliga mas'uliyatli yondashdi.

Tajribalar natijasida ishchi guruhlar bilan ishlashning afzalliklari va kamchiliklari aniqlandi. Eng muhim saboqlardan biri shundan iboratki, hamkorlik jarayonida ochiq muloqot va doimiy tahlil muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, innovatsion vositalardan foydalanish samaradorlikni oshiradi.

Amaliy tajribalar ishchi guruhlarning rivojlanishi uchun samarali platforma bo'lib xizmat qildi. Kelgusida guruhlar bilan ishlash jarayonlarini yanada takomillashtirish uchun ko'proq resurslar ajratish, turli darajadagi ishtirokchilarni jalb qilish va monitoring tizimini kuchaytirish tavsiya etiladi. Ushbu tajriba o'qituvchilarni yangi yondashuvlarga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi.

Rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish va testdan o'tkazishda bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish va testdan o'tkazish uchun quyidagi misollarni ko'rib chiqish mumkin:

1. Interaktiv o'quv dasturini yaratish va sinovdan o'tkazish strategiyasi shaxsiy sifatlarni rivojlantirish uchun maxsus interaktiv o'quv dasturini ishlab chiqish (masalan, tanqidiy fikrlash, jamoada ishlash, o'z-o'zini boshqarish bo'yicha treninglar) o'tkazishdan iborat bo'lsa, uni amalga oshirish o'qituvchilarga mo'ljallangan virtual simulyatsiyalar yoki amaliy mashg'ulotlar platformasini yaratishdan iborat. Testlash usulida ushbu dastur ma'lum vaqt davomida kichik guruh ishtirokchilari bilan sinovdan o'tkazilib, ularning dasturdan avval va keyingi shaxsiy sifatlaridagi o'zgarishlar baholanadi.

2. Mentorlik tizimini joriy qilish va kuzatish strategiyasi tajribali pedagoglarni bo'lajak o'qituvchilarga mentor sifatida tayinlash bo'lib, strategiyani amalga oshirish orqali har bir talaba mentor bilan o'zaro muloqotda bo'lib, amaliy masalalarni hal qilish va o'z shaxsiy maqsadlarini aniqlashga o'rgatiladi hamda testlash usulida

mentorlik jarayonida talabalarning o‘z-o‘ziga ishonchi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati baholanadi.

3. Shaxsiy rivojlanish rejalari ustida ishlash har bir talabaga shaxsiy rivojlanish rejasi tuzish va amalga oshirishni o‘rgatish orqali amalga oshiriladi hamda talabalar maqsadlari, ustuvorliklari va vaqtni boshqarish bo‘yicha rejalar tuzadi. O‘qituvchilar ularga individual tahlillar asosida fikr-mulohazalar beradi. Bilim darajasini aniqlashda reja bajarilishining samaradorligini kuzatish uchun o‘z-o‘zini baholash va nazorat jarayonlarini tashkil etish muhim omil bo‘lib qoladi.

4. Rivojlantiruvchi o‘yinlarni joriy qilishda shaxsiy sifatlarni mustahkamlashga qaratilgan o‘yin va treninglardan foydalanish (masalan, liderlikni rivojlantirish o‘yinlari, muammolarni hal qilish bo‘yicha vazifalar) amalga oshiriladi. Bunda talabalar kichik guruhlarga bo‘linib, o‘zaro hamkorlik va jamoada ishlashni talab qiluvchi o‘yinlarda qatnashadi. O‘yinlardan so‘ng talabalar orasidagi kommunikatsiya, muammolarni hal qilish darajasi va jamoaviy ko‘nikmalar baholanadi.

5. Fikr-mulohaza sessiyalarini tashkil etish uchun talabalar o‘z faoliyatlari va shaxsiy rivojlanishlarini baholash uchun muntazam fikr-mulohaza sessiyalarida qatnashadi. Har bir sessiyada talabalar yutuqlari va kamchiliklarini tahlil qilib, keyingi qadamlarni belgilashadi. Sessiya oldidan va keyin talabalar fikr-mulohazalari va motivatsiya darajalaridagi o‘zgarishlar kuzatiladi.

6. Amaliyotga yo‘naltirilgan o‘quv modullarini sinovdan o‘tkazish nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llashni o‘rgatadigan modullarni ishlab chiqish bilan bog‘liq. Amalga oshirishda, masalan, o‘quvchilarni sinfda dars o‘tish yoki pedagogik muammolarni hal qilish kabi real holatlarni simulyatsiya qilishga jalb etish mumkin. Modullarni tugatgan talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida qoniqish va samaradorlik so‘rovnomasi o‘tkazish.

7. Raqamli texnologiyalardan foydalanishni joriy qilish davr talabidir va bunga rivojlantiruvchi raqamli vositalardan (masalan, onlayn ta’lim platformalari, shaxsiy rivojlanish ilovalari) foydalanish kiradi. Talabalar uchun raqamli dasturlarni sinab ko‘rish va ularda o‘z natijalarini kuzatish imkoniyatlarini yaratish hamda platformadagi faoliyat va rivojlanish indikatorlarini monitoring qilishni o‘z ichiga oladi.

Yuqoridagi misollar yordamida strategiyalarni ishlab chiqish va samaradorligini sinovdan o‘tkazishning amaliy mexanizmlari aniqlandi. Har bir yondashuvni maxsus sharoitga moslashtirib, kengroq foydalanish mumkin.

Tadqiqotda 150 nafar pedagogika fakulteti talabalari, 20 nafar tajribali pedagoglar va 5 nafar ta‘lim menejerlari ishtirok etdilar.

Tadqiqot vositalariga so‘rovnomalar, monitoring tizimlari, dinamika

diagrammalari kiradi.

So'rovnomalar – talabalarning motivatsiya darajasini aniqlash.

Monitoring tizimlari – talabalar faoliyatining natijalarini baholash.

Dinamika diagrammalari – rivojlanish jarayonlarini kuzatish.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, quyidagi omillar bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy sifatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi:

1. Motivatsiya
2. Ta'lim resurslariga ega bo'lish.
3. Tashqi muhitning ta'siri.
4. O'z-o'zini anglash darajasi.

Rivojlantirish strategiyalarining samaradorligi sifatida tadqiqot davomida quyidagi yondashuvlar muvaffaqiyatli deb topilganligi qayd etilishi bilan birga, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– Interaktiv o'quv dasturlarini yaratish.

– Hayotiy vaziyatlarda o'qitish metodikasidan foydalanish.

– Mentorlik tizimi orqali shaxsiy yordam ko'rsatish.

Diagramma 2'dan ko'rinib turibdiki, rivojlantirish dasturlari qatnashchilarning o'z-o'zini baholash darajasini 40% ga, motivatsiyani esa 35% ga oshirishga yordam berdi.

Lifelong learning konsepsiyasining asosiy afzalliklaridan biri shundaki, bu yondashuv o'zgaruvchan muhitga moslashuvchanlikni ta'minlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yuqorida keltirilgan strategiyalar nafaqat shaxsiy sifatlarning rivojlanishiga, balki bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy malakasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Lifelong learning konsepsiyasini amalga oshirishda vujudga keladigan cheklovlarni nazardan chetda qoldirib bo'lmaydi.

Tadqiqot quyidagi cheklovlarga ega:

1. Tadqiqot ishtirokchilarining soni cheklangan.
2. Natijalarning umumlashtirilishi uchun ko'proq vaqt talab qilinadi.

Keyingi tadqiqotlar uchun yo'nalishlarga

– ta'lim muassasalarida mentorlik tizimining kengroq joriy etilishi,

– shaxsiy sifatlarni rivojlantirishda texnologiyalardan foydalanishning roli,

– rivojlantirish strategiyalarining uzoq muddatli natijalarini baholashlar kiradi.

Xulosa. Tadqiqot natijasida shuni xulosa qilish mumkinki, «lifelong learning» kontseptsiyasi bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Tavsiyalar.

O'qituvchilar tayyorlash tizimiga interaktiv metodlarni keng joriy qilish.

1. Mentorlik dasturlarini ishlab chiqish va ulardan samarali foydalanish.

2. Har bir talabaga individual yondashuvni yo'lga qo'yish.

3. Ta'lim dasturlarini shaxsiylashtirish va ularni raqamli vositalar bilan boyitish.

4. Diagrammalar va grafikalar, ya'ni, rivojlantirish strategiyalarini joriy qilish bo'yicha amaliy tavsiyani diagramma ko'rinishida beramiz:

**Adabiyotlar:**

1. Knowles, M. S. (1975). Self-directed learning: A guide for learners and teachers.

2. Kolb, D. A. (1984). Experiential learning: Experience as the source of learning and development. UNESCO. (2021). Futures of Education: Learning to Become.

3. Brookfield, S. D. (2013). The skillful teacher: On technique, trust, and responsiveness in the classroom.

4. Rustambek Qo'ldoshev1,2,1 , Nargiza Dilova2 and Nargiza Hakimova2. Guiding left-handed students to a healthy lifestyle during the period of adaptation to school education//BIO Web of Conferences 120, 01049 (2024) MBFA 2024

5. Nargiza Hakimova. «Lifelong learning» tamoyili asosida bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati//til va adabiyot.uz ilmiy-metodik elektron jurnal, научно-методический электронный журнал scientific-methodological electronic journal//2025-yil, yanvar 1-son142-143bet.

6. Xakimova Nargiza Supxanova Bo'lajak o'qituvchlarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga «Lifelong learning» konsepsiyasini shakllantirish//pedagogika jurnali 2024-yil, 5-son 21-24bet

*Jurnalning ushbu sonini*
*tayyorlashda qatnashganlar:*
*L.Qaraxanova, S.Pirmatov.*

*O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligidan*
*03.01.2007 yilda № 0101 tartib raqami bilan*
*ro‘yxatdan o‘tgan.*

*«Uzluksiz ta’lim» jurnali O‘zbekiston Respublikasi OAK*
*rayosatining 2013 yil 30 dekabrdagi 201/3-sonli qarori bilan*
*pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha ilmiy jurnallar*
*ro‘yxatiga kiritilgan.*

*Jurnal talablariga to‘liq rioya qilingan holda 1,5 intervaldagi*
*6-7 bet hajmdagi ilmiy maqolalar elektron versiyasi*
*bilan birga qabul qilinadi.*

Bosishga ruxsat etildi: 06.02.2023 y. Qog‘oz bichimi 60x84 $^1/_{16}$
Ofset bosma usulida bosildi. 8-bosma taboq.
Adadi 120 nusxa. Buyurtma

**«ADAD PLYUS» MCHJ matbaa korxonasi.**
**Toshkent sh., Chilonzor t. Bunyodkor ko‘chasi, 28-uy.**